

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

AL-Xorazmiy nomidagi Urgansh Davlat Universiteti

Qo'l yozma huquqida
UDK:911.375(575.171)

Yusupov Ahmedjon

***Xorazmda arxaika davri madaniy-xo'jalik markazlari (joylashishi va
tipologik hususiyatlari)***

***5A120302 «Tarix» (mamlakatlar va yo'nalishlar bo'yisha)
Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan***

DISSERTATSIYA

Ilmiy raxbar:

Dots. Q. Sobirov.



Urgansh – 2014.

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
УРГАНЧ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ**

Факультет Тарих.

Кафедра Тарих.

Ўқув йили 2013-2014.

Магистратура талабаси Юсупов Ахмаджон.

Илмий раҳбар доц. Собиров К.

Мутахассислиги 5A120302 – Тарих
(йўналишлар ва мамлакатлар бўйича).

МАГИСТРЛИК ДИССЕРТАЦИЯСИ АННОТАЦИЯСИ

Мавзунинг долзарблиги: Собик Совет тарихшунослигида Хоразмнинг Арханка даврида аҳоли томонидан қад кўтарилган шаҳарча ва шаҳарларнинг жойлашиш хусусиятлари, типологияси масалаларига умуман эътибор берилган эмас. Шунингдек, Амударё ва унинг шаҳобчаларидан пасттектисликлар томон каналлар чиқарилиши муносабати билан вужудга келган маданий-хўжалик воқалар тўғрисида илмий мулоҳазаларга эга бўлган тадқиқот эълон қилинган эмас. Юқорида қайд қилинган муаммоларнинг илмий ечимини топиш мавзуни долзарблиги ҳисобланади.

Ишнинг мақсади ва вазифалари: Илмий тадқиқотнинг асосий мақсади ва вазифалари қуйидагилардан иборат: Зироаткор аҳоли томонидан Амударёнинг ўнг ва сўл сарҳадларини ўзлаштириш соҳасидаги фаолиятини ёритиш; аҳоли томонидан қад кўтарилган шаҳарча ва шаҳарлар, уларнинг тузилиши ва мудофаа тизимини таҳлил қилиш; Милоддан аввалги VI-V аср охирида воқеа кечган этник муносабатларни ёритиш; Шаҳарлар мисолида Хоразмда давлатчилик масалаларига аниқликлар киритиш.

Тадқиқот объекти ва предмети: Амударёнинг ўнг ва сўл соҳили сарҳадларида арханка даври шаҳарлари тарихи объект бўлиб, унинг урганилиши предмети ҳисобланади.

Тадқиқот услубияти ва услублари: Тарихийлик, ҳолислик, узвийлик тамойиллари асосида, миллий мафкура асосидаги янгича фикрлаш, ҳаққоний илмий таҳлил қилиш.

Тадқиқотнинг илмий янгиллиги: Ишимизда Хоразмда маданий-хўжалик марказларнинг вужудга келишига бўлган омиллар изоҳланди; Маданий-хўжалик марказларнинг вужудга келиши ва ривожланиш босқичлари қараб чиқилди; Архаика даврига оид ёдгорликларнинг археологик жиҳатидан ўрганилиш натижалари ёритилди; Архаика даврида Хоразмда этник муносабатлар таҳлил қилинди; Ёзма манбалар ва археологик тадқиқотлар натижалари қиёсий таҳлил қилинди; Архаика даври шаҳарлари тўғрисида маълумотлар берилди; Шаҳарча ва шаҳарларнинг жойлашиши, типологияси изоҳланди. Ишимизнинг асосий янгиллиги ҳам шундадир.

Тадқиқотнинг амалий аҳамияти: Тадқиқот мазмунини қамраб олган тарихий маълумотлар Ўзбекистон ва Хоразм тарихини милоддан аввалги VI-V асрларда қамраб олган бўлимини ёритишда назарий манба бўлади.

Иш тузилиши ва таркиби: Магистрлик диссертацияси: Кириш, уч бўб, хулоса ва адабиётлар рўйхатидан иборат.

Бажарилган ишнинг асосий натижалари: Тадқиқот иши “Тарих” факультетининг йиғилишида муҳокамадан ўтган ҳамда тадқиқот юзасидан 3 та илмий мақола эълон қилинган.

Хулоса ва таклифларнинг қисқача умумлаштирилган ифодаси: Хоразмда Архаика даври тарихига оид манбалар ва тадқиқотлар маълумотлари янада чуқур, танқидий ёндоқлашиб, ҳолисона урганилмоғи ва ўзбек тилига таржима қилинмоғи лозим.

Илмий раҳбар:

доц. Собиров К.

Магистратура талабаси:

Юсупов Ахмаджон.



THE MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY SPECIALIZED
EDUCATION OF
THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN,
URGENCH STATE UNIVERSITY.

Faculty __ History : Student of Master Degree Yusupov
Axmedjon
Department __ History : Scientific Advisor Sobirov Quramboy
Study year _ 2013-2014 Speciality_5 A2220203-History

ANNATATION TO MASTER DEGREE DISSERTATION

The actuality of the work: In the former soviet historical period little attention was paid to the cities, their replacement and typological problem that were built by the population of archaic Khorezm period. Furthermore, no scientific research was declared on agricultural regions wich caused from creating new channels from Amudarya river. To find solution to the above-mentioned problems is considered the actuality of the work.

The aim and tasks of the work: The aim and the tasks of the include the following: to explain the activity of population in changing the sides of Amudarya into agricultural fields; to discuss the creation of cities and towns, their formation and protection system built by the population. To make clear the ethnic relationship in the VI-V centuries B.C; to give exact explanation for government system in Khorezm with the examples of cities.

The object and subject of the work. The object of the work is the archaic cities found in both sides of Amudarya and its research is the subject of the work.

The methodology of the work: In the research work, historical- typological, justification methods are in use.

The novelty of the work: In the scientific novelty of the master degree work we considered the resons for appearing the agricultural areas in Khorezm region. The creation and increasing steps of agricultural areas were looked

through. The results of learning archeological things are explained; Ethnic relationships during archaic period were discussed, written notices and archeologic research results were discussed. More information was given on the cities of Archaic periods; the typology and replacement of cities and towns were defined.

The practical importance of the work. The given historical information in the research work can be a theory for explanation of history of Uzbekistan and Khorezm in the VI - V centuries B.C.

The component and structure of the work. The following master degree work includes: introduction, 3 chapters, conclusion and the list of used literatures.

The main results of the work: The research work was discussed in the discussion of history department and 3 scientific articles have been announced on the work.

Shortly defined form of invitations and conclusion: The sources belonging to the archaic times Khorezm and researches must be again investigated more thoroughly and translated into uzbek.

Scientific supervisor:

Student of Master Degree:

Sobirov Quramboy.

Yusupov Axmedjon.

Xorazmda arxaika davri madaniy-xo'jalik markazlari (joylashishi va tipologik xususiyatlari)

Kirish.....	3-7
1 Bob.Xorazmda madaniy xo'jalik markazlarning vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanish tarixi.	
1.1.Xorazmda arxaika davri madaniy-xo'jalik markazlari vujudga kelishining ijtimoiy-iqtisodiy omillari.....	8-19
1.2.Madaniy-xo'jalik markazlarining vujudga kelishi va rivojlanish bosqichlari.....	20-29
2 Bob.Arxaika davri qishloq va shaxarlarida arxeologik tadqiqotlar.	
2.1.Arxaika davrida etnogenez va etnik jarayonlar.....	30-38
2.2.Amudaryoning o'ng va so'l soxili madaniy-xo'jalik markazlarida arxeologik izlanishlar.....	39-48
2.3.Yozma manbalar va arxeologik tadqiqotlar natijalarining qiyosiy taxlili.....	49-51
3 Bob. Qadimgi Xorazmda shaxarsozlik madaniyati va ilk davlatchilik masalalari.	
3.1.Arxaika davri qishloq va shaharlarining joylashishi va tipologik xususiyatlari.....	52-61
3.2.Shaxarlar qurilishi va binokorlik xususiyatlari.....	62-65
3.3.Qishloq va shaxarlarining mudofaa elementlar taxlili.....	66-76
Xulosa.....	77-78
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va rasmlar ilova qilinadi.....	79-82

KIRISH

Mavzu dolzarbligi: Sobiq imperiya jamiyatini qamrab olgan ijtimoiy-siyosiy burhonlar, iqtisodiy tanglik ittifoq doirasidagi ittifoqdosh respublikalarining ajralib chiqib ketish uchun keng imkoniyat eshigini ochib berdi. Sobiq ittifoq siyosiy jihatidan parchalanib ketganidan keyin paydo bo'lgan milliy mustaqil davlatlar o'zligini anglashga, yangi bo'ladigan jamiyatga xos mafkura yaratishga xarakat qilib, davlatchilik tizimi to'g'risida turlicha g'oyalar, maxsus kontsepsiya va dasturlar kashf etishni boshladilar. Shu ma'noda I.A.Karimov "yurtiga, vatanga muhabbat, insonparvarlik tuyg'ulari xalqimizning qon-qoniga singib ketgan azaliy xususiyatdir. Ana shu noyob insoniy fazilatlarni asrab-avaylash va yanada takomillashtirish, farzandlarimizni ozod va demokratik O'zbekistonning munosib o'g'il-qizlari etib tarbiyalash masalasi asosiy yo'nalishimiz bo'lishi kerak" deb qayd qilgan edi¹. Mustaqillikning dastlabki yillarida tarixiy haqiqatga zid tor millatchilik qarashlari yuzaga chiqqanini, uning natijalarini unutish gunoh. Bunday qarashlarga barham berish uchun vujudga kelgan siyosiy tuzilmalarni ilmiy jihatidan tushunib olish, ularning tarixiy ildizlarini aniqlash hozirgi kunning dolzarb muammolardan biriga aylangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov "Hozirgi eng muhim, eng dolzarb vazifamiz-jamiyatimiz a'zolarini, avvalombor voyaga etib kelayotgan yosh avlodni o'z vataniga mehr-muhabbat tuyg'usini uyg'otish o'zligini anglash ruxida tarbiyalashdan iboratdir."²

Xorazm Qizilqum va Qoraqum oralig'ida qolib ketgan mintaqa bo'lsa ham, tarixiy obidalarga boylgi jihatidan, boshqa mintaqalardan ajralib turadi. Xorazm vohasi aholisining bunyodkorlik faoliyati natijalariga e'tibor bergan prezidentimiz "Tarixi qariyb uch ming yilga boradigan buyuk fan va madaniyat o'lkasi bo'lgan, jahon tsivilizatsiyasiga bebaho hissa qo'shgan ulug' zotlar vatani "Avesto" dek o'chmas asr yaratilgan tabbarik tuproq Xorazm zamini

¹ Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. Т. 1995, б. 204.

² Каримов И.А. Хушёрликка даъват. Т. 1999, б. 29.

butun dunyoga ma'lum va mashhur! deb qayd qilganlar.³ Prezidentimiz I.A.Karimov "Xorazm noyob madaniyat, nafis san'at, yuksak ma'rifat, turmushning dono falsafa va insonparvarlik g'oyalari bilan yo'g'rilgan adabiyot va she'riyat maskani, dunyoviy ilm o'choqlaridan biridir deb qayd qilgan edilar⁴. Amudaryoning ximiyaviy moddalarga ega bo'lgan suvi bo'lmaganida Voha aholisining noyob madaniyat va nafis san'atni yaratish borasidagi ijodi bo'lmasligi tabiiy hol.

A.S.Kes tomonidan olib borilgan geologik tadqiqotlar natijalaridan ma'lumki, to'rtlamchi davr oxiriga kelib, Qoraqum unguzidan Orol dengizigacha pasttekislik uchta havzadan iborat. Chunonchi Sariqamishbo'yi, Oqchadaryo va Orolbo'yi xavzalari⁵. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, Xorazmning Oqchadaryo xavzasi dastlab insoniyat tomonidan o'zlashtirilgan.⁶ Xorazm ekspeditsiyasi xodimlari A.V.Vinogradov voha aholisining bundan V-III ming yilliklar, M.A.Itina esa II-I ming yilliklar boshlari bronza davri aholi tarixini o'rganib, ularning tarixini ilmiy jaoatchilikka e'lon qilganliklarini esga olish zarur.⁷ Sobiq Sovet tarixshunosligida Xorazmning arxaika davriga oid tarixiy ma'lumotlar yuluq-yuluq holatda edi. Amudaryo va uning shahobchalaridan pasttekisliklar tomon kanallar chiqarilishi munosabati bilan vujudga kelgan madaniy-xo'jalik vohalar to'g'risida ilmiy mulohazalarga ega bo'lgan tadqiqot e'lon qilingan emas. Yuqorida qayd qilingan muammolarning ilmiy echimini topish uchun ushbu mavzuni tanlab oldik.

Mavzuning maqsad va vazifalari. Mavzuning kirish qismida qayd qilingan muammolardan kelib chiqib, quyidagi vazifalarini bajarish maqsadga muvofiq deb xisobladik.

³ Каримов И.А. Озод ва Обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт, пировард мақсадимиз. Т. "Ўзбекистон" Т.8.2000 6.75.

⁴ Каримов И.А. Бунёдкорлик йўлидан. 4-жилд, Т. "Ўзбекистон", 1996.6.269.

⁵ Кесь А.С. Антропогенное воздействие на формирование аллювиально-дельтовых равнин Амударьи. // Культура и искусство древнего Хорезма. М., 1981, с.73.

⁶ Толстов С.П. Древний Хорезм М. «Наука», 1948. Он же. По следам древнехорезмийской цивилизации М.-Л., «Наука», 1948. Он же. По древним дельтам Окса и Яксарта. М., Наука, 1962.

⁷ Виноградов А.В. Неолитические памятники Хорезма /МХЭ, Вып-3, 1962. Он же. Древние охотники и рыболовы Среднеазиатского Междуречья М. «Наука», 1981. Итина М.А. Новые стоянки Тозабагыбской культура Ангка-5 и Кават-3 в 1957 г /МХЭ, Вып 2, 1960. Она же поселение Якка-Парсан-2 (раскопки 1958-1959 гг) МХЭ, Вып 6, 1963.

-Xorazmda shaharsozlik madaniyati vujudga kelishi arafasida jamiyatni qamrab olgan jarayonni qarab chiqish;

-Ziroatkor axoli tomonidan Amudaryoning o'ng va so'l sarhadlarini o'zlashtirish sohasidagi faoliyatini yoritish;

-Amudaryoning o'ng va so'l sohili sarhadlarida aholi tomonidan qad ko'tarilgan shaharcha va shaharlar to'g'risida ma'lumot berish;

-Miloddan avvalgi VI-V asr oxirlarida vohada kechgan etnik munosabatlarni yoritish;

-Arxaika davri yodgorliklarining arxeologik jihatidan o'rganilish natijalarini qarab chiqish;

-Yozma manbalardagi ma'lumotlarni arxeologik ashyolar bilan taqqoslab jamiyat manzarasini yoritish;

-Arxaika davri shaharlarining tuzilishi va mudofaa tizimini tahlil qilish;

-Shaharlar misolida Xorazmda davlatchilik masalalariga aniqliklar kiritish.

Mavzuning o'rganilish darajasi. Xorazm ekspeditsiyasi tomonidan Xorazmning arxaika davriga mansub yodgorliklar ro'yxatga olinib, uning natijalari ilmiy jamoatchilikka e'lon qilingan edi⁸. S.P.Tolstovning ikki asarida Xorazm va unga ulanib ketgan Sariqamishbo'yi havzalarida aholi tomonidan bino qilingan qal'alarining rasmi, rejasi va mudofaa inshootlari to'g'risida ma'lumotar aks etgan. Ko'zaliqirda qisman arxeologik izlanishlar olib borgan xolos. Arxeologik izlanish natijasidan kelib chiqqan tadqiqotchi yodgorlik uy chorva mollariga mo'ljallanib qurilgan degan xulosaga kelganligi ma'lum. XX asrning 70 yillaridan to 80 yillarigacha O.A.Vishnevskaya Ko'zaliqirda arxeologik izlanishlarni olib borib, shahar tarixiga oid qimmatli materiallarni olishga muyassar bo'lgan va shunga asoslanib, uni Xorazmning ilk poytaxti bo'lgan degan xulosaga kelgan⁹.

⁸ Толстов С.П. Древний Хорезм. М."Наука", 1948. Он же. По следам древнехорезмийской цивилизации. М-Л «Наука», 1948.

⁹ Вишневская О.А. Раскопки на городище Кюзели-гыр.Ао, 1971, М."Наука", 1972. с.533-534. Она же. Раскопки городища Кюзели-гыр Ао, 1977 М. "Наука" 1978 с. 544-545. Вишневская А, Рапопорт Ю.А. Городище Кюзели-гыр: К вопросу о ранним эпохе истории Хорезма //ВДИ, № 2, 1947 с.150- 173.

1958-1961 yillarda Yu.A.Rapoport, M.S Lapirov - Skoblo qal'aliqirda arxeologik tadqiqotlarni olib borishi munosabati bilan, uning saroyini o'rgandi. U uchta qurilish davriga mansub ekanligi aniqlanib, Ahamoniylar noibining qarorgohi bo'lgan¹⁰. XX asrning 60 yillar o'rtalaridan M.G.Vorob'eva Janubiy Oqchadaryo havzasidagi Dingilja vohasida arxeologik qazish ishlarini olib borgan. Qishloq tarixiga oid noyob materiallar olingan va shu asosda yodgorlik miloddan avvalgi V asrda barpo qilingan degan xulosaga kelgan¹¹.

Turkmanistonlik arxeolog V.N.Pilipko Charjo'y viloyati Deynau tumanida joylashgan Qo'shqal'a, Odoytepa yodgorliklari to'g'risida tarixiy ma'lumotlarni beradi. Tadqiqotchi fikricha, mazkur yodgorliklar mil.avvalgi VI asrda bino qilingan¹².

Vatanimiz mustaqilligi yillarida Xorazm Ma'mun akademiyasining arxeologik guruhi xodimlari Ichanqal'a, Xazorasp va Xumbuztepalarda arxeologik tadqiqotlarni olib borib, ularning tarixiy sanasini miloddan avvalgi V asr bilan belgiladilar¹³.

Mavzuning manbasi. O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.A.Karimovning Xorazm tarixiga bildirgan fikr mulohazalari nazariy manba bo'ldi. Sho'ro hokimiyati yillarida S.P.Tolstov rahbarligidagi arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi xodimlarining Amudaryoning o'ng va so'l sarhadlarida aholi tomonidan barpo qilingan yodgorliklarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar va milliy mustaqillik yillarida o'lkamizda mahalliy arxeolog olimlar tomonidan o'tkazilgan arxeologik qazishmalar natijasida olingan ashyolarning tahlili asosida vujudga kelgan tarixiy ma'lumotlar manba bo'lib hisoblandi.

Mavzu ob'ekti. Tadqiqotda Amudaryoning o'ng va so'l sohili sarhadlarida arxaika davri shaharlari tarixi ob'ekt bo'lib hisoblandi.

Mavzuning ilmiy ahamiyati:

¹⁰ Рапопорт Ю.А., Лапиров-Скобло М.С. Раскопки дворцового здания на городище Калалигыр-1 в 1958-1961 гг (МХЭ,вып-6, 1963. с-156.

¹¹ Воробьева М.Г. Дингильджа . Усадьба середины Iтыс-я до.н.э. в древнем Хорезме М.Наука 1973. с 16-218.

¹² Пилипко В.Н. Из работ Амударьинского отряда АО, 1968 г. М.Наука, 1969. с. 428.

¹³ Пилипко В.Н. Из работ Амударьинского отряда АО, 1968 г. М.Наука, 1969. с 428.

-Xorazmda madaniy-xo'jalik markazlarning vujudga kelishiga bo'lgan omillar izohlandi;

-Madaniy-xo'jalik markazlarning vujudga kelishi va rivojlanish bosqichlari qarab chiqildi;

-Arxaika davriga oid yodgorliklarining arxeologik jihatidan o'rganilish natijalari yoritildi;

-Arxaika davrida Xorazmda etnik munosabatlar taxlil qilindi;

-Yozma manbalar va arxeologik tadqiqotlar natijalari qiyosiy tahlil qilindi;

-Arxaika davri shaharlari to'g'risida ma'lumotlar berildi;

-Shaharcha va shaharlarning joylashishi, tipologiyasi izohlandi;

-Shaharlar misolida xududiy chegaralar va aholining markazlashishi qarab chiqildi;

-Shaharlar ilk davlatchilikning muhim belgilari ekanini aniqlab berildi;

-Vatanimiz milliy mustaqilligi yillarida viloyat xududida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijalari yoritildi.

-Arxaika davrida kechgan jarayonlar to'g'risida umumiy xulosalar qilindi.

Mavzuning amaliy ahamiyati. Tadqiqot mazmunini qamrab olgan tarixiy ma'lumotlar O'zbekiston va Xorazm tarixini miloddan avvalgi VI-V asrlarda qamrab olgan bo'limini yoritishda nazariy manba bo'ladi. Shuningdek, Al- Xorazmiy nomli Urganch davlat universiteti Tarix fakultetining "Tarix" guruhlar talabalari ishtirokida tashkil etilgan Tarix to'garaklarida mavzular tayyorlash jarayonida tarixiy ma'lumotlar qo'l kelishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining umumta'lim maktablarining 6 sinf o'quvchilarining O'zbekiston tarixini o'rganish jarayonida mavzu materiallaridan foydalanishdan xoli bo'lmaydi.

Mavzuning xronologik davri. Mavzuning tarixiy sanasi mil.avv.VI-V asrlar.

Mavzu tuzilishi: Kirish, uch bob, xulosa va adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I BOB. Xorazmda madaniy-xo'jalik markazlarning vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanish tarixi.

I.1. Xorazmda arxaika davri madaniy-xo'jalik markazlari vujudga kelishining ijtimoiy-iqtisodiy omillari.

1937 yildan Xorazm ekspeditsiyasi Quyi Amudaryo, Sariqamishbo'yi va Uzboy xududlarida qidiruv ishlarini olib borib, 400 ziyod tarixiy obidalarni ro'yxatga olgan edi¹⁴. Ekspeditsiya xodimlari tomonidan ro'yxatga olingan qadimgi qal'alar qatorida arxaika (miloddan avvalgi VI-V asrlar) davriga mansub yodgorliklar qayd qilingan.

Xorazm ekspeditsiyasi xodimi M.G.Vorob'eva ma'lumotiga ko'ra, Amudaryoning o'ng sohili sarhadlarida aholi tomonidan barpo qilingan 250 ta, so'l sohilida esa 60 dan ortiq arxaika davriga oid qishloq tipidagi aholi markazlari va hajmi o'rta, katta shaharlar mavjudligini qayd qilgan edi¹⁵. Xorazm ekspeditsiyasi xodimi A.S.Kesning olib borgan geologik tadqiqotlari natijalaridan ma'lumki, er geologiyasining to'rtlamchi davri mobaynida Uzboy, Sariqamish, Quyi Amudaryo va Orolbo'yi sarhadlarining shakllanishi yakun topgan.¹⁶ O'zbek geograf olimlari O'rta Osiyoning tabiiy geografiyasi o'quv qo'llanmasida ham Amudaryo va Sirdaryo dinamikasi tufayli Uzboy, Sariqamish, Quyi Amudaryo xududlari shakllanganligiga e'tiborni qaratganlar.¹⁷

P.Baratov, M.Mamatqulov, A.Rafiqovlarning ma'lumotlariga ko'ra, bundan 25-10 mln yillar ilgari (Neogen davri) Orolbo'yi va Qizilqumda juda keng tekisliklar tarkib topgan. Orol cho'kmasi yuqori Neogenning oxirida tarkib topa boshlagan bo'lib, hozirgi yakuniy holatida emas edi. O'rta to'rtlamchi davrda Amudaryo Qoraqum pasttekisligini to'ldirib shimol tomon burilgan. Zarafshon daryosining beshta irmog'i suvini olib uning bir tarmog'i Uzboy orqali Kaspiy dengizining Janubi-G'arbiy qismiga quygan¹⁸. Amudaryoning

¹⁴ Толстов С.П. Древней Хорезм. М. 1948. Кадимги Хоразм харитаси.

¹⁵ Воробьева М.Г. Проблема «Большого Хорезма и Археология //Этнография и археология Средней Азии. М. «Наука», 1979.с.40

¹⁶ Кесь А.С. Антропогенное воздействие на формирование аллювиально-дельтовых равнин Амударьи //культура и искусство древнего Хорезма //М.Наука, 1981 с.73.

¹⁷ Баратов П, Маматкулов М, Рафиқов А.Ўрта Осиё табиий географияси. Т. «Ўқитувчи», 2002.

¹⁸ Кўр.асар.Б.283-284.

o'ng sohilining shimoli-sharqiy tomonida Sulton Uvays tog'i joylashgan, balandligi 471 m¹⁹. Shimoli-g'arbiy tomonida Yumurtog' va Qubotog'larning balandligi 300 metrdan oshmaydi. Amudaryo havzasi Nukus shahari atrofidan boshlangan bo'lib, deltaning umumiy maydoni 144500 km². Quyi Amudaryoning vujudga kelgan qadimiy havzasi antropogen allyuvial yotqiziqlardan (gil, gilli qum, qumloq, qumoq) bo'lib, uning qalinligi 20 m, ba'zi xududlarda 100 metrga borgan. Amudaryo Pitnak yaqinidan qisqarib, Tuyamo'yin tangligini hosil qiladi. Vodiyning kengligi 450-480 m, so'ngra esa yana kengayib, 10 km hosil qiladi. Sulton Uvays, Quyonchiq, Qoratov, Jumirtov past tog'lar orasida Amudaryo qisqarib oqadi. Amudaryo Nukus shaharidan keyin Qipchoqdaryo, Oqchadaryo, Erkindaryo, Ko'xnadaryo, Toldiqdaryo, Qozoqdaryo kabi tarmoqlarga ajralgan. Bu o'lkaga shimoldan Arktika, shimoli-sharqdan Sibir sovuq shamollari bemalol kirib kelishi oqibatida qish sovuq, bahor kech, kuz erta boshlanadi. 1925 yil Amudaryo To'rtko'l shahridan 8 km uzoqlikda oqib turgan bo'lsa, 1934 yilga kelib, 500 m qolgan. 1938 yil To'rtko'l shahrini daryoning toshqin suvi yuva boshlagan. 1959 yilga kelib, Amudaryo suvining toshishi natijasida butun shaharni bosib ketgan. Vohada sug'orma dehqonchilik madaniyatining rivojlanishida Polvonyop, G'azovot, Shovot, Qilichniyozboy, Toshsaqa, Mang'it, Qizketgan, Qirqqiz kabi yirik va o'rta hajmi kichik ichki sug'orish inshootlari muhim o'rin egallagan. Quyi yob, Amudaryo havzasi tabiiy sharoit va tuproq o'simliklarning joylashish xususiyatiga qarab, Chimboy-Qo'ng'irot, Beltov va Xorazm kabi tabiiy-geografik xududlarga ajratish mumkin. Xorazm tabiiy-geografik xududi Amudaryoning qadimiy havzasi hisoblanadi²⁰.

R.Qurboniyazov fikricha, voha xududi mezozoy erasida va paleogen davrida dengizning tagi bo'lgan. Xorazmning geologik tuzilishda 4 ta tipdagi yotqiziqlardan iborat bo'lgan. Chunonchi:

¹⁹ Баратов П. Ўзбекистон табиий географияси. Тошкент, "Ўқитувчи", 1997 б.154-162.

²⁰ Қурбониезов Р.Хоразм географияси. Урганч, 1998, б.36.

1.Qadimgi kristalli jinslardan tashkil topgan xududlar (Yumurtog', Qubatog')

2.Amudaryoning o'ng qirg'og'ida bo'r yotqiziqlaridan tashkil topgan xududlar.

3.Tuyamo'yin atroflarida paleogen jinslardan iborat bo'lgan joylar.

4.Neogen jinslardan iborat Zaungizi qoraqumi. Avestoda Amudaryo tarixiga oid ilk ma'lumotlar qayd qilinadi. Amudaryo suvi dinamikasiga oid dastlabki ma'lumotlar Avestoning Yasht kitobining o'ninchi qismida qayd qilingan. Ya'ni, "u mamlakatning jasur sardorlari harbiy yurishlar qiladi, u erda o'tloqlar v suvga serob baland tog'lar mavjud. Daryolari Ishkat, Paruta, Margian, Areya, Gava Sugda va Xorasmiyaga to'lqinlanib oqadi, ularda kema qatnaydi deb qayd qilinadi²¹.

Yunon tarixchisi Gekatey Miletskiy 522-519 yillarda Doro-1 buyrug'iga binoan qariyalik Skilakning amalga oshirgan sayyohati hisobotida qayd qilingan ma'lumotlar asosida yozilgan "Erning tasviri" asaridagi "Osiyo" qismida xorasmiylar va "Xorasmiya" shahri to'g'risidagi ma'lumotlarni qayd qilgan. Gekatey asarida qayd qilingan tarixiy ma'lumotlar asosida Afiney shunday yozadi, "Parflarning sharqidagi tekisliklar va tog'larni ishg'ol qilgan xorasmiylar yashaydi. U tog'larda yovvoyi daraxtlar, tol, yulg'un, tikanli kinara o'sadi. Stepan esa, "Xorasmiya" parflarning sharqidagi shahar. Ularning shahri Xorasmiya"²².

Gerodot asarida Akes (Amudaryo) daryosi quyidagicha talqin qilingan: "Osiyoda bir vodiya bor, atroflarni tog'lar bilan o'ralgan, bu vodiya Oks daryosi oqib o'tadi. Daryo qirq tarmoq hosil qilib quyiladi, uning bir tarmog'idan tashqari, qolgan hamma tarmoqlari botqoqliklar va halqobalar ichida g'oyib bo'ladi: bu erda yashovchi odamlarning ovqati baliq, o'zlari esa tulen terisini yopinib yurganlar deb aytadilar. Araksning yolg'iz bir tarmog'i ochiq erlardan o'tadi va Kaspiy dengizga quyiladi. Xullas, Kaspiy dengizi g'arb

²¹ Пьянков И.В.Хорасмии Гекатея Милетского ВДИ, № 2., М, "Наука", 1972, с.14.

²² Пьянков И.В. Хорасмии Гекатея Милетского. М, «Наука», ВДИ, № 2, 1972,с 6-7.

va Kavkaz bilan chegaralanadi. Sharq tomondan esa unga bepoyon tekislik kelib yondoshadi. Bu bepoyon tekislikning bir qismini massagetlar ishg'ol qilgan. Osiyoda bir tekislik bor, atrofi tog'lar bilan o'ralgan. Tog'ning beshta darasi bor edi. Bu vodiy qachonlardir xorasmiylarga qarashli bo'lib, xorasmiylar parfiyanlar, saranglar, tamanaylar chegaradosh xududga joylashgan. Biroq, forslar tomonidan bosib olingan paytdan boshlab shohning mulkiga aylangan. Tekislikni qurshagan tog'ning bir joyidan Akes degan daryo oqib kiradi. Ilgari daryo besh o'zanga bo'linib, har bir o'zan alohida daradan chiqib, yuqorida oti keltirilgan xalqlarning erini sug'organ. Biroq, xalqlar forslar qo'l ostiga o'tgach, o'zgarish yuz berdi. Ya'ni, podsho beshala darani ko'mib, har biriga to'g'on yasashni buyurdi. Oqibatda, suv kiradi-yu chiqish yo'li qolmaganidan tog' bilan o'ralgan tekislik ko'lga aylandi. Shunday qilib, ilgari suvdan foydalanib yurgan xalqlar, hozir foydalanish huquqidan mahrum bo'lganlari uchun qattiq yo'qchilikda qoldilar. Qishda, boshqa xalqlar qatorida Tangri yomg'ir yuboradi, ammo tariq, kunjut ekiladigan yozda ular suvsizlikdan juda azoblanadilar. Suvlari yo'qligidan ularning xotinlari Eronga yo'l olib, shohning saroyi oldida o'kirib yig'lab, dod-voy qilib yolvoradilar.

Podsho so'rovchilarni qurg'oqchilikdan qattiq azoblanayotganlarini ko'rib erlarini to'sgan to'g'onni ochib yuborishni buyuradi. Erlari suvga qongach, to'g'on yana yopiladi. Shuni ta'kidlash kerakki, ular bilan birgalikda suvsizlik azobidagi boshqa xalqlarning suvi ham ochiladi. Aytilgan gurunglardan bilamanki, rasmiy soliqlardan tashqari, to'g'on ochilishi jarayonida podsho ko'p pul yig'ib oladi. Ishlar mana shunaqa.²³ Muallif asari yana bir joyida "Araksda Lesbosga teng keladigan orollar ko'p. Orollarning aholisi turli ildizlarni ovqat qilishadi. Bularni yozda eyishsa, qishda ba'zi bir daraxt mevalari bilan tirikchilik qilishadi. Bu mevalarni ham yoz pishig'ida terib g'amlashadi. Aytishlaricha, ularda yana bir daraxt borki, uning mevasini avaylab terib oladilar. Keyin gulxan yoqib, atrofiga o'tirib, haligi mevadan olovga oz-oz tashlab, chiqqan tutunni xidlashib, xuddi ellinlar may ichib mast bo'lganidek

²³ Геродот. Тарих. IX .III. 117

kayf qilishadi. Haligi mevalarni tashlaganlari sari kayflari oshib borib, oxirida o'yinga tushib qo'shiq kuylashadi.

Massagetlar hayot tarzi haqida ana shularni aytib berishadi. Araksning haligi bitta o'zani ochiq erdan oqib borib Kaspiy dengizga quyiladi. Bu dengiz boshqa hech qaysi dengizga quyilmaydi va qo'shilmaydi. Kaspiy esa o'ziga xos alohida bo'lib, kemada suzganda uzunasiga 15 kunlik eniga esa eng keng joyida 8 kunlik yo'l masofaga ega. Uning g'arbiy qirg'og'i bo'ylab, hajman shuningdek, balandligi jihatidan ham eng katta tog'lardan bo'lmish Kavkaz bilan chegaralangan bo'lsa, sharq tomonidan unga cheksiz chegarasi tekislik yondoshgan. Bu maskan kattagina qismini esa Kir bosib olishni mo'ljallagan massagetlar egallaganlar. Bu zamonga kelib ularning xukmdori o'lgan podshoning xotini edi²⁴.

A.Makedonskiy O'rta Osiyoni bosib olgandan keyin antik davr mazkur mintaqa xalqlari to'g'risida aniq tarixiy ma'lumotlar tarix fani sahifasida paydo bo'la boshladi. Aristotel, Strabon, Ptolomey, Arrian, Kvint Kurtsiy Ruf, Polibiy asarlarida Xorazmning qadimgi dunyosi tarixiga oid ma'lum ma'noda tarixiy ma'lumotlar o'z aksini topganligini qayd qilish lozim. Ammo, asarlarda ajdodlarimiz tomonidan qad ko'tarilgan qishloq va shaharlar atamasi uchramaydi. Aristotel Amudaryo to'g'risida "Hindiston daryosidan tashqari Oks daryosi eng kattasi, u daryoda kemalar qatnaydi va unda Girkan dengiziga ko'p miqdorda hind tovarlarini tashiydilar, u erdan mollarni Albaniyaga olib boradilar va Albaniyadan Kura daryosi orqali Qora dengizga chiqadilar deb qayd qilgan²⁵. Yunon geografi Strabon Gerodot izidan borib Amudaryoni Araks daryosi bilan chalkashtirib, u to'g'risida ma'lumotlarni qayd qiladi. Ya'ni, "Tasdiqlayman ko'p joylarda tarmoqlarga ajralib ketadigan Araks daryosi boshqa daryolarga qaraganda bu mamlakatga ko'proq suv beradi; u o'zining butun tarmoqlari bilan shimoldagi dengizga borib quyiladi, bir tarmog'i Girkan qo'ltig'iga qo'yiladi. Araxaslar, massagetlar baktiryaliklarga yaqin erda g'arbroqda Oks daryosi

²⁴ Геродот. Тарих. IX. I.

²⁵ Фуломов Я.Ф. Хоразмнинг суғорилиш тарихи.Т., "Фан", 1959, б .79.

bo'ylarida yashaydilar²⁶. Muallif xorasmiylarni Parfiya, Girkaniya, Areya, Drangiana (saranglar va famaneylar) bilan birgalikda soliq to'laganlar deydi²⁷. Polibiy (miloddan avvalgi 204- 122 y) ma'lumotiga ko'ra, apasiaklar Oks bilan YAKsartning orasida yashaydilar. Daryolarning birinchisi Girkan dengiziga, ikkinchisi Meotida ko'liga quyiladi. Ikkalovi kemalar qatnaydigan darajada salmoqlidir. Ko'chmanchilarning otdan tushmay ulardan Girkaniyaga o'tib turishlari qiziq. Bu haqda ikki xil gapirishadi. Birinchisi juda oddiy, ikkinchisi esa garoyi-bu, biroq imkonsiz deb bo'lmaydi. Oks o'z suvlarini Kavkaz tog'lari suvlari qo'shilishi hisobiga Baqtriyada ulkan daryoga aylanadida, keng tekislikdan uzoq oqadi. Keyin sahroga etib borganda katta va tik qoyalarga duch keladi. Pastga tashlanarkan, oqimining tezligidan suvi qoyalardan bir stadiyadan ortiqroq nariga borib tushadi. Apasiaklar ana shu sharsharaning tagidagi kup-quruq joydan Girkaniyaga o'taveradilar. Quyidagi ikkinchi hikoya esa rostga ko'proq o'xshaydi. Daryo oqib o'tadigan erlarda keng maydon va tekisliklar ko'p. Tog'u qoyalarga duch kelgan daryo yana shu maydonga shiddatli tushib, ularni teshib kiradi-da, biroz masofga er ostidan oqib yana yuzaga chiqadi. Varvarlar bu joylarni yaxshi bilganlari uchun Girkaniyaga ana shu daryo er ostidan oqadigan joyidan borib kelaveradilar²⁸. Abu Rayhon Beruniyning "U (Xorazm) bir vaqtlar ko'l bo'lsa kerak, chunki Jayxun Xazar dengiziga Balxan deb atalgan shahar yaqinidan o'tgan" deb qayd qilishi geolog va geograf olimlarning Amudaryo tarixini chuqur o'rganish uchun keng tadqiqotlarni olib borishiga turtki bo'lgandir.

O'rta Osiyoning tarixiy-madaniy mintaqalarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlarning natijalariga ko'ra, qadimgi davr jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy rivojlanishiga bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy omillar. Bundan VI ming yilliklarga kelib, Turkmanistonning janubidagi Kopetdog' tog' oldi etaklarida hosil bo'lgan edi. Dehqonchilik sohiblari hunarmandchilik uy chorvachiligi va dehqonchilik madaniyati yo'nalishlarini olib borganlar. (Joytun,

²⁶ Страбон. География. XI.6.8.

²⁷ Страбон XI.9.1.10

²⁸ Полибий. Умумий тарих. X 6.48.

Chaqmoqlitepa)²⁹. Ilk neolit davrida ilk madaniy – xo'jalik markazlarning vujudga kelishiga manba bo'lgan ijtimoiy- iqtisodiy omillar Kopetdog' tog' oldi etaklarida vujudga kelgan. Mil.avvalgi IV-III ming yillik o'rtalarigacha bo'lgan tarixiy davrda O'rta Osiyo jamiyatining ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanishida o'zgarishlar sodir bo'lganligi kuzatiladi. Bu tarixiy davr urug' jamoalari misni ixtiro qilib, undan mehnat qurollarini ishlab chiqilishi va ularning xo'jalik yo'nalishlarida keng foydalanishi natijasida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini yanada tezlashtirgan.

Amudaryoning o'ng sohilida avvalgi madaniy –xo'jalik massivlari barham topadi. Tuyamo'yin hududida miloddan avvalgi IV-III ming yilliklarda ko'llar sohili atrofida, Sariqamish, Uzboy xududlarida madaniy-xo'jalik massivlari faoliyati davom etgan.

Qadimgi Xorazm tarixi tadqiqotchisi S.P.Tolstov xulosasiga ko'ra, bronza davrida vohaga janubiy Turkmanistondan ziroatkor va shimoli-sharqiy tomondan chorvador qabilalar ko'chib kelib, Suyorgan va Tozabogyab madaniyatlarini yaratganlar³⁰Lekin, bu jarayonda tub aholi kaltaminorliklar ta'siri muhim o'rin egallaganini qayd qilish lozim. Bizning nazarimizcha, suyorganliklar mahalliy aholi bo'lib, xo'jalikning iqtisodiyoti bo'lgan ziroat-chorvachilik yo'nalishlarini olib borganlar. Agar suyorganliklar janubdan kelib, joylashgan bo'lsa, loy me'morchiligi bilimni uy-joy qurilishi bilimidan foydalanishi mumkin edi. B.I.Vaynberg Sariqamish havzasida olib borgan tadqiqotlari natijalaridan xulosa qilib, Sariqamish, Uzboyda suv oqimi to'xtab qolganligi sababli mavjud bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy omillar barham topgan³¹. Turkmanistonning bronza jamiyati tarixi bilimdoni V.M.Masson tadqiqotlari natijalaridan ma'lumki, Murg'ob vohasida yangi madaniy-xo'jalik markazi

²⁹ Массон В.М. Поселение Джейтун. Ленинград, «Наука» 1972 с.105-107, табл IV-V.

³⁰ Толстов С.П. Древний Хорезм М, «Наука», 1948 с.66-78 .Он же. По следам древнехорезмийской цивилизации.М-Л.1948, с.76-78.Толстов С.П., Итина М.А. Проблема суярганской культуры.СА. NI. М, «Наука». 1960 с.14-35. Итина М.А. Новые стоянки Тазабагыбской культуры. МХЭ, вып-1, М, «Наука», 1959 с.57-59 Она же. Новые стоянки Тазабагыбской культуры Ангка-5 и Кават-3 в 1957. МХЭ.Вып №2 1960 с.82-103. Она же.Раскопки могильника Тазабагыбской культуры Кокча-3.МХЭ.Вып № 5, М., «Наука», 1961, с.3-96.

³¹ Вайнберг Б.И. Экология Приаралья в древности и средневековье // Этнографическое обозрение// М., N, 1997, с.29.

shakllangan. Uning bosh shahari Oltintepa bo'lib, u O'rta osiyoning ilk shahari timsolida tasvirlanadi³².

Mil.avv. III ming yillik o'rtalaridan II ming yilliklar oxiridan O'rta Osiyoning janubi manzarasini tasvirlagan jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar rivojlanishida sifat jihatidan o'zgarishlar yuz bergan.

Mil.avv.II ming yilliklarga kelib, qadimgi Xorazm jamiyatida ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy munosabatlarda sezilarli o'zgarishlar sodir bo'lgan. Daryo irmoqlaridan kalta, sayoz sug'orish inshootlari qurilib, uning sohillarida esa aholi zich joylashgan massivlar hosil bo'lgan.

Mil.avv I ming yillik boshlarida Xorazm vohasi jamiyatining ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanishida quyidagi o'zgarishlarni qayd qilish mumkin. Tabiiy sharoitning qulayligi, aholi sonining ma'lum xududda gavjumlashishi natijasida hajmi kichik, sayoz, uzunligi qisqa sug'orish kanallari va uning sohiliga tutashgan tepalikka manzil qurilgan (Quyisoy 2-12 ga).

Madaniy xo'jalik markazlarining vujudga kelishi va unga bo'lgan ob'ektiv va sub'ektiv omillar: (jug'rofik o'rin, iqlim sharoit, savdo yo'li yaqinligi, sug'orish inshootlarining mavjudligi, aholi soni ko'pligi, o'simlik va xayvonot dunyosi, tabiiy iqtisodiy manbalar). Tarixiy jarayon davomida jamiyatda ijtimoiy- iqtisodiy (hunarmandchilik va savdoning o'sishi), harbiy-siyosiy (mudofaa tizimi), boshqarish tizimlarining vujudga kelishi etnik jarayonning shakllanishi sifat jixatidan yangi tarixiy davrning boshlanganligini bildiradi. Madaniy xo'jalik massivlari va ijtimoiy-iqtisodiy omillarning vujudga kelishida tabiiy sharoit muhim rol o'ynaydi. Ishlab chiqarishda ko'p tarmoqli xo'jalik va uning rivojlanishiga imkon bergan maxsus malakaga ega bo'lgan mutaxassislar mehnat darajasini, qo'shimcha mahsulot unga bo'lgan darajasini belgilab beradi va talabni kuchaytirib, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning jadallashishiga olib kelgan.

³² Массон В.М.Новая цивилизация древневосточного типа на юге Средней Азии //Памятники культуры. Новая открытия// М, «Наука», 1976. Он же. Раскопки жилых кварталов и оборонительных сооружений Алтынтепе//АО-1975,М.:1976.с.534-535

Miloddan avvalgi VIII-VII asrlarda Xorazm vohasi jamiyatida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishida sifat jihatidan o'zgarishlar sodir bo'ldi. Avvalo ro'y bergan o'zgarishlar jamiyat bag'rida qanday namoyon bo'lgan edi?

1.Mehnat qurollari va uy-ruzg'or buyumlari keng ishlab chiqarish,temirdan foydalanishga o'tishi.

2.Jamiyat rivojlanishida yangi bosqichga o'tish.

3.Jamiyatning ijtimoiy manzarasini patriarxal amalga o'tishi;

4.Xo'jalikni .ritishning yangi yo'nalishining vujudga kelishi

5.Chorvador qabilalarning alohida qatlam bo'lib ajralib chiqib, xo'jalik yo'nalishining ikkinchi sohasining rivojlantirishi;

6.Ma'dansunoslikning alohida sohaga aylanishi.

Xorazm vohasida bu tarixiy davrda shahar madaniyati vujudga kelmagan holda uning paydo bo'lishi uchun ijtimoiy- iqtisodiy omillar paydo bo'la boshladi. Ishlab chiqarish tobora ko'p tarmoqlili xarakterini ola boshlagan. Xorazm vohasida yashagan qabilalarning hayoti to'g'risida qimmatli ma'lumotlar Aqchadaryo xavzasida va Tuyamo'yin xududida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida olindi va bu materiallar neolit, bronza davriga oid bir qator tarixiy ilmiy- nazariy xulosalarni beradi. Demak, Akchadaryo xavzasida bronza davrida Tozabog'yop va Suvyorgan qabilalari yashaganlar. Mil.avv. XI-X asrlarga borib taqaladi. Sug'orilishning yanada takomillashishi qachon kim Xorasmiyalilar Xirot vodiysidan Amudaryo etaklariga ko'chgan davrida boshlangan. Bronza davrida Janubiy Akchadaryo xavzasida yashagan aholi asosan motiga dehqonchiligi bilan, asosan esa chorvachilik bilan shug'ullanganlar. Amirobodliklarning hayotida sug'orma dehqonchilik tomon tub o'zgarishlar sodir bo'ladi. Bu davrda manzillar bir necha uy xonalaridan iborat bo'lib, alohida mahalliy markazga ega (Yakkaparson-2) taraqqiyoti Amirobod madaniyatining vujudga kelishiga olib keldi.

Janubiy Amudaryo xavzasida joylashgan amirobod kanali atrofida juda ko'p manzillar topildi. Shu manzillardan biri Yakkaparson – 2 atroficha

o'rganildi. Manzilgoxning maydoni 250x150 m bo'lib, to'g'riburchak shaklda, uy-joy komplekslari yarim erto'la shaklida bo'lib, uning qurilishida ustun, novda, qamish, loy ishlatilgan. Bu manzildan 20 ga yaqin uy-joy xonalari topilgan³³. Temirdan qilingan qurollarning xo'jalikda keng qo'llanilishi omil bo'lishi bilan birga, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishiga mexnat qurollarining takomillanishiga, yangi xo'jalik qurollarining paydo bo'lishiga, mexnat unumdorligining oshishiga, ishlab chiqarish kuchlarining yangi xududlarga joylashishiga keng yo'l ochib berdi. Bu esa o'z navbatida aniq xo'jalik sohasi sari yo'g'rilgan doimiy xo'jalik mashg'ulotining paydo bo'lishiga olib keldi. Chunonchi, birinchi xo'jalik yurituvchilar chorvador qabilalar bo'lib, doimiy ko'chmanchilik tarzda hayot kechirgan. Ikkinchi xo'jalik usuli o'troq holda hayot kechirib sug'orma dehqonchilik asosida xo'jalik yuritgan qabilalar faoliyati bilan bog'liq edi.

Xorazm vohasi aholisi temir ashyosidan tayyorlangan xilma –xil mexnat qurollarini doimiy ravishda xo'jalikda keng ishlatilishi jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy etnomadaniy munosabatlarni tez suratlar bilan rivojlantirdi. Quyisoyliklar asosan chorvachilik, qisman dehqonchilik bilan shug'ullanganlar (katta xajmdagi xumlar, don yanchgich qoldig'i topilgan). Dehqonchilik asosan nam va kayr erlarga qilingan, chunki suvorish izlari bu xududda topilmagan³⁴. Miloddan avvalgi IX-VI asr o'rtalarida madaniy – xo'jalik massivlar va ijtimoiy- iqtisodiy omillarning vujudga kelishida vaziyat keskin o'zgarganligi kuzatiladi. O'sha kezlarda Orolbo'yi Janub, Oqchadaryo xavzasining shimoliy va markaziy qismida ijtimoiy-iqtisodiy omillar barham topganligi sababli madaniy-xo'jalik massivlar faoliyati ham to'xtaydi. Faqat Janubiy Oqchadaryoga ma'lum miqdorda suv kelib turganligi bois, Amirobod sug'orish kanali sohilida madaniy-xo'jalik massivi tashkil topgan va shu asosda ijtimoiy-iqtisodiy omillar ham mavjud bo'lgan. Bu xududda bitta madaniy xo'jalik markazi faoliyat olib borgan xolos. Yana bir madaniy - xo'jalik markaz

³³ Итина М.А. Поселение Яккапарсан-2 (1958-1959гг) МХЭ, вып № 6 М, 1963, с.107-123.

³⁴ Вайнберг Б.И. 1979, с.22-23.

Sariqamishbo'yi havzasi janubi-sharqiy qismida vujudga kelgan. Shu tariqa miloddan avvalgi IX-VI asr o'rtalarigacha Janubiy Oqchadaryoda 1 ta, Sariqamish xavzasida 1 ta madaniy-xo'jalik markazlar mavjud bo'lgan.

Miloddan avvalgi VI asr ikkinchi yarmi oxiriga kelib Xorazm va Sariqamishbo'yida vaziyat keskin o'zgargan. Bunga Amudaryo dinamikasi sabab bo'lgan. Darhaqiqat, o'sha kezlarda Amudaryoning asosiy suvi Dovdon irmog'i olishi natijasida Sariqamishbo'yi, Uzboy sarhadlarining suv bilan ta'minlanishi yaxshilanadi. Oqchadaryo havzasi tomon suv gox-goxda borganligi sababli, Amudaryodan sug'orish inshootlarini chiqarish zaruriyati tug'iladiki, natijada ilk bor Kaltaminor kanali chiqariladi. Miloddan avvalgi VI asrning ikkinchi yarmi va oxirida Sariqamishbo'yi xavzasida 1 ta madaniy – xo'jalik markazi vujudga keladi, uning paydo bo'lishi Dovdonning shimoli shoxobchasidan Charmanyob kanali chiqarilishi munosabati bilan Ko'zaliqir balandligi atrofini qamrab olgan. Madaniy – xo'jalik markaz vujudga kelgan Sariqamishbo'yining janubi – g'arbiy tomonida Butentou va Tuzqir balandligi atroflarini qamrab olgan 6 ta madaniy –xo'jalik markaz tashkil topgan. Shu tariqa, yuqorida qayd qilingan tarixiy sanada Amudaryoning so'l sohilidagi Sariqamishbo'yi xavzasi va Tunidaryo soxili atroflarida jami 7 ta madaniy xo'jalik markazi shakllangan.

Miloddan avvalgi VI asr oxirida Amudaryoning o'rta qismida ikki madaniy – xo'jalik markazi tarkib topgan (Qushqal'a, Odoytepa). Miloddan avvalgi V asr mobaynida Amudaryoning o'ng va so'l sarhadlarida yangidan – yangi madaniy xo'jalik markazlar tarkib topgan. Chunonchi: Charmanyob sug'orish zonasida Qal'aliqir 1 tepaligi atrofini qamrab olgan madaniy xo'jalik markaz. Mazkur tarixiy davrda Ko'zaliqir madaniy- xo'jalik markaz sifatida o'z faoliyatini tugatgan edi. (Ahamoniylar tomonidan bosib olingan edi) Amudaryoning toshsaqa zonasida Xumbuztepa, Xazorasp, Xeykanik kanali etagida yangidan – yangi madaniy - xo'jalik markazlar qaror topadi. Amudaryoning o'ng sohilida esa bitta madaniy-xo'jalik markaz tashkil topib,uning atrofida 58 ta hajmi kichik madaniy markazlar vujudga kelgan.

	Ijtimoiy-iqtisodiy omillarga ega bo'lgan xududlar
Mil.avv.V-IV ming yillar	Quyi Amudaryo xavzasi, Sariqamish, Uzboy
Mil.avv.III ming yillar	Quyi Amudaryo, Sariqamish, Uzboy
Mil.avv.II ming yillar	Quyi Amudaryo, Orol dengizi janubi va shimoli-sharqiy xududlar
Tarixiy jarayon	Ijtimoiy-iqtisodiy omillarga ega bo'lgan xududlar
Mil.avv.X-VI asr o'rtalari	Janubiy Oqchadaryo, Sariqamish xavzasi Janubiy qismi
Mil.avv.VI asrning oxiri	Sariqamishbo'yi havzasi Ko'zaliqir balandligi atrofi, Tuni daryo havzasi atroflari. Amudaryoning o'rta qismi (Darg'on zonasi)
Mil.avv.V asr	1.Amudaryoning o'ng sohili.Janubiy Oqchadaryo Dingilja vohasi, 2.Amudaryoning so'l sohili a)Toshsaqa zonasi b)Charmanyob zonasi v)Tunidaryo xavzasi g)Xazorasp zonasi d)Xeykanik kanali etagi zonasi

Jadvalda qayd qilingan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, Amudaryoning o'ng sohilidan Dingilja vohasida madaniy-xo'jalik massiv va markazlar aksariyat ko'pchilikni tashkil etgan. Endi, Xorazm vohasi va unga geologik jihatidan ulanib ketgan Sariqamishbo'yi xavzasi va Tunidaryo havzasi atroflari sarhadlarida tarkib topgan madaniy-xo'jalik markazlarining vujudga kelishi va rivojlanish bosqichlarini tahlil qilamiz.

1.2.Madaniy-xo'jalik markazlarining vujudga kelishi va rivojlanish bosqichlari.

Madaniy-xo'jalik markazlarining vujudga kelishi va ularning joylashish xususiyatlarini tahlil qilish uchun voha va unga janubiy tomondan tutashib ketgan Sariqamishbo'yi va Uzboy pastteksiligining rang-barangligini tasvirlashga to'g'ri keladi. Yuqori paragrafdan qayd qilganimizdek neogen davrida Sulton Uvays Yumurtov va Qubatog'lar qad ko'targan. Amudaryo er tarixining neogen davrida O'rta Osiyo tekislik qismini qoplab yotgan paleogen dengizining chekinishi va u boshlangan Pomir tog' tizmalarining tektonik harakatlari natijasida ko'tarilishi, iqlimning o'zgarishi bilan tog'larda muzliklarning chekinishi tufayli vujudga kelgan. Qoraqum tentirash maydoniga aylangan. Sirdaryo ham neogen davrida vujudga kelgan. P.Baratov, M.Mamatqulov va A.Rafiqlarning qayd qilishicha, Amudaryo Zaungizi Qoraqumidan shimoli-g'arbiy tomon qiyalashgan bo'lib, birdaniga to'rtlamchi davr boshlarida janubi-g'arbiy tomon yo'nalishi natijasida 550 km Uzboy yo'lagi orqali Zarafshon daryosining suvini qamrab olib, Kaspiy dengizga quygan.

Uchlamchi davr o'rtalarida Pomir, Oloy va Tyan-Shan tog'lari ko'tarilishi boshlangan. Tadqiqotchilar to'rtlamchi davrga qadar Orol dengizi katta suv xavzasi bo'lib, u Sariqamish botig'ini qo'shib olgan va Kaspiy dengizi bilan tutashgan bo'lishi mumkin degan xulosaga kelganlar³⁵. To'rtlamchi davr boshlari va o'rtalarida Amudaryo suvining asosiy qismi Dovdon orqali Sariqamish botig'iga kelib tushgan, botiq suvi ko'tarilishi natijasida Uzboy orqali Kaspiy tomon yunalgan. Shu tariqa Uzboy rang-barang pasttekislik vujudga kelgan. Janubi-g'arbiy tomonda Qang'qaqal'a, Butentou, Tuzqir balandliklari mavjud bo'lib, ular 20-40 metrdan oshmaydi. Janubi-Sharqiy xudud manzarasini sharqiy kopetdog' tog'i va Qoraqum qumliklari tasvirlaydi. Dovdon va Daryoliq irmoqlari Sariqamish ko'liga kelib quyganligi sababli uning kengligi II ming m², chuqurligi 110 m. Amudaryo suvi etib bormagan

³⁵ Баратов П., Маматкулов М., Рафиков А. Ўрта Осиё табиий географияси. Т, 2002. 6.60-71.

bo'lsa, Sirdaryoning Jonadaryo va Quvondaryo suvlari Orol botig'iga etib borgan³⁶.

Miloddan avvalgi VIII-VII ming yilliklarda Uzboy, Sariqamish buyi atroflari rang-baranglikni hosil qilgan. Miloddan avvalgi VI-V yilliklarda Uzboy, Sariqamishbuyi atroflari rang-baranglikni hosil qilgan. Miloddan avvalgi VI-V ming yilliklarda esa Tuyamo'yin, Oqchadaryo sarhadlari vujudga kelgan. Miloddan avvalgi IV-III ming yilliklar Orolbo'yi Janubiy va So'l qismi vujudga kelib, Orol dengizining xududiy chegarasini belgilab bergan. Miloddan avvalgi IX-VI asr o'rtalarida madaniy-xo'jalik markazlar faqat Janubiy Oqchadaryo va Sariqamishbuyi havzasining Janubiy sarhadida hosil bo'lgan. Janubiy Oqchadaryoda Yakkaparson, Yonbosh-7 va Sariqamishbuyi janubid Quysisoy massivlari tashkil topgan. Miloddan avvalgi VI asrning ikkinchi yarmi oxiridan Xorazmda vaziyat o'zgargan. Mazkur tarixiy davrdan boshlab, tub aholi tomonidan Amudaryoning o'ng va so'l sohillariga tutashib ketgan pasttekislikda, balandlik va uning qiriga, Amudaryo va uning irmoqlari Dovdon, Daryoliqdan chiqarilgan magistral kanallar va ulardan ikki tomon o'tkazilgan ariq, yoblar xudud jihatidan bir-biridan ajralgan antropogen landshaftli markazlar va mikrovohalar shakllanishi milodiy III asrgacha davom etgan.

Xorazm ekspeditsiyasi xodimlari Xorazm tarixiga oid monografiya, to'plam maqola va tezislarni e'lon qilsa ham, aholi markazlarining vujudga kelishi va rivojlanishiga imkon bergan geografik o'rin masalasi o'z ilmiy echimini topgan emas. Mazkur masala faqat ma'lum darajada tadqiqotchi G'.Xo'janiyazov monografiyasida o'z ma'nosini topganligini qayd qilishadi³⁷.

Jug'rofik o'rin, qishloq va shaharlarning topografik tuzilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xorazm vohasidagi qishloq va shaharlarning geografik o'rni joylashishiga qarab quyidagi tarixiy-regionlarga ajratish mumkin: shimoliy, markaziy, janubiy.

³⁶ Вайнберг Б.И. Экология Приаралья в древности и средневековье //Этнографическое обозрение . М. «Наука» 1997,с.24.рис.1.

³⁷ Хўжаниязов Ғ.Қадимги Хоразм мудофаа иншоотлари. Т. "Ўзбекистон", 2007,б.76-77.

Janubi-markaziy Xorazm xududi pasttekislikdan iborat bo'lsa, SHimoliy Xorazmda deyarli katta bo'lmagan Sulton Uvays, Qora va Yumurtog' tog'lari mavjud. Bu geografik xususiyatlar quyidagi holatlarni vujudga keltiradi:

1. Janubiy-Markaziy xududlarda sug'orish inshootlari asosida sug'orma dehqonchilik uy qurilishi va chorvachilik taraqqiy etgan.

2. Shimoliy Xorazm pasttekislikda ziroatchilik va Sulton Uvays tog'i xududlarida chorvachilik xo'jaligi rivojlanishining imkoniyati mavjud.

Quyi Amudaryo havzasining Oqchadaryo xavzasi tizimidagi Ayozaqla balandligi 20-30 m. Ko'kcha deb atalgan balandlik 40-45 m, Jonbos tepaliklari 30-45 m ni tashkil qilgan Sulton Uvays tog'ining Qoratog' tizmasining Amudaryo sohilidagi balandligi 7 m, bunday balandlikni Toshsaqa zonasida ham kuzatiladi. Charmanyob zonasidagi Ko'zaliqir, Qal'aliqir, YAssiqir, Gaurqir, Janubiy G'arbiy tomonidagi Butentou Tuzqir balandliklari xudud manzarasini hosil qilgan.

Miloddan avvalgi VI asr oxiri- V asr boshlarida Amudaryo so'l sohili sarhadlarida madaniy-xo'jalik markazlar va mikrovovalari:

1. Ko'zaliqir. Dovdon irmog'i o'rta qismidan shimoliy tomon ajralib chiqqan shohobchadan Ko'zaliqir balandligi tomon Charmanyob magistral sug'orish inshooti chiqarilishi munosabati bilan mazkur balandlik qiriga Ko'zaliqir shahri qad ko'tarilishi munosabati bilan ilk madaniy-xo'jalik markaz shakllandi. Ko'zaliqir mazkur madaniy-xo'jalik markazi va uning atroflarini qamrab olib, bosh shaharga aylandi³⁸.

2. Qang'qaqal'a-1. Qang'qaqal'a mikrovovala markazi. Qang'aqir janubiy-g'arbiy etagi balandligi madaniy-xo'jalik markazi. Dovdonning Qang'hadaryo shohobchasi havzasi atroflarini madaniy-xo'jalik markazi va uning bosh shahri bo'lgan³⁹.

³⁸ Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта .М. «Наука», 1962 с. 96-104; Вишневская О.А. Рапорт Ю.А. Городище Кюзелигыр. К вопросу о раннем этапе истории Хорезма //ВДИ,1997, № 2 //с.150-173.

³⁹ Дурдиев Д.Археологические исследования на территории Ташаузской области //Каракумские древности// Ашхабад, Вып,5, «Ылым», 1977, с 137-138; Юсупов Х. Археологические памятники Узбоя и проблемы водного пути из Индии в Каспий//Сб.Туркменистан в эпоху раннежелезного века// Ашхабад,1984, с 87-88.

3. Butentov-1 .Butentov tepaligi atrofi bosh shahri⁴⁰. Uning tarkibini Butentov-2⁴¹, Butentov-3 mikrovohalari tashkil etgan⁴².

4.Qo'shqal'a 1. Amudaryo o'rta qismini qamrab olgan Qo'shqal'a madaniy-xo'jalik markazi bosh shahri. Uning tarkibida mikrovoha markazi Odoytepa bo'lgan⁴³.

Miloddan avvalgi V asr boshi va oxirida Quyi Oqchadaryo,Sariqamish havzalari madaniy-xo'jalik markazlar va mikrovohalari:

1.Darg'on madaniy-xo'jalik markazi. Qushqal'a markaz bosh shahri sifatidagi faoliyati davom etgan.

2.Darg'on madaniy-xo'jalik markazi mikrovohasi. Bosh shahri Odoytepa.

3.Qal'aliqir-1. Ko'zaliqir sug'orish inshootidan shimoli-sharqiy tomondagi balandlik tomon sug'orish inshooti chiqarilishi tufayli, uning qiriga Qal'aliqir shahri bino qilingan. Charmanyob havzasi o'rta qismida vujudga kelgan navbatdagi madaniy-xo'jalik markaz shakllangan. Bosh shahri va siyosiy markaz Qal'aliqir⁴⁴

4.Toshsaqa madaniy-xo'jalik markazi. Bosh shahar Xumbuztepa⁴⁵.

5.Ichanqal'a madaniy-xo'jalik markazi. Amudaryodan chiqarilgan Xeykanik magistral kanali adog'idagi tekislikda barpo qilingan. Ichanqal'a madaniy-xo'jalik markazi bosh shahri bo'lgan⁴⁶.

⁴⁰ Толстов С.П. Работы Хорезмской археолого-этнографической экспедиции АН СССР в 1949-1953 гг./ТХАЭЭ, Т-II// "Наука" 1958, с 80-81. рис 36, с.80; Бижанов Е.Б., Ходжаниязов Г.Х. Археологический комплекс Бутентоу //Археология Приаралья// Вып-VI, Нукус, 2003,с.32-60.

⁴¹ Историко-культурное наследие Туркменистана.//Энциклопедический словарь//Истанбул., 2000,с.82.

⁴² Бижанов Е., Ходжаниязов Г.Археологический комплекс Бутентау.2003,с.49.

⁴³ Пилипко В.Н. Раскопки в Дейнауском районе Чарджоуской области //АО 1974// «Наука», 1975, с.527-528.

⁴⁴ Толстов С.П. Древности Верхнего Хорезма (Основные итоги работ Хорезмской экспедиции ИИМК 1939 г). //ВДИ, 1 // М., 1941,с.178; Он же.Городища с жилыми стенами //КСИИМК. Вып. XVIII //М;1947; Рапорт Ю.А., Лапиров-Скобло.М.С. Раскопки дворцового здания на городище Калалыгыр 1 в 1958 г//МХЭ,Вып-6 //М., «Наука». 1963,с.141.

⁴⁵ Мамбетуллаев М. Хумбузтепа-керамический центр южного Хорезма //Вестник КК ФАН Уз //Нукус. № 3, 1976. Он же. Рельефное изображение всадника на керамической фляге из Хумбузтепа //СА, № 3 //1977.

⁴⁶ Мамбетуллаев М.М., Ягодин В.Н. К оценке хронологии и исторической динамики культурного слоя древней Хивы //ОНУ, № 8 // Т, «Фан». 1986, с.43-51;

6.Hazorasp. Xeykanik magistral kanali o'rta qismidan janubi-g'arbiy tomon chiqarilgan sug'orish inshooti sohili yaqinidagi qal'a. Mazkur madaniy-xo'jalik markazi Hazorasp bosh shahri vazifasini bajargan⁴⁷.

Miloddan avvalgi V asrda Oqchadaryo havzasi madaniy-xo'jalik markazlar va mikrovoahalari:

1.Dingilja dehqonchilik markazi bosh shahri .

Dingilja.58 ta mikrovoahalar.

So'l sohil sarhadlarida vujudga kelgan madaniy-xo'jalik markazlar va mikrovoahalar:

1.Darg'on madaniy-xo'jalik markazi. Jigarband shahri markaz bosh shahri bo'lgan. Uning tarkibini Odoytepa, Qo'shqal'a, Darg'on mikrovoahalari tashkil qilgan⁴⁸.

Amudaryoning o'ng va so'l sarhadlarida madaniy-xo'jalik markazlarning vujudga kelishi va shakllanish jarayoni miloddan avvalgi VI asr ikkinchi yarmi oxiri va V asrlarda kechgan. Madaniy-xo'jalik markazlarning vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanish jarayonining tahlili shu narsani ko'rsatdiki, ziroatkor aholi tomonidan ilk bor Amudaryoning Dovdon irmog'i o'rta qismi shimoli-sharqidagi Ko'zaliqir balandligida yangi aholi maskani bunyod qilingan. Miloddan avvalgi VI asrning ikkinchi yarmi oxirida, akademik A.Asqarovning qayd etishicha, Xilmed vodiysidagi Avesto xorazmiylari Ahamon hukmdorlari zarbasi bo'lishi xavfidan cho'chib, Amudaryoning Dovdon irmog'i o'rta qismiga kelib qolgan. Muallif yana davom etib,ular xas-po'shlardan sollar yasashib, massagetlar yurtiga kirib boradilar. Amudaryoning quyi havzalarida uzoq asrlar davomida Amu suvi oqizib kelgan loyqa qatlamlari cho'kishi munosabati bilan hosil bo'lgan dehqonchilikka qulay tekis, unumdor erlar va xavza irmoqlari suvlaridan dehqonchilikda foydalanishning qulayligi,

⁴⁷ Воробьева М.Г.,Лапиров-Скобло. М.С, Неразик Е.Е. Археологические работы в Хазараспе в 1958-1960 гг//МХЭ,Вып 6 //М. «Наука», 1963,с.137-180; Мамбетуллаев М.М., Абдиримов Р. Исследование Хазараспа.//Культурное наследие Средней Азии (Ўрта Осиёнинг маданий мероси) //М.Улугбек номидаги ЎзМУ Тарих фак.илм тўплами. Т, 2002,с.165-167.

⁴⁸ Вишневецкая О.А. Раскопки городища Джигербент.//АО 1974г//.,М, «Наука».1975,с. 522-523, Древности Южного Хорезма //ТХАЭЭ.Т.XVI М, “Наука”.1991,с.16.

zироatchilikda boy tajribaga ega bo'lgan Xorasmiy qabilalarining yangi joyga moslashishini tezlashtirgan deydi⁴⁹.

Xorazm zироatchi qabilalar to'g'risida ikkinchi mulohaza A.Sagdullaevga tegishli bo'lib, uning fikricha Xorazmliklar ahamoniylargacha bo'lgan tarixiy davrda O'rta Osiyo janubida emas, balki Xorazmda istiqomat qilganlar⁵⁰. Ilk temir davrida xo'jalik yo'nalishlarni olib borgan Janubiy Oqchadaryo havzasidagi Amirobod sug'orish inshooti sohilida Yakkaparson-2 maskanida istiqomat qilgan zироatchi-chorvador va Sariqamishbuyi Janubi-sharqida o'rnamshib chorvachilik xo'jaligini kasb qilib olgan quyisoyliklarning yangi avlodlari taqdiri qanday kechdi ekan. Bu masala bo'yicha tadqiqotchilar o'rtasida aniq bo'lgan fikr-mulohazalar ilmiy jamoatchilik e'tiboriga havola qilingan emas. Bizning mantiqiy xulosamizga ko'ra, qayr yoki limon erlarda dehqonchilik bilan quyisoyliklarning bir qismi (quyisoy manzilidan hajmi katta xumlar, bug'doy va arpa qoldiqlari olingan) Ko'zaliqir balandligiga kelib, o'rnamshib mudofaa tizimli shaharni barpo qilganlar. Ko'zaliqir balandligi atrofida boshqa aholi manzili qad ko'tarilmagan, shuning uchun ham shahar keng xududni qamrab olgan madaniy-xo'jalik markazi va uning bosh shahri bo'lgan. Ko'zaliqir yodgorligi Quyisoyliklarning yangi avlodlari tomonidan qad ko'tarilgan fikrni ilgari suramiz. Lekin, Quyisoyliklar loy me'morchiligi, rejalashtirish kabi bilimlar zahirasiga ega emas edilar. Quyisoyliklar loy me'morchiligi, qurilish bilimi va muhandischilik bilimini qanday qilib o'zlashtirib oldi ekan. Yoki, zироatkor qabilalar bizning nazarimizcha Marg'iyonadan Dovdon-irmog'i o'rta qismiga ko'chib kelgan bo'lishi ham mumkin. Ko'zaliqirliklar Amudaryoning Dovdon irmog'i atrofida shahar qurishni uch maqsadni nazarga olganlar 1-Tevarak-atrofni kuzatish uchun qulay bo'lgan balandlikning bo'lishi; ikkinchisi esa suv bilan doimiy ta'minlanib turishiga qulayligi; uchinchisi tevarak atrofda sodir bo'ladigan vaziyatni nazorat qilishga qulayligi. Shu tariqa, Charmanyob sug'orish inshooti sohiliga tutashgan

⁴⁹ Аскарлов А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. Т “Университет”, 2007. б.113.

⁵⁰ Сагдуллаев А.С. Маргиана и Бактрия. Исторические традиции и культурные связи в до античную эпоху. Древний Мерв. Ашгабад «Илым», 1989. с-17.

Ko'zaliqir balandligi qiriga shahar barpo qilinib, ilk madaniy-xo'jalik markaz bo'lgan.

Miloddan avvalgi V asr o'rtalariga kelib ahamoniy podsholari tomonidan Sariqamishbo'yi havzasi ahamoniylar tomonidan bosib olingandan keyin, uning bosh shahar sifatida faoliyati barham topgan. Ko'zaliqir bilan bir tarixiy davrda O'rta Osiyoning janubi-g'arbidagi balandliklarga Qang'qaqal'a, Butenou 1,2,3 qal'alari qad ko'tarilib, tevarak-atrofni kuzatish maqsadida chegara shaharlar vazifasini bajargan. Shu tariqa madaniy-xo'jalik markazlarning joylashish geografiyasi janubi-g'arbiy tomon kengaygan. Xuddi shunday madaniy-xo'jalik markazlarning geografiyasi Amudaryoning o'rta qismidagi so'l sohili xududi sari kengaygan. Tarixiy ma'lumotlardan ma'lumki, miloddan avvalgi VI asr ikkinchi yarmi oxirida Ko'zaliqir Dovdon-o'rta qismida Qang'qaqal'a, Butentou Janubiy-g'arbiy tomonda madaniy-xo'jalik markazlar sifatida vujudga kelgan. Miloddan avvalgi V asr o'rtalaridan boshlab Ahamoniy xukmdorlari tomonidan tayin qilingan noib tevarak-atrofdan ro'y beradigan vaziyatni kuzatish maqsadida qal'aliqirni bino qilganlar. Xorazm Ahamoniylar hukmronligidan mustaqil bo'lganidan keyin yodgorlik faoliyati tugagan. O'sha kezlarda Amudaryoning o'ng sohili kichik hajmli Dingilja va uning atroflarida Mitti-Mitti aholi punktlari bino qilingan.

Miloddan avvalgi VI-V asrlarda Sariqamish bo'yi va Tuni daryo xavzasi, Amudaryoning o'rta qismi, toshsaqo zonasi, janubi-g'arbiy qoraqum chegarasi insoniyat tomonidan dehqonchilik zonasiga aylantirildi. Baqtriyada qayd qilingan madaniy-xo'jalik markazlar xududiy jihatidan bir-biridan uzoqda joylashib, magistral kanallar chiqarilishi bilan bog'liq edi.

Arxeologik ashyolarning qiyosiy tahliliga ko'ra, davlatchilik tarixi ildizlariga asos bo'lgan ilk shaharsozlik madaniyati miloddan avvalgi VI asrning oxirgi choragida Avesto ziroatchilarning ko'chib kelishi bilan bog'liq bo'lib, u keyingi tarixiy davrlarda yanada rivojlanish jarayonida bo'lgan⁵¹. Sug'orma

⁵¹ Аскарлов А. Қадимги Хоразм тарихига доир баъзи бир масалалар /Ўзбекистон этнологияси: янгича қарашлар ва ёндошувлар. Т, 2004,б.76-84.

dehqonchilik xo'jaligini yuritishda boy tajriba va malakaga ega bo'lgan xorasmiylar Amudaryoni quyi havzalariga kelib joylashishi "Xorazm" etnotoponimini vujudga keltirgan bo'lsa, O'rta Osiyo, xususan Turon zaminida qadimiy dehqonchilik markazlaridan biriga aylangan.

Miloddan avvalgi VI asr oxiridan boshlab, yirik sug'orish inshootlari qurilishi boshlangan bo'lib, ularning kengligi 10 m, ikki qirg'oqbo'yi orasidagi kenglik 40 m⁵². Mazkur tipda barpo qilingan magistral kanallar o'ng sohil Oqchadaryo xavzasi atroflarida Kaltaminor so'l sohilda esa Amudaryoning Dovdon va Daryoliq o'zanlari havzasi etaklarida birqator dehqonchilik voha va vohachalar shakllanishiga olib keldi. Xorazm vohasi, Sariqamishbo'yi sarhadlarida tarkib topgan shahar-davlat, keyinchalik mazkur sarhadlarda alohida-alohida shaharmonand qishloqlarni o'z atrofiga birlashtirgan poytaxt, keyinchalik siyosiy birlashma shakllanish jarayoni kechgan.

Miloddan avvalgi VII-V asrlarda Turon zaminida qanday tarixiy jarayon kechgan edi?

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, miloddan avvalgi VII asr o'rtalarida Zarafshon vohasida Makonda, Ko'ktepa⁵³, Sangirtepa, Uzunqir, Podayoqtepa, Baqtriyada Qizil I-III⁵⁴, Xaitobodtepa⁵⁵, Farg'ona vodiysida Eylatan⁵⁶, Janubiy Turkmanistonda Erkqal'a⁵⁷ bosh shaharlari bo'lgan madaniy xo'jalik markazlar mavjud bo'lgan. Miloddan avvalgi VI asrda Xorazm, mil.avv.V asrdan g'arbiy so'g'd xududlarida madaniy-xo'jalik markazlar tarkib topgan.

Shunday qilib, ushbu paragraf mazmunini yuqorida qayd qilingan tarixiy ma'lumotlarga tayanib quyidagicha yakun qilish mumkin.

Arxeologik tadqiqotlar natijalari va yuqorida qayd qilingan tarixiy ma'lumotlar shu narsani ko'rsatdiki, miloddan avvalgi I ming yillik boshlari va o'rtalarini ikki tarixiy bosqichga ajratish maqsadga muvofiq ekanligini ko'rsatdi:

⁵² Толстов С.П. Қадимги Хоразм маданиятини излаб / А.Мухамаджанов таржимаси.Т "Фан", 1962. 6.360.

⁵³ Исомиддинов М.Х.Истоки городской культуры Самаркандского Согда.Т.2002.

⁵⁴ Сагдуллаев А.Усадьбы древней Бактрии Т-1987,с.46-50.

⁵⁵ Собиров К. Оборонительные сооружения древних поселений и городов Средней Азии (VIтыс-я до н.э. IV в.н.э.) Автореф.канд.дисс.М.:1979.

⁵⁶ Заднепровский М,1979,с 9-10.Ю.А.Древнеземледельческая культура Ферганы.МИА,118,1962.с-108-110.

⁵⁷ Усманова З.Древний Мерв Тр.ЮТАХЭ,Ашхобод,1963.с.20-30.

1. Tarixiy davr miloddan avvalgi X-XI asr ikkinchi yarmi oxiri.

II- Tarixiy davr miloddan avvalgi VI asrning ikkinchi yarmi oxiri V asr boshlari.

III. Tarixiy davr miloddan avvalgi V boshlari va oxiri

Birinchi tarixiy davrda Xorazm vohasi jamiyati ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishida ikki xo'jalik madaniyati mavjud bo'lgan.

1. Xo'jalik madaniyat Oqchadaryo xavzasining janubi-sharqiy tomonidagi Yakkarson-2 manzilini barpo qilgan ziroatkor qabilalar bo'lib, xunarmandchilikning kulolchilik, to'qimachilik, mehnat qurollarini yasash bilan mashg'ul bo'lgan qabilalar. Sun'iy sug'orish asosida dehqonchilik madaniyati sari o'tgan. Lekin bu xo'jalik yuksak darajaga etgan emas edi. Ijtimoiy munosabatlarda patriarxal oila bo'lib, oila boshlig'i ota hisoblangan.

II-xo'jalik Sariqamishbo'yi havzasida chorvachilik, qisman dehqonchilik bilan shug'ullangan qabilalar. Mazkur jamiyat iqtisodiyotida ishlab chiqarish xo'jaligi etakchi bo'lgan.

II-tarixiy davrda jamiyatni qamrab olgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarda tub o'zgarishlar sodir bo'lgan. Xorazm vohasiga yangi etnik guruhlarining kirib kelishi, yangi erlarning o'zlashtirilishi, temirdan ishlangan mehnat qurollarining xo'jalikka jalb qilinishi, shaharlar bosh shahri bo'lgan madaniy-xo'jalik markazining vujudga kelishi. Madaniy-xo'jalik markazlar Sariqamishbo'yi va Amudaryoning o'rta qismi sarhadlarida shakllanishi, yirik sug'orish inshootlarining qurilishi bilan izohlanadi.

Uchinchi tarixiy davrda ikkinchi tarixiy davrda kechgan jarayondan keskin farqlanishi kuzatiladi. Ziroatkor aholi tomonidan Amudaryoning o'ng sohili sarhadlarida ham o'zlashtiriladi, so'l sohili sarhadida esa yangi sug'orish kanallari quriladi, yangi erlar o'zlashtiriladi, natijada yangidan-yangi dehqonchilik vohalari shakllanish jarayoni kechadi. Shu narsani ta'kidlash joizki, yuqorida ajratilgan tarixiy davrlarda Amudaryoning o'ng va so'l sohiliga tutashgan sarhadlarni keng ko'lamda aholi tomonidan o'lashtirish siyosati amalga oshirilmagan. Faqat suv ta'minoti mavjud bo'lgan xududlar va

ko'chmanchilar bilan bo'lgan chegaralarga tutashgan xududlar ziroatkor qabilalar tomonidan o'zlashtirilgan xolos.

Miloddan avvalgi VI asrning ikkinchi yarmi V asr oxirida Quyi Amudaryo Sariqamishbuyi havzalarida madaniy-xo'jalik markazlar va mikrovohalar.

Amudaryoning o'ng sohili	Amudaryoning so'l sohili
Janubiy Oqchadaryo xavzasi Dingilja bosh markaz, uning tarkibiga kirgan 58 ta mikrovohalar	Xumbuztepa-Toshsaqa zonasi Xazorasp-Xeykanik kanali o'rta qismi Ichanqal'a-Xeykanik kanali adog'i Qushqal'a-Darg'on vohasi Odoytepa-Darg'on vohasi Ko'zaliqir-Dovdon irmog'i o'rta qismi Qal'aliqir-Qal'aliqir balandligi Butentou 1,2,3 Tunidaryo havzasi.

Jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, so'l sohilda 8 ta madaniy-xo'jalik markazlari mavjud bo'lgan. Amudaryoning o'ng sohilida bitta madaniy-xo'jalik markazi shakllangan. Arxaika davrning eng muhim xususiyatlardan biri Amudaryo va uning Dovdon irmog'idan yirik magistral kanallar chiqarilishning amalga oshirilishidir. Xuddi shu davrda uzunligi 70 km, eni 40 m, chuqurligi 5-10 m sug'orish inshootlari chiqarilgan, bu esa o'z navbatidan bir-biridan ajratilgan aniq geografik xududga ega bo'lgan madaniy-xo'jalik markazlarning shakllanishiga olib kelgan.

Endi Xorazm va unga qo'shni bo'lgan Sariqamishbo'yi, Uzboy sarhadlarida etnogenez va etnik tarixi masalalarni yoritishga harakat qilamiz.

II BOB. Arxaika davri qishloq va shaharlarida arxeologik tadqiqotlar.

2.1.Arxaika davrida etnogenez va etnik jarayonlar.

S.P.Tolstov rahbarligidagi Xorazm ekspeditsiyasi xodimlarining Quyi Amudaryo,Sariqamishbo'yi va Uzboy xududlarida keng ko'lamda olib borilgan arxeologik izlanishlar natijasida olingan antropologik va moddiy madaniyat ashyolari voqea xududida kechgan etnogenez va etnik tarixini yoritishga imkon beradi. Har bir xalqning kelib chiqishi va rivojlanish tarixi uning etnogenezi va etnik tarixi bilan chambarchas bog'liqdir. Etnogenez va etnik tarixi va u bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar tarix fanida bosh masala bo'lib hisoblanadi. Albatta yozma manbalar, etnografiya, arxeologiya, antropologiya, numizmatika, lingvistika, toponomika, epigrafika, geografiya kabi fanlar bilan o'zaro aloqada uzviy bog'liqdir. Yuqorida qayd qilingan fanlar ishtirokida voqea aholisining etnogenezi va etnik tarixini o'rganishda ko'p aniqliklar kiritiladi. Xorazm vohasi aholisi tarixi O'zbekiston tarixi, qolaversa Jahon tarixining tarkibiy qismi hisoblanadi. Jahonda jamiyat rivojlanishi bir xil darajada kechgan emas. Jamiyatning notekis taraqqiyoti mintaqalarning geografik holatiga ko'proq bog'liqdir.

Tarixiy taraqqiyotning geografik sharoit va tabiiy iqlim sharoiti bilan bog'liqligi Xorazm vohasida yaqqol namoyon bo'lgan. Insoniyat tarix sahnasiga chiqqanidan keyin ming-minglab yillar (hatto million million yillar) mobaynida tabiat inijliklari va yovvoyi hayvonlar hurujidan saqlanish, turli kasalliklarga bardosh bera olmasdan sog'-salomat qolganlar ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va etnomadaniy rivojlanish darajasiga ko'ra,tarixiy jarayonni boshidan kechirgan. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixini Sho'ro imperiyasi davrida V.V.Bartold yozma manbalardagi tarixiy ma'lumotlarni e'tiborga olib, uning davrlashtirish tizimiga asos solgan edi. Muallif fikricha, O'rta Osiyo, shu jumladan Turon xalqlari tarixi "musulmonchilikkacha, "mug'ullar", temuriylar davrlariga ajratilgan⁵⁸.

⁵⁸ Бартольд В.В.История культурной жизни Туркестана.Л, 1927.с.3 Он же.Соч-я Т-2,часть 1 с-171.

XX asrning 30-yillari o'rtalarida O'rta Osiyoning arablar bosqinigacha bo'lgan davrlarni yozma manbalar kamlik qilishini, xududda arxeologik izlanishlarni kengaytirishni tadqiqotchilar tomonidan o'rta tashlandi⁵⁹. Sho'ro hokimiyati yillarida tarixchi olimlar tomonidan insoniyat jamiyati tarixi beshta ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya asosida ishlab chiqilib, yoshlarga ta'lim berilib kelindi. Afsuski, bunday tarixiy davrlashtirish O'rta Osiyo, shu jumladan Xorazm vohasi aholisi tarixiga mos kelmaydi. Voha aholisining etnogenezi masalasida yuqorida qayd qilingan formatsiyalarning uchasi ya'ni ibtidoiy jamoat tuzumi, er egaligi va dastlabki ko'rinishlarni tasvir etgan kapitalizm bosqichlari mos keladi xolos. Sotsializm degan atama sho'ro davrida hayoliy ishlab chiqilgan edi, mazkur jamiyat taqdiri nima bo'lgani hammaga ayon. Xorazm vohasi Turon zaminning o'ziga xos mintaqasi bo'lib xududda ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va etnogenez masalalarning ilmiy echimini topishda mahalliy xususiyatdan kelib chiqib taqozo etadi. Etnogenez va etnik tarixni davrlashtirish asosida yoritishda quyidagi omillarga tayanish kerak bo'ladi:

1. Tarixiy davr jamiyati rivojlanishi qaysi kuchlar faoliyati bilan bog'liq ekanligi;

2. Ijtimoiy mulkka egalik qilish mohiyati.

3. Jamiyat rivojlanishi barobarida qaysi mafkuraga asoslanadi. Uchta omil asosida Xorazm vohasida etnogenez va etnik tarixini yoritish mumkin:

1. Xorazmda "Ibtidoiy to'da davri".

O'lkamiz xududida olib borilgan arxeologik izlanishlar natijalariga ko'ra, so'nggi tosh davri odamlari istiqomat qilishib ovchilik va termachilik bilan shug'ullanganlar. Ajdodlarimiz faoliyatida mulkchilik formasi yo'q edi. Ovchi va termachilar biologik jihatidan odam shaklini olgan, ona raharligida urug' faoliyat olib borish jarayoni kechayotgan edi.

Xorazmda so'nggi tosh davriga mansub ajdodlarimizning mehnat qurollari topib o'rganilgan, lekin antropologik ashyolarni beradigan qabrlar ochib o'rganilmaganligi voha aholisining etnogenezi va etnik tarixini yoritishga

⁵⁹ Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта М, 1962,с.5

imkon beradigan materiallar yo'qligi sabab bo'lgan. Bundan V-IV ming yilliklarda kechgan etnik jarayonlarni faqat Tumekkichidjik qabri ashyolari misolida yoritish imkonini beradi xolos. Arxaika davri arafasida Xorazmda bronza davrida yuz bergan etnogenez va etnik tarix ma'lum darajada yoritishga imkoniyat tug'iladi.

Miloddan avvalgi IV-III ming yilliklarda Amudaryo havzasi, Sariqamishbo'yi, Uzboy sarhadlarida geografik xususiyat va tabiiy sharoitdan kelib chiqqan urug' uyushmalari evropoid irqiga mansub bo'lib, bronza davrida kechgan etnik jarayonlarda muhim rol o'ynaganlar⁶⁰. Oqchadaryo havzasi va Tuyamo'yin sarhadlaridagi suv havzalari sohili etaklarida turmush tarzini olib borgan urug' uyushmalari qabrlari ochib o'rganilmagan. Kaltaminorliklarning yangi avlodlari o'z bobolari jasadlarini albatta er qa'riga quyganliklari bor gap, chunki Tumekkichidjiklar vafot etgan oila a'zolarini to'g'riburchakli qabrlarga chalqanchasiga, tizalari bukilmagan holatda quyilgan qabrlarga joylaganlar. Bu Bronza davriga kelganda esa jasadlar Gujanak ya'ni tizzalari bukchaytirilgan holda quyilganligi kuzatiladi.

Mil.avv. II ming yilliklardan boshlab janubi-sharqiy Evropadan Janubi Sibirgacha bo'lgan xududlarda yashagan ko'chmanchi chorvador qabilalarning bir qismi O'rta Osiyoning dasht zonalariga joylasha boshladilar. Ular asosan Amudaryo, Sirdaryo va Zarafshonning quyi xavzalarida soy bo'ylarida istiqomat qilganlar. Mil.av II ming yillik o'rtalarida Qozog'iston cho'llarida yashagan chorvadorlar (Akronova madaniyati) aholisi O'rta Osiyoning shimoliy rayonlariga so'ng janubiy chegaralarigacha kirib borganlar. Bronza davrida Qozog'iston cho'llari, Janubiy Ural, Oltoy hamda Janubiy Sibir xududlarida yashab turkiy tillarning turli lahjalarda so'zlashgan, turmush tarzi va ma'naviy hayoti bir-biridan farq qilmagan. Qadimgi Xitoychada "bey" so'zi Xitoy

⁶⁰ Трофимов Т.А. Неолитические черепа кельтеминарской культуры из могильники Тумен-Кичиджик в Северной Туркмении (Этнография и Археология Средней Азии). М.»Наука», 1979. с.10-15. Собиров Қ, Жуманиязова М. Т. Амударё қуёи ҳавзаси ва унга табиий равишда туташган жанубий музофотлардаги халқлар тарихига доир баъзи чизғилар (милoddan avvalgi V-II ming йилликлар). "Хоразм воҳасида ижтимоий-гуманитар фанлар тараққиётининг минтакавий хусусиятлари" мавзусидаги республика илмий-назарий анжуман материаллари. Урганч. 2010.6.12.

podsholiklari davrida turkiy tilli chorvador xunnu qabilalariga nisbatan ishlatilgan. Janubiy Ural, Markaziy va Sharqiy Qozog'iston, Sibir mintaqalarida yashagan arxeologik manbalarda "Andronovo madaniyati" deb nom olgan turkiy tilda so'zlashgan⁶¹. Turkmanistonning Janubiy va G'arbiy xududlarda Tojikistonning bir qator rayonlarda tarqalgan. Ularning kelib chiqishi Old Osiyo aholisi bilan bevosita bog'liq edi⁶².

Mil.avv. II yillikda O'rta Osiyoda oriy tili (hind oriy) qabilalar yashaganligini ta'kidlab o'tadilar⁶³. Anov madaniyatiga xos bo'lgan dehqonchilik manzilgohlari yodgorliklardan topilgan rangli sopol idishlar oriy tilli kabilalarning ovchilik baliqchilik Evropada chorvachilik-dehqonchilik bilan shug'ullanib kelgan qabilalarning o'zaro aloqada bo'lganini ko'rsatadi. Tadqiqotlar qadimgi Xorazmning Tozabog'yob madaniyatini suv xavzalarining pastkam zaxkash qismlarda ibtidoiy dehqonchilik bilan shug'ullanganlarni ko'rsatadi. Tozabog'yob madaniyatiga yarim erto'la turar joy naqshlar bilan bezatilgan sopol idishlar Qozog'iston va Sibirning cho'l zonalaridagi sopol buyumlarga o'xshaydi. S.P.Tolstov tozabog'yobliklarni Andronovo qabilaning avlodlari deb hisoblagan. Ikki zona aholisi o'rtasida keskin to'qnashuvlar sodir bo'lganiga guvoxlik beruvchi ma'lumotlar uchramagan⁶⁴.

Vodil va Qoramqul qishloqlaridan topilgan qadimgi qabristonlarni Xo'jana viloyatidagi Qayroqqum makonlari va Dahana qabristonlarni kiritish mumkin. Qayroqqumda g'arbida joylashgan Sho'rko'l atrofidagi Taqir yagona deb atalgan manzilgohlar xam shular jumlasidandir. Bulardan tashqari 60 dan ortiq chorvador urug' jamoalarining qarorgoxlari o'rganilgan. Yunon manbalarda Evroosiyo cho'l zonalarida aholi skiflar deb atalgan. Bu haqda Pliniy quyidagilarni bildiradi "Forsiylar ularga yaqin yashovchi qabilalarning nomi bilan saklar deb ataydilar⁶⁵.

⁶¹ Ўзб.Миллий энциклопедияси 2004.б.667

⁶² Гинзбург В.В.Трофимова Т.А. Палентропология Средней Азии 1972.Хожжаев. Этнические процессы Средней Азии в эпоху средневековья Ташкент 1987,с.51-52.

⁶³ Оранский И.М. Введение в Иранскую филологию 1960,с.55-67.

⁶⁴ Аскарлов А. Ўзбекистон тарихи.(Энг қадимги эр.ав.V асригача) Т.1994.

⁶⁵ Древние авторы о Средней Азии 1940 с-126.

Eronshunos V.Abaev “Avesto” ning “YAsht” qismida tilga olingan. O’rta Osiyo saklari bilan “tez chopar otli turlar” hamda Danoy (Sirdaryoning qadimgi nomi) Sirdaryo bo’ylarida yashagan saklar deb hisoblaydi⁶⁶. Behustun qoyalari o’yib ishlangan suratlarda sug’diyonaliklar, baktriyaliklar va Xorazmlar bo’lib ularning tasvirlari saklarga o’xshatib ishlangan. S.P.Tolstov qadimgi sug’dlar va Xorazmlarning tillari bir-biriga yaqinligini qora dengiz bo’ylarida yashagan skiflarning tillari ham yaqin bo’lganini qayd etgan. Tadqiqotchilar asosan shakllar to’rt guruxdan iboratligini ta’kidlaydi. Bularning uch qismi, ya’ni Xaumarka, tigraxauda va tigraparadaraya shakllari Persopol yaqinidagi Nakshirustam qabr toshlarining yozuvida uchraydi, to’rtinchisi esa “sug’diylardan keyingi narigi tomonda”⁶⁷. Persopoldagi hamda Ekbatondagi yozuvlarda uchraydi⁶⁸. Antik tarixchilar tigraxauda saklarini mssagetlar bilan tenglashtiradilar. Hindlarning “Maxabxarat” dostonida bayon qilishicha podsho Yudxishtira o’tkazgan qurbonlik marosimida turli mamlakatlardan kelishgan mehmonlar orasida dasht aholisi vakillari ishtiroki qayd etilgan. Mil.avv. II ming yillikning II chi yarmida O’rta Osiyo vohalarida dehqonchilik bilan shug’ullangan qabilalar bilan bir qatorda tog’ oldi rayonlari, cho’l va dasht xududlarida keng tarqalgan edi. II ming yillikning oxirlarida jamoalar xududlarga kirib kelishi O’rta Osiyoning faollashuviga, aholi sonining ko’payishiga, tovar almashuvining kuchayishiga ta’sir ko’rsatdi. Ishlab chiqarish tarmoqlari dehqonchilik va xunarmandchilikning takomillashib borishi qabilalar o’rtasidagi iqtisodiy va madaniy aloqalar patriarxal oilalar o’rtasida mulkiy tengsizlikni keltirib chiqardi. Dehqonchilik bilan shug’ullanuvchi aholi ayrim ko’chmanchi guruxlar o’troqlashdi. Shu yo’sinda o’troq aholining soni oshib bordi. Mil.avv. I ming yillik o’rtalarida O’rta Osiyoning Zarafshon vodiysida Orol dengizining janubi-sharqiy qismida Tangritog’ va Oloyda mo’g’ulsimon antropologik tipdagi etnik guruxlar paydo bo’lgan.⁶⁹

⁶⁶ Абаев В.И. Скифский быт и реформа Зороастра XXIV 1956 № 1

⁶⁷ Шониёзов К. Қанғ давлати ва қанғлилар Т “Фан” 1990,6.8.

⁶⁸ Махабхарата. Книга 1-2.М-Л.1956-1962.

⁶⁹ Ходжаев Т.К.Этнические процессы в Средней Азии в эпоху средневековья «Фан» 1987 с-5.

S.P.Tolstov yuqorida qayd qilib ko'rsatgan yarim o'troq va chorvador qabilalar bo'lgan andronovoliklar Janubiy Oqchadaryoga kelib o'rnashib faoliyat olib borishi jarayonida olamdan o'tgan safdoshlari yoki oila a'zolari joylashtirilgan qabrlarni tadqiqotchi M.A.Itina qazish ishlarini olib borishi natijasida 74 ta qabrni o'rganishga muvaffaq bo'lgan.

M.A. Itina 1954-1955 yillarda Kokcha balandligidan 6-7 km uzoqlikdagi taqir erda andronovoliklarning 100 ga yaqin qabrlarini ro'yxatga olishga muyassar bo'lgan. Qabrlar to'g'riburchak shaklda bo'lib, ularni hajmiga qarab ikki tipga ajratish mumkin: 1-tip katta to'g'riburchakli qabr bo'lib, ikki jasad quyilishiga mo'ljallangan (Ularning hajmi 2,2-25-1,8-2) 2-tip.Bir jasadga mo'ljallangan bo'lib,ularning hajmi 1-1,5x1,7-1,9m⁷⁰. Tozabog'yablik va Suyorganliklar (Tog'on-2(Angqa-5,Qavat-3,Ko'kcha-3) Angqa-2, Bozor 2,4 Yonbosh-6) manzilgohlaridan olingan antropologik ashyolarni taxlil qilgan. T.Trofimova ma'lumotiga ko'ra, olamdan o'tgan odamlarning suyaklari janubda Hindiston, shimolda quyi Volga, Janubiy Orol, shimoli-sharqda Qozog'iston, Oltoy va Minushi o'lkasiga yaqin bo'lgan⁷¹.

T.A.Trofimova xulosasiga ko'ra Kokcha-3 qabrilaridan olingan antropologik ashyolar ikki tip, ya'ni mahalliy suyorgan, ikkinchisi Andronova va Yog'ochband madaniyatlari sohiblariga yaqin bo'lgan⁷².

Shu tariqa Xorazm vohasi va unga geologik jihatidan ulanib ketgan sariqamish xavzasining janubi-sharqida ikki etnik va etnik munosabatlar iqtisodiy makon mavjud bo'lgan. Mazkur iqtisodiy etnik makonlar miloddan avvalgi VI-V asrlarda davom etgan.

Miloddan avvalgi II ming yilliklar oxiri-I ming yilliklarda dasht qabilalarning O'rta Osiyoning ziroatchilik regionlariga ko'chishi avvaldan mavjud bo'lgan etnik makonni etnogenez jihatidan faollashtirganlar. Bu jarayonda Xorazm vohasi istisno emas.

⁷⁰ Итина М.А. Раскопки могильника Тазабагыбской культуры Кокча-3 МХЭ, вып-5, 1961. с3-96.

⁷¹ Собиров Қ, Абдуллаев Ў. Этномаданий муносабатлар: шаклланиш ва ривожланиш босқичлари/Жамият ва бошқарув. Т "Академия" № 4. 2007. 6-61.

⁷² Трофимова Т.А. Череп из Могильника Тазабагыбской культуры Кокча-3 /МХЭ, Вып-5, М. «Наука», 1961, с.97-146.

Tadqiqotchilar ma'lumotlariga ko'ra, Evroosiyo cho'llarida, O'rta Osiyo, Qozog'iston xududlarida miloddan avvalgi III-II ming yilliklarda Xind-evropa tillari turkumiga oid o'troq va ko'chmanchi qabilalar jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy mazmunini tashkil qilganlar. Yuqorida qayd qilingan keng xududlarda til, xo'jalik faoliyati, madaniyati, etnik qiyofasi jihatidan umumiy birlikka ega bo'lganlar⁷³. Ko'xna Xorazm, So'g'd, Baqtriya mintaqalarida istiqomat qilgan qabilalar (miloddan avvalgi II ming yillik o'rtalari) Eroniy tilda so'zlashuvchi qabilalar bilan yaqin aloqada bo'lib YAqin va o'rta Sharqning etnik munosabatlariga o'z ta'sirini o'tkazib turganligi haq gap.

V ming yillikdan miloddan avvalgi VIII asrlarda Xorazm vohasi Sariqamishbo'yi va Uzboy xududlarida istiqomat qilgan urug' uyushmalari yozma manba bo'lgan Avestoda biron-bir etnik nom bilan qayd etilmaydi. Miloddan avvalgi VII asrdan boshlab, Xorasmiylar degan toponomik atama yozma manbalarda uchray boshlaydi. Miloddan avvalgi 522-519 yillarda sayyohat qilgan Gekateyning hisobotnomasida xorasmiylar atamasi qayd etiladi. Gekateyning "Er kurrasining tasviri" deb nom olgan asari asosida Afiney "Lipetlik Gekatey Osiyoni tasvir etib "Parflarning sharqida tekisliklar va tog'larni ishg'ol qilgan Xorasmiylar yashaydi. U tog'larda yovvoyi daraxtlar, tol, yulg'un, tikanli kinara o'sadi" deb qayd qilsa, Stepan esa "Xorasmiya parflarning sharqidagi shahar. Ularning shahri "Xorasmiya" deb qayd qiladi⁷⁴. Miloddan avvalgi VI asr ikkinchi yarmi oxiridan-V asr oxirigacha Amudaryoning o'ng va so'l sarhadlarida shakllangan tarixiy-madaniy markazlarda turmush tarzida olib borgan ziroatchilarning qabrlari loydan yasalgan Ossuariy Ostadonlar bo'lgan. Bunday Ostadonlar Qalaliqir Ko'zaliqir yodgorliklari atroflaridan olingan.

Yozma manbalarda mil.avv. VII-VI asr oxiriga "Katta Xorazm" davlati mavjudligini izohlaydi. I.V.Pyankov Gekatey ma'lumotidan kelib chiqib,

⁷³ Жаббаров И. Юксак маданият ва ноёб маънавият маскани. Т. "Ўзбекистон", 2012, б.57.

⁷⁴ Пьянков И.В. Хорасмий Гекатея Милетского. ВДИ, № 2, М, 1972 с.7.

Xorasmiylar Turkman-Xuroson tog'i SHarqiy qismi va Tajan-Gerirud vodiysida joylashgan degan xulosaga kelgan⁷⁵.

Shuningdek I.V.Pyankov Gekateyning Xorasmiylar to'g'risidagi ma'lumotini Gerodotning Akes daryosi afsonasi bilan bog'laydi⁷⁶. Nazarimzcha I.V.Pyankov bir momentga ya'ni Xorasmiylar Girkanlar bilan qo'shni deb qayd qilinishiga e'tiborni qaratmagan ko'rinadi.

M.G.Vorob'eva Quvasoyliklarning kelib chiqishi va joylashishi to'g'risida bir qator fikrlari mavjudligini kuzatish mumkin.

Olimaning fikricha, mil.avv-gi VII asrda Quvisoyliklarni Janubiy Turkmaniston yoki Shimoliy Eron, shimolda Qizil-Arvat, Janubda Deshte-Kevir, G'arbda Girkan yuqori qismi va Sharqda Shirvon, Nishopurdan Quyi Amudaryo havzasiga ko'chib kelgan degan xulosa mavjud.⁷⁷

Tadqiqotchi Quvisoyliklarning kelib chiqishiga oid mulohazalari avvalgi tadqiqotlarida mahalliy aholi ekanligiga urg'u bergan edi⁷⁸.

1979 yilda nashr qilingan to'plamda mavjud bo'lgan maqolasida tadqiqotchi avvalgi fikridan butunlay voz kechib, Quyi soyliklarni shimoliy Erondan kelgan fikrni qayd qilgan edi. Xorazm ekspeditsiyasi xodimi, tadqiqotchi safdoshi M.A.Itina muallifning maqoladagi fikrini qo'llab-quvvatlamaydi⁷⁹. Tadqiqotchilar o'rtasida Xorasmiylarning kelib chiqishi joylashishi to'g'risida turli muloxazalar mavjudligi ko'zga tashlanadi. Masalan, A.Sagdullaev fikricha, Xorasmiylar ahamoniylargacha Xorazmda istiqomat qilganlar, bunda amirobod va Quvisoyliklar nazarga olingan⁸⁰. Tadqiqotchi Q.Sobirov Oqchadaryo xavzasidagi amirobodliklarning bir qismi chorva mollariga ozuqa serob bo'lgan xududga, ya'ni sariqamish havzasi janubiga

⁷⁵ Пьянков И.В.Хорасмии Гекатея Милетского.ВДИ,1972 № 2, с.3-20.

⁷⁶ Геродот . Тарих. IX. III. 117.

⁷⁷ Вайнберг Б.И. Памятники Куясайской культуры /Кочевники на границах Хорезма М «Наука», 1979.с.49.

⁷⁸ Вайнберг Б.И.Куясайская культура раннего железного века в Присарыкамышской дельте Амударьи-УСА,1975,вып-3, с.48.

⁷⁹ Итина М.А. От редактора //Кочевники на границах Хорезма. М "Наука", 1979 с.5.

⁸⁰ Сагдуллаев А. Маргиана и Бактрия.Исторические традиции и культурные связи до античную эпоху /Древний Мерв. Ашгабад «Б'лым», 1929.с.17.

ko'chgan degan xulosaga kelgan⁸¹. Akademik A.Asqarov tomonidan Oliy o'quv yurtlarining tarix fakultetlari talabalari mo'ljallangan o'quv qo'llanmasida Xirot vodiysidan to Amudaryogacha bo'lgan Xorasmiylar, Girkonlar, Parfiyaliklar, Sarapg va famaneylar yashagan bepoyon xudud ko'rsatib o'tilgan⁸². Miloddan avvalgi IX-VII asrlarda turmush tarizini olib borgan etnik guruhlar Avestoda qayd qilingan "Xvarizam" atamasi tarix sahifasidan mustahkam o'rin olgan edi. Endi, yuqorida keltirilgan tarixiy dalillardan kelib chiqib, ushbu paragrafni quyidagicha yakunlash mumkin.

Arxaika davri arafasida Xorazm vohasi, Sariqamishbo'yi, Uzboy arhadlaridagi etnik jarayonni ilk kaltaminorliklar izohlagan. Miloddan avvalgi IV-III ming yilliklardagi etnik munosabatlarni ilk kaltaminorliklarning avlodlari Ungizi Qoraqumdan Orol dengizigacha bo'lgan bepoyon rang-barang tekislikda davom ettirganlar.

Oqchadaryo havzasi va Tuyamuyun tizimidagi Kaparas vohasiga kelib iqtisodiy-etnik makonni hosil qilganlar va etnik jarayonni tezlashtirganlar. Quyisoyliklar yangi xududga ko'chib kelgandan keyin mahalliy urug' uyushmalar bilan omuxtalashib etnogenez munosabatlarni hosil qilganlar.

Miloddan avvalgi VIII-VII asrlarda etnik munosabatlarni olib borgan qabilalar ilk yozma manba bo'lgan Avestoda "Xvarizam" nomi bilan etnotoponomika vujudga kelgan. Arxeologik tadqiqotlar natijalaridan ma'lumki, avvalgi V- ming yilliklardan-miloddan avvalgi V asr oxirlarida Oqchadaryo va Sariqamishbo'yi havzalari insoniyatning turli xo'jalik yo'nalishlarini olib boradigan iqtisodiy va etnik makonlari bo'lgan. Yozma manbalarning guvoxlik berishicha, miloddan avvalgi VIII-VII asrlarda O'rta Osiyo dasht,yarim dasht va sug'oriladigan dehqonchilik vohalarini birlashtirgan sak-massaget qabilalarning ittifoqi vujudga kelgan. Afsuski, mazkur qabilalarning harbiy va xududiy ittifoqi mustahkam bo'lmagan, shu sababdan bo'lsa kerak janubda vujudga kelgan harbiy jihatidan kuchli bo'lgan ahamoniylar davlatiga zarba bera olmagan.

⁸¹ Собиров К. Хоразмнинг қишлоқ ва шаҳарлари мудофаа иншоотлари. Т "Фан", 2009,6.91-92.

⁸² Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. Ўқув қўлланма. Тошкент 2007, 6.113-114.

2.2. Amudaryoning o'ng va so'l sohili madaniy-xo'jalik markazlarida arxeologik izlanishlar.

Sho'ro davri tarixshunosligida Amudaryoning o'ng va so'l sohilida shakllangan madaniy-xo'jalik markazlar va ular tizimini tashkil qilgan mikrovohalarda qishloq tipidagi shaharcha va shaharlarda olib borilgan keng ko'lamda arxeologik izlanishlar natijasi asosida ushbu paragrafni yoritish imkonini beradi. Tadqiqotchi G'.K.Xo'janियazov monografiyasida Xorazm vohasi, unga qo'shni Sariqamishbo'yi, Uzboy sarhadlarida olib borgan arxeologik izlanishlar natijalari quyidagicha tarixiy davrlarga ajratilgan edi. Chunonchi:

1-1936-1940 yillar

2- 1945-1958 yillar

3-1959- 1990 yillar⁸³

Tadqiqotchi Vatanimiz mustaqilligi yillarida Xorazm Ma'mun akademiyasi olimlarining Xazarasp va Xumbuztepada olib borgan arxeologik izlanishlarini nazardan qochirgan.

Tadqiqotchi Q.Sobirov Xorazmning qishloq va shaharlarida olib borgan arxeologik izlanishlar natijalarini quyidagi tarixiy davrlarga ajratgan:

1-milodiy VIII asr-1936 yillar

2-1937-1941 yillar

3-1946-1966 yillar

4-1967-1991 yillar

5-1991-hozirgacha bo'lgan davr⁸⁴

Xorazmning arxaika davrida ajdodlarimiz tomonidan qad ko'tarilgan qishloq va shaharlarning arxeologik jihatidan o'rganilish darajasini tahlil qilishda Q.Sobirov tomonidan ilgari surilgan tarixiy davrlarni asos qilib oldik. Qishloq va shaharlarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijalarini tarixini yoritishga harakat qilamiz.

⁸³ Хўжаниязов Ф.К. Қадимги Хоразм муҳофаа иншоотлари.Т."Ўзбекистон", 2007, б.22.

⁸⁴ Собиров Қ. Хоразмнинг қишлоқ ва шаҳарлари муҳофаа иншоотлари. Т-Фан, 2009,б.16.

Ko'zaliqir. Amudaryoning so'l sohilida, Sariqamish havzasi Charmanyop sug'orilish tizimida Toshhovuz shahridan 85 km uzoqlikda qir ustiga uchburchak shaklda qurilgan bo'lib, uning umumiy maydoni 40 ga. Yodgorlik ikki qismdan iborat bo'lib, uning birinchisi qirning janubi-g'arbiy qismida qad ko'tarib, shahriston va arkdan iborat. Ikkinchisi esa birinchisidan pastki qismida joylashgan. Arxeologik qazishmalar natijasida olingan ashyolar asosida yodgorlikda ikki qurilish davri mavjudligi aniqlandi. I qurilish davrida mudofaa inshooti 2,30 sm yo'lakka ega bo'lgan, to'rt qatorli devor paxsadan tiklangan, yarim aylanali burjlar bilan kuchaytirilib, yon tomonga o'sib chiqishi 3,50 sm ular o'rtasidagi masofa-36 m. Devor yo'lagida uy xonalari, o'choqlar, ibodatxonalar joylashgan. II qurilish davrida paxsa va devor burjlar devori ustiga to'g'ri burchakli xom g'ishtli devor qurilgan. Bu tarixiy davrda yo'lak maydonida o'zgarish yuz bermaydi. Devor va burjlarda nayza o'qi uchli shinaklar shaxmat uslubida joylashgan bo'lib, ularning oraliq maydoni 1,8-2 sm. Shimoliy qismining keng xududida jamoat binolari, ark qoldiqlari ko'zga tashlanmaydi. Shaharning markaziy qismining g'arbida saroy qoldiqlari o'rganilgan. Shahar yagona darvozaga ega bo'lib, bir tirsakli murakkab inshoot bilan mustahkamlangan. Shaharning ichki qismi arxeologik jihatdan to'la o'rganilmaganligi sababli, uning vujudga kelishi va rivojlanish tarixi to'g'risida turli fikrlar mavjud bo'lib, ilmiy munozaraligicha holda qolib ketmoqda. Darhaqiqat, ayrim tadqiqotchilar asarlarida shahar ilk temir davrida Xorazmning siyosiy markazi bo'lgan degan xulosa ta'kidlab ko'rsatiladi⁸⁵. Ko'zaliqir xorasmiylarning siyosiy markazi bo'lishiga qaramasdan, uning me'moriy-topografik tuzilishi avvaldan puxta ishlab chiqilgan rejalashtirish bilimini aks ettirmaydi. Bizning fikrimizcha, xorasmiylar tepalikning mudofaaga qulayligini e'tiborga olib, geografik xususiyatni hisobga olmagan bo'lsalar kerak. Chunki, xorasmiylar bu xududga Xilmend vodiysidan azob-uqubatlarni o'z boshlaridan o'tkazib, axamoniylar zarbasiga bardosh beradigan, qisqa fursat ichida mukammal mudofaa tizimli shahar qurishni afzal ko'rganlar.

⁸⁵ Лапиоров-Скобло М.С. Неразик Е.Е. Раскопки Барактаме-1 в 1956 г, МХЭ. № 1., «Наука», 1959, с. 81-95.

Afsuski, mudofaa tizimga ega bo'lgan Ko'zaliqir Ahamoniylar armiyasi zarbasiga bardosh bermagan.

Qal'aliqir - Amudaryoning so'l sohilida, Amudaryoning qadimgi irmog'i Daudon sug'orilish tizimida joylashgan. Yodgorlik to'rtburchak shaklda (1000x700m) rejalashtirilgan, umumiy maydoni 70 ga. Qadimda ikki qatorli devor bilan o'rab olinib, yo'lakka ega bo'lgan. Shaharning to'rtta darvozasi bo'lib, uning o'ng qismi labirintining darvozadan yon tomonga o'sib chiqishi 18 m. Qal'a devorida ma'lum masofada joylashgan to'g'ri burchakli burjlar joylashgan. Qal'aliqirda olib borilgan arxeologik qazish ishlari natijasida olingan ashyolar shahar devorida uchta qurilish davri mavjudligi aniqlangan. Yodgorlikning saroy qurilishi tugallanmagan. Miloddan avvalgi V asrda faoliyat olib borgan.

Bozorqal'a – Qoraqalpog'iston Respublikasi To'rtko'l tumani xududida, deyarli kvadrat shaklda (600x560m) qurilgan, uning maydoni 33 ga. Devor pastki qimining qalinligi 8,5-9 m. Devor ikki qatorli bo'lib, ular o'rtasida yo'lak-karidor hosil bo'lgan. Tashqi devor nayza o'qi uchli shinaklarga ega. Devor va uning tashqi burchagida yarim aylanali burjlar joylashgan bo'lib, ular o'rtasidagi masofa 30-50 m, kengligi 5,5 m devordan yon o'sib chiqishi 6,5 m. Qal'a darvozasi shimoliy devor o'rtasida joylashgan, kengligi 5 m, ikki yon tomonida yarim aylanali burjlarga ega. Ark yodgorlikning shimoliy-sharqiy burchagida joylashgan, kvadrat shaklida (120x120m). Uning maydoni 1,4 ga teng. Ark ikki qatorli devor bilan o'rab olingan bo'lib, yarim aylana burjga ega. Arkning kirish qismi bir tirsakli to'g'ri burchakli "labirint" ga ega, hajmi 22x17 m. Labirint, o'z navbatida, kengligi 2,1 m yo'lakka ega. Uning shimoli-g'arbiy burchagida ikki tomonga yo'nalgan "qaldirg'och dum" li burjlar bilan mustahkamlangan. Ark devorining saqlanib qolgan qismi 9-10 m. Devor nayza o'qi uchli shinaklarga ega, ular o'rtasidagi oraliq 1,6-2 m. Devor va burj qurilishida 47x47x10-12 sm xom g'isht ishlatilgan. Bozorqal'ada mil.avv. IV asrda madaniy hayot bo'lib, uning qadimgi davrdagi tarhi saqlanib qolgan, qal'aning umumiy maydonida o'zgarish yuz bermagan. Antik davrda paxsa

devor ustiga xom g'ishtdan qurilgan bo'lib, ular o'rtasidan kengligi 2,30 yo'lak o'tgan. Devor yarim aylanali burjlarga ega, ular o'rtasidagi masofa 30-50 m, kengligi 5,5 m, uzunligi 6,5 m bo'lgan (jami 44). Shahar darvozasi shimoliy qismidagi devor markazida joylashgan, labirintga ega emas, lekin ikki yon tomondan yarim aylanali burjlar bilan mustahkamlangan. Shimoli-sharqiy burchagida ark-a'lo joylashgan bo'lib, to'g'ri burchak holda uning hajmi 120-120 m, devor balandligi 4 m, pastki qismining qalinligi 8,5-9 m. Ark darvozasi g'arbiy devor o'rtasida bo'lib, murakkab inshoot bilan mustahkamlangan (22-17 m). Murakkab inshoot yarim aylanali burjlar bilan mustahkamlangan. Devor va burjlar nayza o'qi uchli shinaklar bilan bezatilgan bo'lib, ular o'rtasidagi masofa 1,6-2 m, tashqi tomondagi hajmi 1,2 m, ichki tomonda esa 0,60 m. Bozorqal'a tarixi ikki qurilish davridan iborat bo'lib, mil.avv. VI milodiy IV asrgacha shaharda madaniy hayot davom etgan.⁸⁶

Xiva- Urganch shahridan 25 km uzoqlikda Qoraqum chegarasida, Polvonyob kanilining oxirgi qismidagi past tekislikda joylashgan. Xiva (Ichanqal'a) qadimda to'g'ri to'rt burchak shaklida qurilgan, uning maydoni 650x450 m, ya'ni 26 ga. Qal'a qadimda ikki qatorni devor bilan o'rab olingan. Devor, o'z navbatida, yarim burjlarga ega. G'arbiy devor markazida ark joylashgan, uning maydoni 170x120 m, ya'ni 2 ga, alohida devor va kirish darvozasiga ega. Kirish qismi yarim aylana burj bilan himoyalangan. Ichanqal'a va ark devorining saqlanib qolgan balandligi 8-10 m, qalinligi 10 m. Mil.avvalgi V asrda qurilgan birinchi qurilish davrida paxsa devor bilan o'rab olingan. Yo'lak kengligi 2 m bo'lib, ichki va tashqi devorlarni bir-biridan ajratib turgan. Mazkur yo'lak keyingi tarixiy davrlarda ham mavjud bo'lgan⁸⁷.

⁸⁶ Толстов С.П. Древний Хорезм. М. «Наука», 1948 с.112, рис47.

⁸⁷ Мамбетуллаев М. Ягодин В.Н. К оценке хронологии и динамики культурного слоя г Хивы.//Ону, Ташкент «Фан», № 3, 1986. Мамбетуллаев М. Изучение стратиграфии г Хивы.//Вестник КК «Фан», УзССР. № 3, Нукус, 1983. Он же. Разрез крепостной стены Ичанкалы.//Вестник КК «Фан», УзССР. №4, Нукус, 1989. Раскопки оборонительных сооружений г Хивы //Вестник КК «Фан», УзССР. №4, Нукус, 1992. Аскарлов А. Хива шаҳар маданиятининг шаклланиши ва унинг асосий босқичлари. Инсониятнинг илмий ва маданий меоси-учинчи минг йилликка. Бухоро ва Хива шаҳарларининг 2500 йиллигига бағишланган халқаро симпозиум тезислари. Тошкент, 1997, с 165-168; Мамбетуллаев М. Хива антик даврда (Мил.авв. VI милодий – II асрлар). Ўша тезисда с 170-171. Собиров Қ. Хива ва Хазорасп шаҳарлари мудофаа иншоотлари қурилишининг асосий босқичлари. Ўша тезисда. 171-174 б.

Dingilja . Yodgorlik tarhi to'g'ri to'rt burchak shaklda, maydoni 60,9x48 m (tax.3 ga). Qadimda qalinlig 2-2,4 metrli bir qatorli mudofaa devor bilan o'rab olingan bo'lib, burj va shinaklar mavjud emas. Ark va ibodatxona qoldiqlari ko'zga tashlanmaydi. Qal'aga kirish uning janubiy devordia joylashgan. Arxeologik tadqiqotlar natijasida olingan kompleks materiallarga ko'ra,manzil mil.avv. V asrga oid ekanligi aniqlandi. Lekin yodgorlikning mudofaa tizimi ilmiy asosda tahlil qilinmagan. Dingilja mudofaa devori paxsa va kvadrat shakldagi xom g'ishtdan tiklangan. Bizningcha, bu janubiy Xorazm xududida etarli darajada o'rganilgan qadimgi qishloq manzili hisoblanadi⁸⁸.

Qo'shqal'a. Amudaryoning so'l sohilida joylashgan. Bu yodgorlik qadimgi davrga oid. Yodgorlik to'rtburchak shaklda, to'rt tomoni mudofaa devor bilan o'rab olingan bo'lib, to'g'ri burchakli burjga ega. Devor bo'yilab yo'lak o'tgan. Devor va burj to'rt tomoni teng xom g'ishtdan tiklanib, kamon o'qi shinaklar bilan kuchaytirilgan.

Odoytepa. Qo'shqal'a 1 dan 90 km janubi-sharqiy va 30 km, Chorjo'y shahridan shimoli-g'arbiy tomonida joylashib, ikki qatorli mudofaa devor bilan o'rab olingan. Devor, o'z navbatida, yarim aylana burjlar bilan kuchaytirilib, uning qoldiqlari saqlanib qolgan⁸⁹.

Qang'qaqal'a-1. Sariqamish havzasi tizimida joylashgan bo'lib, uning tarhi to'g'ri burchak shaklda, qadimda mudofaa devor bilan o'rab olingan⁹⁰.

Qang'qaqal'a-2. Qang'qaqal'a-1. yaqinida joylashgan, tarhi to'rt burchak shaklda,qadimda mudofaa devor bilan o'rab olingan⁹¹.

Ko'na Uaz. Yodgorlik miloddan avvalgi V asr oxirida barpo qilingan. Yodgorlik Qalaliqir-1 qal'asidan 9 km shimolida Amudaryoning Dovdon irmog'i o'rta qismidagi balandlikka kvadrat timsolida barpo qilingan. Qal'a topografik tuzilishi jihatidan yuqori (markaz) va pastki (pastki shahar) qismlarga

⁸⁸ Воробьева М.Г. Раскопки архаического поселения близ Дингильдже.МХЭ,Вып 1, М., «Наука» 1959 с 70-80.Тоолстов С.П., Жданко Т.А., Итина М.А. Работы Хорезмской археолого-этнографической экспедиции Ан СССР в 1958-1961 г., М., «Наука», 1963,с. 10. Воробьева М.Г. Дингильджа. Усадьба середины 1 тысячелетия до.н.э. в древнем Хорезме., М., «Наука», 1973,с. 16-218.

⁸⁹ Пилипко В.Н. Из работ Амударьинского отряда.-АО-1968г., «Наука»,1969,с. Он же. Раскопки в Дейнауском районе Чарджоуской области-АО-1974,М., «Наука», 1975, с528.

⁹⁰ Толстов С.П. Древний Хорезм. М., «Наука»,1948, с.112-113 б.

⁹¹ Толстов С.П. По следам древнехорезмийской цивилиации.М., «Наука», 1948,с.114.

ajralgan, ularning maydon hajmi (307x307 m). Umumiy maydoni 9 ga. 1939 yilda Xorazm ekspeditsiyasi xodimlari tomonidan arxeologik ro'yxatga olingan.⁹² Tadqiqotchi fikricha, yodgorlik kirish qismi janubi-sharqiy devor o'rtasida joylashgan. Darvozaga yo'nalish olgan devor yodgorlik ichki tomonini ikki qismga ajratgan⁹³. 1950 yilda ekspeditsiya xodimlari yodgorlikda qaytadan qazishma ishlarini olib borganlar, ammo natijasi e'lon qilinmagan. 1952 yilda E.E.Nerazik qal'ada arxeologik qazish ishlari yakuniga ko'ra, yodgorlik qad ko'tarilishi ikki tarixiy davrdan iborat ekanligi aniqlangan. Birinchi qurilish davrida tashqi va ichki devor paxsadan tiklangan holda, uning saqlanib qolgan balandligi 1,15 m.

B.I. Vaynberg Sariqamishbo'yi havzasida keng miqyosda olib borgan arxeologik izlanishlar natijalaridan Ko'nauvaz tarixiy sanasini Qal'aliqir-2 yodgorligi bilan bir tarixiy davrda barpo qilingan degan xulosaga kelgan.⁹⁴ Bizning fikrimizcha, ilk antik davrda Davdon irmog'idan Qal'aliqir shimolidagi balandlik tomon Ko'nauvaz atamasida sug'orish inshooti qurilganini hisobga olsak, B.I.Vaynberg xulosasiga qo'shilish mumkin. Qal'aliqirda madaniy hayot to'xtashgandan keyin mazkur xududning vaqtincha siyosiy markaz vazifasini Ko'nauvaz bajargan bo'lishi ehtimoldan uzoq emas.

Xazorasp. Mil.avv. V asrda yodgorlik bunyod qilingan (340x320) umumiy maydoni 10,8 ga. 1996 yilda M.M. Mambetullaev rahbarligidagi arxeologik guruh shaharning ichki qismida arxeologik qazish ishlarini olib bordi, natijada uzunligi 15 m, paxsa devor o'rganildi, uning balandligi 2 m., devor bo'ylab ichki tomonidan yo'lak o'tgan, kengligi 2,4 m. Ichki devor qalinligi 1,5 m, balandligi 2 m paxsadan tiklangan tashqi tomonidan qalinligi 1,50 m, paxsa devor qurilgan natijada tashqi tomonidan devor qalinligi 3,50 m. Devsolgan devorning pastki qismida ichki tomonidan 30 sm balandlikda paxsa devor topildi. Mudofaa devor pastki poydevorgacha tadqiqot ishlari etkazilmagan. Masjid ichkarisida olib borilgan arxeologik shurf olti metr

⁹² Толстов С.П. Древности верхнего Хорезма. М, «Наука», 1941, с.178,рис 15.

⁹³ Толстов С.П. Древний Хорезм. М., «Наука», 1948, с.95,рис 59.

⁹⁴ Вайнберг Б.И. Этногеография Турана. М, "Наука", 1999,с.27.

chuqurlikkacha olib borildi. Pastki madaniy qatlamdan olingan arxeologik ashyolar sharning vujudga kelishini mil.avv. V asrlarga oid ekanligini isbotlamoqda. Shurfning pastki qismidagi birinchi madaniy qatlam qurilish mudofaa devorining birinchi qurilish davriga to'g'ri keladi.

1 qurilish davrida Xazorasp shahari ikki qatorli devor bilan o'rab olingan, ular o'rtasida 2m yo'lak bo'lgan. Mudofaa devorning umumiy qalinligi 7m. Mazkur qurilish tarixiy sanasi mil.avv.V asr bilan belgilangan.

Arxeologik tadqiqotlar natijalaridan ma'lumki, O'rta Osiyoning Murg'ob vohasida, Zarafshon vohasining Samarqand So'g'di, Janubiy So'g'dda miloddan avvalgi VII asrda shaharlar qurilishi aholi faoliyatida o'rin olgan edi. G'arbiy So'g'dda miloddan avvalgi V asrda shaharlar qurilishi amalga oshirilgan (Buxoro).

Arxeologik tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatdiki ajdodlarimiz miloddan avvalgi VI-V asrlarda Amudaryoning o'ng sohilida dastlab Kaltaminor kanali (miloddan avvalgi VI-V asrlarda Amudaryo suvi Oqchadaryo havzasi tomon kam miqdorda kelganligi bois, daryoning o'zidan magistral kanali chiqarib, Dingilja dehqonchilik vohasiga aylantirganlar. Kaltaminor kanali etagida yana bir madaniy-xo'jalik markazi barpo bo'lib, uning bosh shahari Bozorqal'a bo'lgan. Demak Oqchadaryo irmog'i Janubiy qismida bitta irmoqning shimoliy qismida (Sulton Uveys tog'i sharqida) ikkinchi madaniy-xo'jalik markazi vujudga kelganligi bois, ikkita dehqonchilik vohasi tarkib topgan.

Shaharlarning joylashishi bir-biridan oraliq maydoni keng. Bepoyon tekislikning tabiiy suv bilan ta'minlanadigan xududlar ziroatkor aholi tomonidan o'zlashtirilgan xolos.

Xorasmiylar nazaricha,qad ko'targan qal'a janubiy xududdan keladigan xarbiy xavfga bardosh beradigan va daryo irmoqlari natijasida vujudga kelgan xududlarda dehqonchilik madaniyatini rivojlantirish imkoniyati mavjud bo'lgan. Amudaryoning Davdon irmog'idan uzunligi 70-80 km, kengligi 40 m, chuqurligi 7-10 m bo'lgan Charmanyop sug'orish inshootini bunyod qildilar, natijada xorasmiylarning dastlabki dehqonchilik vohasi vujudga keldi va uning

ma'muriy-siyosiy, etnomadaniy markazi sifatida Ko'zaliqir shahri namoyon bo'ldi. Shu tariqa, mil.avv. VI asrning oxirgi choragidan bu zaminga xorasmiylarning ommaviy migratsiyasi tufayli paydo bo'lgan me'morchilik, muxandischilik bilimlarining tarixiy jarayonga kirib kelishi shaharsozlik madaniyati bilan bog'liq bo'lgan. Xorasmiylar mudofaa tizimli shaharni bunyod qilgandan keyin, unumdor xududlarda dehqonchilik va chorvachilikni jadal sur'atlar bilan rivojlantirish maqsadida ko'chmanchi qabilalarga yaqin xududlarda xarbiy qal'alarni qurishdan boshladilar. Janubiy tomonda Quvisoyqa'la, Janubi-g'arbiy tomonda joylashgan Tuzgir dungligida Kang'xaqal'aning qurilganligi sababli, dehqonchilik vohalarining shu tomondan bo'ladigan xarbiy xavfsizligi ta'minlangan. G'arbiy tomonda xarbiy qal'a sifatida Butentou-1-2 yodgorliklari bunyod qilgan. Janubiy va g'arbiy tomonlarining mudofaa qobiliyati mustaxkamlangandan keyin, sharqiy tomonda Odoytepa, Qushqal'a bunyod qilingan. Bizning nazarimizda, u tomondan bo'ladigan xarbiy xavf xorasmiylar kutgan darajada bo'lmaganligi sababli, vaxolarda dehqonchilikning olib borilishini nazorat qilish uchun mitti xarbiy manzillar qurishgan. Janubi-g'arbiy va janubi-sharqiy xududlar xavfsizligi ta'minlangandan keyin, xorasmiylar asta-sekin yangi xududlar o'zlashtirilish ishlarni boshlab yuboradilar.

Ko'zaliqir qir ustida balandlikda Charmanyob kanali yaqinida, Xazorasp pasttekislikda Xazorasp kanali yaqinida, Dingilja kaltaminor sug'orish zonasidagi pasttekislikda joylashgan. Bu tarixiy davrda shaharning ichki tuzilishi yagona bir qismdan iborat bo'lib, saroylar, omborxonalar, uy-joy binolari tor ko'chalar devor bo'ylab qurilgan. Janubiy xududda Xazorasp, shimoli-sharqiy xududda Bozorqal'a sug'orilish dehqonchilik madaniyatlari bo'lgan. Shimoliy-sharqiy sug'orilish dehqonchilik markazi Oybuyirqal'a Ichhanqal'a Polvonyop kanalining oxirgi qismi sug'orilish dehqonchilik markazi bo'lgan. Sariqamish xavzasining sug'orilish dehqonchilik markazlari Ko'zaliqir va Qal'aliqir shaxarlari bo'lgan. Mil.avv.Vasr oxiri – IV asr boshlarida

me'moriy topografik va mudofaa inshootlari bilimi shimoliy, shimoli-sharqiy tomonlarini qamrab olgan.

Yodgorliklarning aksariyati ko'chmanchilar chegarasida qad ko'tarilgan. Vohada shaharlarning joylashishini kuzatish asosida ularni quyidagi iqtisodiy regionlarga ajratish mumkin. Arxaik davrda:

1.Oqchadaryo irmog'i atrofini qamrab olgan iqtisodiy region (Dingilja qishlog'i, Bozor qal'a).

2. Toshsaqa iqtisodiy region: Xumbuztepa.

3.Hazorasp magistral kanali o'rta qismi (Xazorasp)

4.Xeykanik magistral kanali etagi iqtisodiy region (Ichanqal'a)

5.Dovdon irmog'i o'rta qismi iqtisodiy region.(Ko'zaliqir, Qal'aliqir, Ko'nauvaz)

6.Tunidaryo havzasi iqtisodiy region (Qang'qaqal'a 1, Butentou 1,2)

7.Darg'on iqtisodiy region (Qushqal'a,Odoytepa).

Shunday qilib, ushbu paragrafni quyidagi xulosalar bilan yakunlash mumkin.

Miloddan avvalgi VI asr ikkinchi yarmi oxiriga kelganda Xorazm vohasi va unga ulangan Sariqamishbo'yi havzasida uy-joylarning qurilishida tub o'zgarishlar yuz berdi.

Ajdodlarimiz geografik jihatidan qulay bo'lgan joylarni tanlab, rejalashtirilishning turli uslublari asosida qurganlar. Aniq geometrik echimga ega bo'lgan shaxarlarni bunyod qilgan Xorasmiylarda loy me'morchiligi bilimi to'g'risida biron-bir zahiraga ega bo'lmagan holda qanday qilib shaharlarni qurganligi aql bovar qilmaydi.

Shaharlar qurilishi jarayonini tahlil vaqtida siyosiy tarixga e'tibor berish lozimdir:

Ma'lumki, tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, miloddan avvalgi III-II ming yilliklarda shaxarsozlik madaniyatining dastlabki elementlarini turmush tarziga olib kirgan aholining miloddan avvalgi VII asrlarda tom ma'noda shaharlarni barpo qilgan Margushlar yoki Buxtariylar ta'siri asosida ajdodlarimiz loy

me'morchiligi bilimini o'zlashtirib olgandir. Yoki, avvaldan loy me'morchiligi ustalari bo'lgan margushlar yoki Boxtoriylarning bir guruhi Xorazm vohasi tomon migratsiyasi bo'lgandir. Shu tariqa Xorazm qadimgi sharq shaxarsozlik madaniyati qaror topgan yangi tamaddun shakllangan.

Xorazm ekspeditsiyasi xodimi E.E.Nerazik Xorazm shaxarlari o'rnini uchta zonaga ajratgan edi, ya'ni 1-Markaziy Amudaryo sohillari.

2.Amudaryo quyi oqimi

3.Shimoli-g'arbiy va g'arbiy xududlar tadqiqotchining Xorazm shaxarlari o'rnini taklif qilgan xulosasi arxaika davrini to'la aks ettirmaydi. Olimaning xulosasini antik va ilk o'rta asrlarda kechgan jarayonga bog'lash mumkin. Negaki, Amudaryoning o'ng va so'l sohili sarhadlari ajdodlarimiz tomonida to'la o'zlashtirilmaganligini nazarga olish kerak bo'ladi.

Arxaik davrda shaharlarning qurilishida Kaltaminor, Charmanyob, Amirobod, Polvonyob (Xeykanik), Hazorasp hamda Amudaryoning Dovdon irmog'i va undan ajralib chiqqan shahobchasi Tunidaryo (to'xtab qolgan suv) faoliyatlari muhim o'rin egallaganlar. Yana bir fikr-mulohazani bildirishni lozim deb topdik, ya'ni Arxaika davrida qad ko'tarilgan qal'alar ahamoniylar hukmronligi davrida amalga oshirilgan.

Miloddan avvalgi IV asrdan boshlab Xorazm mustaqil davlat sifatida mavjud bo'lib, o'zining shaharlarni qurish siyosatini Amudaryoning o'ng va so'l sohilida tez sur'atlar bilan amalga oshirishni boshlab yuborgan.

Shaharlarning tez sur'atda madaniy-xo'jalik markazlarda amalga oshirilishini yoritish alohida tadqiqotni taqozo etadi.

Endi yozma manbalar va arxeologik tadqiqotlar natijalarini qiyosiy tahlil qilish asosida arxaika davrida Xorazmda kechgan tarixiy jarayonni tahlil qilamiz.

2.3.Yozma manbalar va arxeologik tadqiqotlar natijalarining qiyosiy tahlili

Vatanimiz xalqlarining ilk yozma manba bo'lgan Avesto kitobi mazmunini qamrab olgan tarixiy ma'lumotlarni arxeologik tadqiqotlar natijasida olingan ashyolarni qiyosiy taxlil qilish bilan vohaning arxaika davrida ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy rivojlanish jarayonini yoritish imkonini beradi. Ma'lumki, yozuv vujudga kelgunga qadar jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy mazmunini urug' tashkil qilgan. So'nggi tosh davriga kelganda jamiyatning yacheykasi bo'lgan urug' jamoasi vujudga kelgan bo'lib, u o'z navbatida urug'chilik munosabatlarini vujudga kelishiga olib kelgan. Aholining joylashishi qarindosh-qondoshlik aloqalari bilan belgilangan. Tarixiy taraqqiyotning rivojlanishi bilan ijtimoiy- iqtisodiy munosabatlarga ta'sir etgan. Zardusht Marg'iyona, Baqtriya va Xorazm mintaqalarida kechgan jarayonlarni o'z ko'zi bilan tanishganidan keyin uni o'z kitobiga qayd qilgan. Zardush zamonasigacha Jamiyat bag'rida quyidagi ijtimoiy –iqtisodiy va etno madaniy munosabatlar jarayoni kechgan.

Miloddan avvalgi IX-VIII asrlar O'rta Osiyo tarixida ilk temir davriga o'tish bo'ldi. Temir davri tarixini o'rganishda yozma manbalarining ma'lumotlari kamlik qiladi. O'rta Osiyo xususan Xorazm mintaqasiga taalluqli yozma manba Avesto kitobi bo'lib hisoblanadi. Shu bilan birga yunon tarixchilari Gekatey Miletskiy Gerodot asarlaridagi ma'lumotlarni Xorazmning so'nggi arxaika davri tarixini yoritishda qo'llanilishi mumkin. Ma'lumki, "Avesto" Zardushtiylikning muqaddas kitobi bo'lib, 21 kitobdan iborat bo'lgan, ya'ni Yasna, Visparat, Yasht, Videvdat. Yasna kitobi 72 bobdan iborat bo'lib, shulardan 17 tasi "Gotala" Zardushtning "Muqaddas madhiyalari" va diniy nasihatlaridan iborat. Visparat 21 bobdan tashkil topgan. 21 bobdan Yasht kitobi ham mavjud bo'lgan. Yasht kitobi M.Ishoqov tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilingan. Zardusht zamonasigacha Marg'iyona, Baqtriya, Janubiy va Markaziy So'g'da to'rt tomoni devor bilan o'rab olingan aholi markazlari bor edi⁹⁵.

⁹⁵ Массон В.М. Протогородская цивилизация юга Средней Азии.СА, № 3, 1967. Он же. Новая цивилизация древневосточного типа на юге Средней Азии (Памятники культуры.Новые открытия М

Shulardan Janubiy Turkmanistonda Nomozgohtepa, Oltintepa Shimoliy Baktriyada Jarqo'ton. Zardusht yuqorida qayd qilingan shaharlar misolida "Vara" larni tklif qilgan. Bosh xudo Axuramazda qurilish ishlari bilan shug'ullangan Yimaga to'rt tomoni devor bilan o'ralgan aholi markazini bino qilishni buyurdi. "Yima to'rt tomoni bir ot chopishiga teng uzoqlikda qilib, u erga ho'kiz odam, it va qushlarning urug'ini hamda yonib turgan olovni ko'chirdi. To'rt tomoni ot chopishi uzunlikda bo'lgan Varani odamlar yashaydigan joy qildi, har tomoni ot chopishi uzunligida Varani qo'rg'on qildi. Yima u erga bir xatr (1,5 km) bo'lgan uzoqlikdagi joydan suv olib keldi. O'sha erda u hamma tomondan berk turar joylar, uy, gumbaz, hovli qurdi. Imoratning keng qismida to'qqizta chiqar joy qildi, bularning oltitasi o'rtacha, uchitasi tor edi. U yo'lak, hamda xamda yorug' tushadigan darcha ochdi⁹⁶.

Zardushtning Varasining tavsiri Oltintepa, Jarqo'ton, Qiziltepa, Samarakanda, Uzunqir, Sangirtepa kabi ilk shaharlarning konstruksiyasida o'z isbotini topgan.

Xorazmlik muhandislar Zardusht Varasidan namuna olib to'rt tomoni devor bilan o'rab olingan qal'alarni barpo qilishni boshlaganlar. Ko'zaliqir, Qal'aliqir, Ichanqal'a, Xazorasp Avestoning "Vara" sini aynan takrorlaydilar⁹⁷.

Miloddan avvalgi VII-VI asrlada arxaika jamiyatining manzarasi va uning Avestoda tasvirlanishi.

Tarixiy ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki jamiyatning ijtimoiy manzarasini tashkil qilganlarning tabaqalanishi hukm surgan. Madaniy-xo'jalik markazlarni bir nechtasini birlashtirgan siyosiy birlashma mavjud bo'lgan. Boshqarish tizimi borasida chuqur o'zgarishlar sodir bo'lgan. Mazkur jarayon Xorazmda miloddan avvalgi VI asrning ikkinchi yarmi oxirida yuz bergan edi.

Shu bilan birga yunon tarixchisi Gekatey Miletskiyning "Er kurrasining tasviri" asarida vohamizning "Xorasmiya" shaharini qayd qilgan⁹⁸. Gerodotda

«Наука», 1976. Аскарлов А, Б.Абдуллаев Джаркутан.Т.1983. Аскарлов А, Шарипов Т. Ранняя городская культура эпохи бронзы Средней Азии-Самарканд, 1983.

⁹⁶ Авесто.Вандидод. II. 33.38.

⁹⁷ Собиров К. Хоразмнинг қишлоқ ва шаҳарлари мудофаа иншоотлари. Т "Фан", 2009. 6.116.

esa Xorasmiylar Ahamoniylarga qarashli viloyatlarning XVI qilib belgilagan. Xorazm Parfiya, So'g'diyona va Oriylar bilan birga 300 talant miqdorida boj to'laganlar⁹⁹. S.P.Tolstov rahbarligidagi Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi xodimlari tomonidan vohaning mil.avv-gi VI asr ikkinchi yarmi-V asrlarda aholi tomonidan barpo qilingan qal'alarda olib borilgan arxeologik izlanishlar natijalari Avesto, ahamon manbalari ma'lumotlarini tasdiqlaydi. Afsuski, Ko'zaliqir, Qal'aliqir, Xazorasp, Ichanqal'a yozma manbalarda uchramaydi. Yunon adiblari tomonidan qoldirilgan yozma manbalarda Xorasmiylar joylashgan xudud masalasiga e'tiborni qaratganliklarini ta'kidlash lozim.

Shu tariqa, yuqorida qayd qilingan ma'lumotlar mazmun va mohiyatini nazarga olib quyidagi yakuniy xulosaga kelish mumkin.

Yozma manbalardagi ma'lumotlar aholining turmush tarzi, mashg'uloti, moddiy va ma'naviy madaniyatini o'rganishda o'ziga xos xususiyatga ega. Shu narsani qayd qilish kerakki, arxaika davrida kechgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy –harbiy jarayonlar mohiyatini echishda kamlik qiladi. Shuning uchun ham yozma manbalarni moddiy ashyolar bilan birgalikda taxlil qilinsa ma'lum ma'noda jamiyatni qamrab olgan jarayon to'g'risida etarli darajada ma'lumotga ega bo'lish imkoniyati mavjud. Bu o'rinda Avesto, ahamon va yunon adiblari asarlaridagi ma'lumotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur yozma manbalarda voha shaharlari to'g'risida ma'lumot berilmasa ham, arxaika davri tarixini ma'lum darajada ko'z oldimizga keltirish mumkin bo'ladi. Endi arxaika davrida qad ko'tarilgan qishloq va shaharlarning joylashishi va tipologik xususiyatlarini qarab chiqamiz.

⁹⁸ Сулайманова Ф. Шарқ ва Ғарб. Т-1997,6-61. Пьянков И.В. Хорасмии Гекатея Милетского ВДИ № 2. М “Наука”, 1972. с-7.

⁹⁹ Сулайманова Ф. Кўр.асар. 6-56.

III BOB. Qadimgi Xorazmda shaharsozlik madaniyati va ilk davlatchilik masalalari.

3.1.Arxaika davri qishloq va shaharlarining joylashish va tipologik xususiyatlari.

Arxeologik tadqiqotlar natijalari asosida aholi tomonidan barpo qilingan qishloq tipidagi markazlar va o'rta, katta xajmli shaharlarning joylashish xususiyatlari va tipologiyasini tahlil qilish mumkin.

Aholi markazlarining vujudga kelishi va uning keyingi tarixiy davrlarda rivojlanishi jarayonida geografik holat muhim o'rin egallaydi. Albatta geografik o'rinning doimiyligi suv bilan ta'minotiga ega. Suv tanqisligi mavjud bo'lgan taqdirda aholi manzilini butunlay tashlab ketishni taqozo etadi. Masalan neolit davrida vujudga kelgan suv havzalari Xorazmda Amudaryo dinamikasi bilan bog'lanadi. Miloddan avvalgi IV-III ming yilliklarda Yonboshqal'a tepaligi atroflaridagi "kechagi" suv havzalari faoliyati tugaydi va yangilari paydo bo'ladi. Bu jarayonni O'rta Osiyoning boshqa mintaqalarida ham kuzatish mumkin.

Qurilish ashyosi. Qishloq va shaharlarning qurilishida paxsa va to'g'riburchakni va kvadrat xom g'ishtlar ishlatilgan. Ko'zaliqir shahari qurilishida avvalo paxsa, to'g'riburchakli g'isht ishlatilgan (52x26x8, 52x28-19 sm).

Mil.avv. V asrdan boshlab, kvadrat shakldagi xom g'ishtlar ishlatilishi boshlangan. (45x45x14,42x42x12, 40x40x10). Shaharlar me'morchiligida kvadrat g'ishtga o'tish Shumerdan boshlangan¹⁰⁰. Assuriya shaharlari qurilishida 32x38 hajmidagi xom g'ishtlar ishlatilgan¹⁰¹.Eron shaharlari Pasargad, Persepol, Suza qurilishida 32x35 hajmidagi g'ishtlar ishlatilgan¹⁰². Suza shaxri yaqinidagi Ahamoniylar davriga mansub qishloq manzili qurilishida 30x30 sm g'isht qo'llanilgan¹⁰³. Baqtr shahari devori qurilishida 30x37 sm kvadrat g'isht

¹⁰⁰ Пиотровский Б.Б., Флитнер Н.Д. История техники древнего Двуречья.//Очерки по истории техники древнего Востока // М-Л 1940 с 54

¹⁰¹ Шуази О. История архитектуры. Ч-1 М. 1935.с 80.

¹⁰² Всеобщая история архитектуры.Т-1 М. 1944 с 141.

¹⁰³ Ghirshman. Village Perse-Achemenide Paris.1954 с 13.

ishlatilgan¹⁰⁴. Murg'ob vohasidagi yodgorliklar me'morchiligida 50-57x27-31 sm hajmidagi g'ishtlar ishlatilgan. Murg'ob vohasidagi Yaztepa yodgorligida 50x57x27-31,55x10x11 hajmdagi g'ishtlar ishlatilib, V.M.Masson fikricha to'g'ri burchakli g'isht Marg'iyona ta'sirida Xorazmda paydo bo'lgan¹⁰⁵.

Xorazm vohasida mil.avv. VI-V asrlarda qishloq va shaharlar me'morchilikda ishlatilgan qurilish ashyolari.

	Yodgorlikning nomi	Ashyo turi	Xom	Tomonlar xajmi	Qalinligi
1.	Ko'zalikir	Loy	Xom g'isht	52x26 47x34	12 10
2	Kalalikir	-//-	-//-	40x40	10
3	Bozorqal'a	-//-	-//-	41-41 40x40	14 10
4	Xiva	-//-	-//-	43x43 40x40	13 9
5	Xazorasp	-//-	-//-	45x45 43x40	14 10
6	Oybug'irqal'a	-//-	-//-	45x45 42x42	14 10
7	Qushqal'a	-//-	-//-	40x40	10
8	Dingilja	-//-	-//-	42x40	12
9	Odoytepa	-//-	-//-	42x40	12

Rejalashtirish. Mi.avv. VI-V asrlarda Xorazm vohasida puxta ishlab chiqilgan rejalashtirish asosida, shaharlarni bunyod etganlar. Xorazm muxandislari uchburchak, to'g'riburchak holda rejalashtirilgan qal'alarni ko'rganlar. Qalaliqir, Ko'zalikir, Oybug'irqal'a, Xiva, Bozorqal'a, Xazorasp, qishloq tipidagi Dingilja, Qushqal'a Odaytepa avval puxta ishlab chiqilgan reja asosida qurilgan, Ko'zalikir va Qal'aliqir balandlikka ko'manchilar bilan

¹⁰⁴ M.Le Barre et D. Schlumberger. Observations sur les rempers de la Delegations Archeologique Francise en Afganistan T-XIX Monuments preis lamiues I Afganistan. Paris, 1964 c 91-92.

¹⁰⁵ B.M.Массон Древнеземледельческая культура Маргианы.М., «Наука», 1959, с. 16,34,53,547.

chegarada qurilgan harbiy chegara vazifasini bajarib, Xorazm vohasini janubiy-g'arbiy tomondan ko'chmanchilar xujumidan ximoya qilgan. Janub tomondan Xazorasp qal'a mudofaa vazifasini bajargan. Arxaik davr shaxarlarining dastlabki davrdagi mudofaa devori paxsadan tiklangan. Xiva shaxrining dastlabki mudofaa devori paxsadan tiklanib, kengligi 2 m yo'lakka ega.

Xorazm shaharlari rejalashtirish tavsifi. (mil.avv.VI-V asrlar)

№	Yodgorlik nomi	Qaysi asrga oid	Umumiy xajmi	Rejalashtirilishi			
				Aylana	To'g'ri bur-chakli	No-to'g'ri bur-chak	To'rt tomoni teng
1	Ko'zalikir	VI asr	40 ga			+	
2	Kalalikir	V asr	70 ga		+		
3	Bozor qal'a	VI asr	33 ga		+		
4	Xiva	V asr	26 ga		+		
5	Xazorasp	V asr	10 ga				+
6	Oybug'irqal'a	V asr	10 ga			+	
7	Qushqal'a	V asr	1,5 ga				+
8	Dingalja	VI-V asr	1,5 ga		+		
9	Odoytepa	VI asr	1,2	+			

Jadval № 3. Mil. avv.VI-V asrlarda O'zbekiston xududidagi qadimgi shaharlarni rejalashtirilishi.

№	Yodgorlik nomi	Qaysi asrga oid	Umumiy xajmi	Aylana uchburchak	To'g'ri burchak	To'rt tomoni	Ark bor	yo'q
1	Xorazm Ko'zalikir	VI	40	+			+	
2	Kalalikir	V	70		+		+	
3	Bozorqal'a	VI	33		+		+	

4	Xiva	V	26		+		+	
5	Xazorasp	V	10				+	
6	Oybug'irqa'la	VI	10	+				-
7	Qushqal'a	VI	1,5				+	-
8	Dingilja	V	0,5		+			-
9	Odoytepa	VI	1,2	+			+	
	Sogd							
1	Marokanda	VIII	219	+			-	
2	Uzunkir	VII	70		+			
3	Erqo'rg'on	VII	34					
4	Sangirtepa	VII	4		+		-	
							-	
1	Baqtriya							
2	Qiziltepa	VI	30		+		-	
3	Bandixon II	VI	12		+			
4	Xaitobod	VI	7	+				
5	Jondavlattepa	VI	7	+			+	
	Talashkan I	VI	0,5	+				
	Farg'ona							
1	Eylatan	VI	200		+		+	
2	Dalvarzin	VII	28		+			
3	Chust	VII	4		+		+	
							-	
	Margiana							
1	Elkendepe	VII	20	+			+	
2	YAzdepa	VII	16	+			+	
3	Erkqal'a	VII	15	+			-	
							n	

Xorazmning arxaik davr shaxarlarining rejalashtirilishi So'g'd, Farg'ona, Baqtriya va Marg'iyona shaxarlari qurilishda qo'llanilgan usulga juda o'xshaydi. Baqtriya xududida Qiziltepa yodgorligi to'g'riburchak shaklida qurilgan edi. Uchburchak va uchburchakka yaqin shaklda Ko'zaliqir, Oybug'irqal'a, Shimoliy Baqtriyada Xaitobodtepa Shimoliy Baqtriyada Farg'ona vodiysidagi Eylatan Turkmanistonda El qal'a kabi qal'alarda namoyon bo'lgan.

O'rta Osiyo xududidagi Oltintepa (Janubiy Turkmaniston), Chust, Dalvarzin (Farg'ona vodiysi), Sopolli, Jarquton (Surxondaryo) yodgorliklarining mudofaa tizimi qurilishida to'g'ri burchakli xom g'ishtlar ishlatilganligi ma'lum.

Xorazm arxaik davr shaxarlarining dastlabki paxsa devor ma'lum shaklga ega bo'lib, to'g'ri yo'nalish asosida qurilgan. Bunday paxsa devorni qo'shni xududlardagi yodgorliklarda xam uchratish mumkin. Afrosiyobning paxsa devori dastlabki davrda "val" shakldaligi ma'lum. Bunda paxsa to'g'ri yo'nalishga ega bo'lib uning ustki qismining ikki chekkasi ma'lum bir chegaraga ega emas¹⁰⁶. Bunday kutarma «val» Baqtriyadagi Qiziltepada ham ko'zga tashlanadi¹⁰⁷. Oddiy va sodda xoldagi "val" shakldagi devor Farg'ona vodiysidagi Sho'rabashat yodgorligida o'rganilgan¹⁰⁸.

Xorazm arxaik davr shaxarlaridan biri Kuzalikir rejalashtirishi Margiyona, Sugd, Baqtriya shaxarlari rejalashtirilishidan keskin farq qilgan. Darxaqiqat, bu yodgorlik baland kir ustiga uchburchakka yaqin shaklda qurilgan.

Xorazm arxaika qishloq va shaharlarining tipologiyasi.

Miloddan avvalgi III-V asrlarda mavjud bo'lgan Xorazm shaharlarning me'moriy topografik tuzilishi va mudofaa tizimiga qarab uch xil tipga ajratish mumkin:

1. Katta xajmdagi shaharlar 70-30 ga. (Ko'zalikir, Qal'aliqir, Bozorqal'a)

¹⁰⁶ Турабеков М. Оборонительные сооружения древних поселений и городов Согда. Нукус. 1990 с 76.

¹⁰⁷ Хакимов З, Сагдуллаев А. Кўр. асар. б. 565.

¹⁰⁸ Заднепровский Ю.А. Указ. раб, 1962, 26 расм, табл XXVVa.

2.O'rtacha xajmdagi shaharlar 10,8-10 ga (Xazorasp, Oybug'ir qal'a)

3.Qishloq shaklidagi kichik manzillar 1,5-0,5 ga (Qushqal'a, Dingilja, Odoytepa, Qang'qqal'a-1,2)

Aholi sonining oshib borishi, yangi erlarning o'zlashtirilishi natijasida yangi sug'orma dehqonchilik vohalari vujudga keldi. Jamiyatda vujudga kelgan ijtimoiy kuchlarning manfaatlari bir-biriga zid kelib qoldi va kam sonli kishilarning ma'naviy extiyoji moddiy extiyojdan ustunligi paydo bo'ldi. Qabila sardorining iqtisodiy va huquqiy mavqega ega bo'lishi natijasida boylikni o'z manfaatiga jalb qilish to'yg'usi xukmron bo'ldi.

I guruh katta xajmdagi shaxarlar

II-guruh. O'rtacha kattalikdagi shaharlar. Bu shakldagi shaharlarni ikki guruxga ajratish mumkin.

I.Katta xajmdagi shaharlar, ular ham ikki xil:

A)katta xajmda, to'rt tomoni ikki qatorli devor, to'g'ri burchakli va "qaldirg'och dumli" burj, yulak, darvoza va burchakda labirintli arkka ega (Bozorqal'a)

V)to'rt tomoni teng ikki qatorli yo'lakli devor, to'g'ri burchakli burj, ammo darvoza oldida labirint mavjud emas (Xazorasp)

II –gurux. Tarxi uchburchak holda devor, yo'lak darvoza, darvoza oldida labirint mavjud, arkga ega.

III-gurux.Qishloq manzillari:

To'g'riburchakli tarxi, devor, yo'lak mavjud, ark, burj, shinak mavjud emas (Dingilja), to'rt tomoni devor, yo'lak, aylana shaklda burj, darvoza,nayza uchli shinaklar mavjud, ark, ammo murakkab labirint yo'q (Qushqal'a, Odoytepa)

Mil.avv.VI-V asrlar Xorazm shaharlari xajmidan kelib chiqib quyidagicha joylashtirish mumkin.

SHAHAR TARTIBI XAJMI VA JOYI.

1.Darajali shaharlar: 400-200 ga

2.Darajali shahar: 200-80 ga

Xorazm vohasida 1-2 darajali shaharlar qurilishi amalga oshirilmagan.

3.Darajali shaharlar:	70-20 ga Kalalikir Ko'zalikir Bozorkala Xiva
4.Darajali shaharlar:	5-10 ga Oybug'irka'l'a Xazorasp
5.Qishloq tipdagi manzillar:	0,5-5 ga Ko'shkal'a Dingilja Odoytepa

Xorazm vohasida mil.avv.VI-V asrlarda III-IV-V-VI darajali shaharlar va qishloq tipdagi manzillar mavjud edi. Arxeologik tadqiqotlar natijasida olingan ma'lumotlarga qarab mil.avv.VI-V asr shaharlarining ichki qismida aholining zichligi va ijtimoiy binolarning joylashishi haqida qisqa bo'lsa xam fikr qilish mumkin. Mesopotamiya shaharlarining ichki ko'rinishi va uning aholisi bo'yicha dastlabki ma'lumotni Anri Frankfortdan oldik. Uning ma'lumotlariga qaraganda, Mesopotamiya shaharlarida 1 ga erga 400 kishi to'g'ri keladi¹⁰⁹. Xorazm shaharlari bo'yicha 1 ga erga 200 kishi qilib belgilagan bo'lsak, mil.avv. I ming yillik o'rtalari shaharlarining paleodemografiyasi arxeologik ashyolar asosida xanuzgacha ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan emas. Biz esa quyidagi taklifni ma'qul topdik. Bizningcha, davrida shaharning ichki maydoni aholi tomonidan to'la o'zlashtirilmagan. Agar Ko'zalikir umumiy maydoni 40 ga bo'lgani holda 50% aholi zichligini xisobga olsak 20 ga, 100 kishi 1

¹⁰⁹ Frankfort N. Town planning in Ancient Mesopotamia. Town planning Review 1950, v,21.

gektarga, unda shahar aholisi 4000 kishi, Qal'aliqirda 70 ga, 50%-35 ga, 7500 kishi, Bozorqal'ada 33 ga aholi zichligi 50% 16 ga 1 gecktarga 100 kishi to'g'ri keladi, shunda shaharda aholisi 1600 kishi bo'lgan.

Mil.avv.VI-V asrlarda (Ahamoniylar) imperiyasi mavjud bo'lgan davrda Xorazm vohasida massagetlar siyosiy birlashmaning mavjudligi haqida fors va yunon yozma manbalari xabar beradi. Bular tosh qabrlarga bitilgan yozuvlar, qoyalarga o'yib yozilgan bitiklar va rasmlardir (Persepol yaqinidagi Suza, Ekbatana, Nakshi Rostam, Baxistun)

Arxaiik davrda savdo-sotiqning o'sishi, o'troq va ko'chmanchi qabilalar o'rtasida maxsulot ayrboshlashning yanada faollashishiga olib keldi. Bu holat o'z navbatida qabilalar ichida turli xo'jalik mutaxassisliklarining ishlab chiqarish faoliyatini yanada taraqqiy etshiga, oziq-ovqat zaxirasini va boylikni to'plash, birinchi navbatda sug'orma dehqonchilikni rivojlantirishni hayotiy zaruriyat qilib qo'ydi.

Ko'zalik, Kalalik, Bozorkala katta xajmda qurilgan bo'lib, rejalashtirilishi jihatidan puxta ishlangan. Bunday shaharlarni qurilishi (ayniqsa ko'chmanchilar bilan chegarada) tarixiy va siyosiy vaziyatning keskin ekanligini isbotlaydi. Xorazmliklarda me'morchilik, rejalashtirish, qurilish bilimlarining yuksak darajada taraqqiy etganligini bildiradi. Mil.avv. VII-VI asr o'rtalarigacha (Ahamoniylar tomonidan Xorazmni bosib olish arafasida) bo'lgan tarixiy davrda Xorazm vohalarini xosil qilganlar.

Xorazm vohasida mil.avv.VI-V asrlardagi tarixiy jarayonni tahlil qilishda mavjud bo'lgan asosiy manbalarni uch guruxga bo'lish mumkin, ya'ni arxeologik ashyolar yozma manbalar, yunon tarixchilari asarlari. Mil.avv. VI asr o'rtalarigacha ahamoniylar imperiyasi tashkil topishigacha bo'lgan davrda Xorazm vohasida massagetlar siyosiy birlashmaning mavjudligi haqida fors va yunon yozma manbalari xabar beradi. Bular tosh qabrlarga bitilgan yozuvlar. (Persepol yaqinidagi Suza, Ekbatana, Nakshi Rostam, Baxistun) qoyaloriga o'yib yozilgan bitiklar va rasmlar.

Yunon tarixchilari asarlarida Axamon manbalarida qayd etilishicha, hozirgi Markaziy Osiyoliklarning qadimgi ajdodlari sak-massagetlar bo'lib, Eroniy tillarning sharqiy shaxobchasi va qisman turkiylashgan sak-skif tillarida gapirishganlar. Bu davrda Turon zaminida Xorazm boshchiligida massaget qabilalarining harbiy - siyosiy konfederatsiyasi (ittifoq yoki birikma) vujudga kelgan bo'lib, Sirdaryo xavzasi, Amudaryoning sharqiy o'rta oqimi Zarafshonning quyi oqimi, Sirdaryoning o'rta oqimidan Tyan-shangacha bo'lgan xududlar kirganligi to'g'risida muloxazalar mavjud.

O'rta Osiyo xududidagi xalqlar to'g'risidagi qimmatli ma'lumotlar yunon va rim tarixchilari asarlarida mavjud. Mil.avv.V asrda yashagan Gerodot O'rta Osiyoning yirik daryosi Amudaryo va uning atrofiga yashagan qabilalar to'g'risida qimmatli ma'lumotlarni beradi. U o'zining "Tarix" asarida Amudaryoga "Akes" deb nom berib, Xorazmliklarni bu daryo suvidan keng foydalanganliklari to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlarni bergan. "Daryo" (Araks) qirq tarmoq hosil qilib quyiladi, uning bir tarmog'idan tashqari, qolgan hamma tarmoqlari botqoqliklar va xalqoblar ichida g'oyib bo'ladi: bu erda yashovchi odamlarning ovqati baliq, o'zlari esa tulen terisini yopinib yurganlar, deb aytadilar. Araksning yolg'iz bir tarmog'i ochiq erlardan o'tadi va Kaspiy dengizga quyiladi. Xullas Kaspiy dengiz g'arb va Kavkaz bilan chegaralanadi, sharq tomondan esa unga bepoyon tekislik kelib yondashadi. Bu bepoyon tekislikning bir qismini massagetlar ishg'ol qilgan¹¹⁰. Amudaryo to'g'risida Strabon shunday yozadi: "Ko'p joylarda tarmoqlarga ajralib ketadigan Araks daryosi boshqa daryolarga qaraganda bu mamlakatga (Xorazmga ko'proq suv berdi: u o'zining butun tarmoqlari bilan shimolda dengizga borib quyiladi Orol dengizi bo'lsa kerak) va faqat uning bitta irmog'i Girkan qo'ltig'iga borib quyiladi. Massagetlar va saklar sostaviga atasiylar va xorasmiylar xam kiradi. Araxasgar, massagetlar, baqtriyaliklarga yaqin erda,ulardan g'arbroqda, Oks daryosi bo'ylarida yashaydilar. V.Pyankov yunon tarixchilari va asarlaridagi

¹¹⁰ Геродот. "Тарих" IX,1.

ma'lumotlar asosida xorasmiylarni Turkman-Xorasan tog'ining sharqiy qismi va Tajan-Gerirud (Murg'ob) vodiysida joylashganligi haqida xulosaga kelgan¹¹¹.

Mil.avv.VI-V asrlarda Xorazm vohasi aholisining o'troq dehqonchilik madaniyatining qaror topishi va sug'orish inshootlari qurilishining olib borilishi davlatchilikning rivojlanishini tezlashtirdi. Xajmi katta sug'orish inshootlarining qurilishi va undan foydalanish etarli bo'lmasdan, mehnat qurollarini takomillashtirish, ya'ni dehqonchilikda mehnat uumdorligini oshiradigan, uzoq muddatda foydalanadigan qattiq moddadan qilingan qurollar kerak edi.

Shu tariqa, yuqorida keltirilgan mulohazalar quyidagi xulosani qilish mumkin.

Aholi maskanlarini barpo qilishda asosiy e'tiborni geografik o'ringa qaratgan. U hamma tomondan talabga javob berishi lozim bo'ladi. Maskanlarning joylashishiga nazar solsak balandlikka, tekislikka, tog' tizmalari asosiy o'rin bo'lgan.

1)balandlik qiriga

2)tog' tizmasiga

3)sug'orish inshooti sohiliga tutashgan tekislikka va adog'iga.

Arxaika davri aholi maskanlari devori tuzilishi: paxsa, to'g'riburchak g'ishtli devor,burj, shinak, kamon o'qi, adashtirma inshoot. Shaxarlarning hajm tuzilishiga qarab ularni tiplarga ajratish imkoniyati hosil bo'ladi.

¹¹¹ Пьянков И.В. Хорасмии Гекатея Милетского М. Наука.ВДИ № 2 1972,с. 3-20.

3.2. Qishloq va shaxarlarning mudofaa elementlari tahlili.

Aholi tomonidan qad ko'tarilgan hajmi kichik manzillar va shaharlar jamiyat taraqqiyoti darajasiga mos bo'lgan mudofaa tizimiga ega bo'lganlar. Darhaqiqat mudofaa tizimiga ega bo'lgan shaxarlar tashqi dunyodan bo'ladiga xarbiy xavfdan cho'chish natijasidir. Xorazmda mudofaa tizimiga ega bo'lgan qishloq tipidagi aholi manzillari va shaharlar. Miloddan avvalgi VI asrning ikkinchi yarmi oxiridan ziroatkor aholi tomonidan qurilishi boshlangan. Xorazmning arxaika davri mudofaa tizimiga oid ma'lumotlar G'.Xo'janiyazov, Q.Sobirov tadqiqotlarida o'z aksini topgan edi. Qishloq va shaharlarning mudofaa tizimi elementlari quyidagilardan iborat bo'lgan.

1.Devor mudofaa tizimining ilk elementi hisoblanadi. Devorning tuzilishi avvalo paxsadan, keyin to'g'riburchakli g'isht devor tiklanadi. Bu qurilish uslubi Ko'zaliqirda kuzatiladi¹¹². Arxaik davrda paxsa devor balandligi 0,85-1 m bo'lgan. U ichki va tashqi qismlarga yo'lak orqali bir-biridan ajralib, mudofaa vazifasini bajargan.

2.Yo'lak. Devor bilan bir tarixiy davrda hosil qilinadi. Uning kengligi quyidagi holatda bo'lgan.

Ko'zaliqirda-2m, Qal'aliqirda 2,5 m, Xazoraspda-2 m, Ichankal'a-2 m, Kunaqal'a-2 m, Odoytepa-2 m.

Burj. Paxsa devorning tashqi qismi ma'lum masofada burjlar joylashtirilgan. Shu tariqa tashqi devor ma'lum qismida mudofaa maydoni hosil bo'lgan. Arxaika davri burjlari paxsa devor bilan bir tarixiy davrda qurilgan. Ular o'rtasidagi masofa quyidagicha Ko'zaliqir burjlari o'rtasidagi masofa 56 m. Xazoraspda 55 m. Ichanqal'ada 30 m. Burjlarning yon tomonga o'sib chiqishi 1,5-8 m. Ko'zaliqirda yarim aylana, Xiva, Xazorasp, Qushqal'a, Odoytepada to'g'riburchakli burjlar mudofaa tizimida qo'llanilgan. Burjlarning joylashish xususiyatlari quyidagicha:

1-devorlar bo'ylab, 2-darvoza ikki tomonida joylashishi.

¹¹² Хўжаниязов Ғ. Қадимги Хоразм мудофаа иншоотлари. Т."Ўзбекистон" 2007. Собиров Қ. Хоразмнинг қишлоқ ва шаҳарлари мудофаа иншоотлари. Т "Фан",2009.

3-devor burchaklarida joylashishi, ayrim hollarda “Qaldirg’och dumi” da qo’llanilishi.

Burjlarning shahar mudofaasidagi o’rni:

A)Joylashgan devor xududi himoyasini mustahkamlaydi; b)devordan oldin mudofaa ishlarini olib borishi; v) burjlar o’rtasidagi mudofaasini tashkil qilishi

G)Burjlarda bir necha o’qchilarning joylashishi

D)mudofaada ishlatiladigan zahira qurollarining qo’yilishi.

Ark- Shahar mudofaa elementlaridan biri, arklar burchakka. Devor o’rta qismiga yoki kirish qismi yaqinida bino qilingan. Arkli qal’alar, Ko’zaliqir, Kaynaliqir, Bozorqal’a, Ichanqal’a.

Xazorasp. Arksiz qal’alar. Dingilja, Butentou-1,2, Qushqal’a, Odoytepa.

Ark aholi markazi ichki tuzilishini ikki qismga ajratadi, ya’ni alohida devor bilan o’ralgan qismi va ichki qismi (SHahriston)

Arkning kelib chiqishi bronza davri bilan bog’liq (Oltintepa, Jarqo’ton). Arkning maydoni quyidagi Ko’zaliqir 0,5 ga, Xazorasp 1,6 ga, Ichanqal’a 1,7 ga, Bozorqal’a 1 ga. Turonning boshqa mintaqalari shaharlarida ark xajmi Xaytabod tepa 1,5 ga, (Baktriya), Janubiy So’g’dda, Erqo’rg’on 0,8 ga Markaziy So’g’dda Marakanda 19 ga Arklar to’g’riburchak kvadrat rejaga ega.

Darvoza –devor, yo’lak, burj bilan bir vaqtda tashkil etiladi. Darvozalarning joylashish xususiyatiga qarab quyidagi tiplarga ajratish mumkin.

1)yagona darvoza, devor o’rtasida, yoki burchak yaqinida

2)devor o’rtasida ko’psonli darvoza

Ko’zaliqir, Xazorasp, Qushqal’a, Odoytepa, Bozorqal’alarda yagona darvoza. Qal’aliqir, Ichanqal’alarda 4 ta darvoza. Darvozalarning himoyalaniish xususiyatiga qarab quyidagi tiplarga ajratiladi.

1)darvoza ikki yon tomoni burjlar bilan ximoyalaniishi.

2)darvoza oldi qo’shimcha inshoot bilan himoyalaniishi (bir tirsali labirint)

3)Darvoza oldi qo’shimcha inshoot yo’qligi.

Darvozalar savdo yo'liga qarab qurilishi bilan birga, mudofaada eng o'jiz joy hisoblanadi. Ularning kengligi 5-8 m. Darvozalar yog'ochdan qilinganligi uchun saqlanib qolinmagan.

Shinak- devor mudofaasida asosiy element xisoblanadi. Devorning ma'lum masofasida va burjlarda shinaklar hosil qilinadi. Ko'zaliqir paxsa devoridagi shinak to'g'riburchakli, Xazorasp Pilyastridagi shinak esa nayza o'qli shaklga ega.

Burj devor shinaklaridan o'qchilar tomonidan dushmanga qarshi yuborilgan o'qlar xujum jarayonini hosil qiladi.

Xandak- qishloq va shahar mudofaa tizimidagi ilk mudofaa chizig'i hisoblanadi. U suv bilan to'ldirib quyiladi. Xandakning vazifasi:

- Dushmanni ma'lum vaqtgacha to'xtatish;
- devorga shikast etkazadigan uskunalarni yaqinlashtirmaslik
- shaxar ximoyachilarining mudofaa tayyorlanishiga imkon berishi¹¹³.

Albatta xandak yuqorida qayd etilgan vazifalarni bajarishi suv ta'minotiga bog'liq bo'lgan. Ichanqal'a, Bozorqal'a Xandakka ega bo'lgan bo'lsa, Hazoraspni to'rt tomoni suv bilan o'ralgan. Ko'zaliqir, Qal'aliqir balandlikka joylashganligi sababli xandak bilan o'rab olinmagan. Aslida tekislikka joylashgan qal'alar xandak bilan o'rab olingan.

Shunday qilib, ushbu paragraf mazmunida qayd etilgan ma'lumotlar quyidagi xulosaga kelish imkonini beradi. Miloddan avvalgi VI asrning ikkinchi yarmi oxiridan boshlab Xorazmda tarixiy-siyosiy vaziyat tubdan o'zgaradi.

Dastlab, mudofaa tizimi qal'alar balandlikka, tog' tizmalariga ziroatkor aholi tomonidan qurilish tadbirlari olib borilgan. Albatta bu tadbirlarning olib borilishida jon bor. Tashqi tomondan kelayotgan xarbiy kuchlar xarakatini kuzatish yuqorida qayd etilgan geografik punktlar muhim o'rin tutgan. Dastlab Dovdon irmog'i o'rta qismi tizimiga kirgan tabiiy balandlikka Ko'zaliqir bino qilingan. Keyin esa Ko'zaliqirlik muhandislar Butentou, Qal'aliqir balandligiga,

¹¹³ Собиров Қ. Хоразмнинг қишлоқ ва шаҳарлари мудофаа иншоотлари. Т “Фан”, 2009. 6.138-151.

Amudaryoning o'rta qismidagi Qushqal'a, Odoytepa, Toshsaqo zonasida Xumbuztepa, Xazorasp qal'alari qad ko'tarilgan.

Miloddan avvalgi VI-V asrlarda yirik sug'orish inshootlari qurilgan (Charmanyob, Kaltaminor Xeykanik, Xazorasp va h.k.) Sug'orish inshootlari qurilishi munosabati bilan ular sohili va adog'iga shaharlar qurilishi olib borilgan, bu esa o'z navbatida ma'lum geografik xududlarni qamrab olgan tarixiy-madaniy markazlarning shakllinishiga olib kelgan. Qishloq va shaxarlarning mudofaa elementlari shakli turlicha bo'lsa ham, ularning vazifasida umumiylik seziladi, chunki ularning vazifasi aholi xavfsizligini ta'minlash bo'lgan.

Endi arxaika davri shaharlari misolida Xorazmda davlatchilik masalalarini yoritishga e'tiborni qaratamiz.

3.3. Shaharlar va ilk davlatchilik masalalari.

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, davlatchilikning ilk formasi shahar bo'lgan. Shahar davlatning vujudga kelishida tadqiqotchilarning bir qator mulohazlari mavjudligi ma'lum. Aholining ilk bor markazlashgan geografik xududi "Shaharmonand" ya'ni "Protogorod" atamasi bilan nomlangan. A.Asqarov, T.Shirinovlar ilk shaharlarning vujudga kelishiga omil bo'lgan asoslarni ta'kidlab ko'rsatadilar:

Yodgorlikning ilk shaharlar guruhiga kiritishga omil bo'lgan quyidagi asoslarni ta'kidlab ko'rsatadilar:

1.Jamoa boshliqlari yoki hukmdorlari istiqomat qiladigan saroylarning bo'lishi.

2.O'lkada diniy markazi bo'lgan mahobatli ibodatxonalarning bo'lishi.

3.Qal'a devorlari va baland devor bilan o'ralgan arkning bo'lishi, ark xududida saroy ahli yashaydigan uylarning joylashishi.

4.Keng hududda shahar aholisi yashaydigan imoratlarning bo'lishi, umumjamoa uchun xizmat qiladigan inshootlarning joylashishi, o'sha xududda ishlab chiqaradigan kuchlarning xunarmandchilik ustaxonalarida va dastgohlarning joylashishi.

5.Yuqori darajada rivojlangan hunarmandchilik (kulolchilik, chilangarlik, to'qimachilik, kulolchilik, teriga ishlov beradigan ko'nychilar mahallalarining bo'lishi).

6.Muhr va qimmatbaho buyumlardan iborat boy qabrlarning mavjudligi.

7.Jamoa ierarxiasini ko'rsatuvchi yashash uylarining bir-biridan farq qilishi.

8.Savdoni belgilovchi boshqa madaniyatlarga xos bo'lgan ashyolarning topilishi.

9.Gliptika, epigrafika va ibtidoiy yozuv formasining bo'lishi¹¹⁴.

¹¹⁴ Асқаров А.А., Ширинов Т.Ш. Ранняя городская культура эпохи бронзы Средней Азии. Самарканд, 1993.с.29.

A.Asqarov va T.Shirinov tomonidan taklif qilingan ilk shaharlarning arxeologik belgilari Janubiy Baqtriya jamiyatini tasvirlaydi, biroq yuqoridagi belgilar bronza davri Turon zaminining boshqa hududlariga, ayniqsa, Xorazm vohasi jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy munosabatlar rivojlanishida kuzatilmaydi. Faqat 5-variantdagi kulolchilik bilimini joylashtirish mumkin. Xorazm vohasida so'nggi bronza va bundan keyingi tarixiy davrlarda (to mil. avv.VI asrgacha) aholi erto'la, yarim erto'lalarda istiqomat qilishib, madaniy xo'jalikni olib borganlar. Ayrim qadimshunoslar "Bronza davrida urbanizatsiya" xarakterini olgan qishloqlarni shakllanayotgan shaharlar, hatto ilk temir davri shaharlarini ham shu guruhga olib kirganlar. B.A.Litvinskiy esa bronza davri qishloqlarining "Protogorod", ya'ni, "shaharlashayotgan qishloqlar" degan fikrni ilgari surgan¹¹⁵. Bizning nazarimizda, E.V.Rtveladze, B.A.Litvinskiyning ilk shaharlarning tuzilishi to'g'risidagi mulohazalarini Sopollitepa ashyolariga bog'lash mumkin, lekin hajmi jihatdan katta jamoat binolari, ibodatxona, ark va mudofaa tuzilish elementlari asosida Jarqo'ton ilk shahar sifatida jamiyatda mavjud bo'lgan¹¹⁶. Shu sababdan A.Asqarov va T.Shirinov tomonidan ilgari surilgan ilk shaharlar bo'yicha ilkmiy fikrlarni qo'llab-quvvatlash ilmiy haqiqatga yaqindir. Tadqiqotchi Sh.Shaydullaev o'z ishlaridan birida shaharlar va davlatlarning vujudga kelishi va rivojlanishi bosqichlarini quyidagi davrlarga bo'lishni taklif qilgan:

Shahar-davlatlar yoki shahar "nom" tipidagi davlatlar. Bu davr qadimgi dehqonchilik madaniyatida, ya'ni mil.avv.II ming yillikni o'z ichiga oladi (Jarqo'ton, Dashli-1).

Shahar-hududiy davlat markazi. Bu davr mil.avv.I ming yillik boshlari. Qiziltepa, Jondavlatepa, Haytobodtepa (Baqtriya), Dalvarzin, Chust, Ashkoltepa (Farg'ona), Ko'ktepa, Podayoqtepa (So'g'd).

¹¹⁵ Литвинский Б.А. Древний среднеазиатский город. Местные традиции и иноземные модели. Древний Восток. Города и торговля (III-I тыс. до н.э.) Ереван, 1973.

¹¹⁶ Ртвеладзе Э.В. Формирование городов Бактрии-Тохаристана. Городская среда и культура Бактрии-Тохаристана и Согда (I в до н.э.-VII в. н.э.)// тез. докладов межд. colloq. 1986.

Shahar-markazlashgan davlatlar, imperiya sifatida. Qadimgi Baqtriya, Xorazm podshohliklarining vujudga kelishi va ularni podshohliklarning ahamoniylar imperiyasi tarkibiga kirishi.

4.Aholining ijtimoiy tabaqalanishini ko'rsatuvchi hashamatli va oddiy uylar, qabrlar, ularda uchraydigan son va sifat ko'rsatkichlari, yodgorliklarning funktsional tiplarga ajralishi.

5.Ilkl davlat markazlari-shaharlarning paydo bo'lishi, shahar atrofida qishloq manzilgohlarining jamlanish jarayoni.

6.Hunarmandchilikning rivojlanishi-hunarmandchilik sohalarining markazlashish jarayoni. Hunarmandchilik mahsulotlari turlarining oshishi, sifat o'zgarishlari.

7.Dehqonchilikning rivojlanishi - mehnat qurollarining takomillashuvi. Sun'iy sug'orish shoxobchalarini va kanllarning paydo bo'lishi, omborxonalarining bo'lishi, xumlar sonining oshishi, ekin turlari sonining oshishi.

8.Chorvachilikning rivojlanishi-uy hayvonlari turlari suyaklari sonining oshishi.

9.Ovchilikning rivojlanishi-yovvoyi hayvonlar turlari suyaklari sonining oshishi.

10.Harbiy ishlarning takomillashuvining belgilovchi harbiy istehkomlarning bo'lishi, mudofaa devorlari, burjlar, qurollarning takomillashuvi.

11.Kishilarni ma'naviy birlashtiruvchi markazlashgan din, monumental ibodatxonalar, oila altarining bo'lishi.

12.Savdo va madaniy aloqalarning rivojlanishi-boshqa xalqlar va elatlarga xos bo'lgan moddiy madaniyat izlari, yo'llarning takomillashuvi.

13.Shaxsiy mulk yoki siyosiy birlashma belgisi-muhrlarning bo'lishi.

14.Jamiyatning tsivilizatsiyaga erishganligi darajasini ko'rsatadigan mahsuli sifatida gliptika, epigrafika va ibtidoiy yozuvning bo'lishi¹¹⁷.

¹¹⁷ Шайдуллаев Ш. Илк давлатларнинг археологик белгилари //Ўзбекистон тарихи. 2002.3-сон.6.5-6 .

Bu belgilarning 4-5-6-7-8-9 – variantlardagi tadqiqotchi mulohazalari Xorazm vohasidagi bronza davri manzillariga bog'liq bo'lishi mumkin, boshqa variantlardagi ma'lumotlarni tasdiqlaydigan ashyolarni keyingi tarixiy taraqqiyotda kuzatish mumkin (mil.avv.VI asr).

Mil.avv. I ming yillik o'rtalaridan Ustrushana,¹¹⁸ Shosh, Iloq¹¹⁹ xududlarini urbanizatsiya jarayoni qamrab olib, yangi tamaddun markazlari paydo bo'ldi. Ilk shaharlar madaniyatining vujudga kelishi uchun muhim shart-sharoitlardan biri xo'jalik ishlab chiqarishning ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatida mehnatning tashkil etilishidir. Jamiyat iqtisodiyotida ishlab chiqarish darajasi va ongli mehnatning tashkil etilishi ijtimoiy sohada sifat jihatidan o'zgarishlarga olib keldi. Manzilgoh aholisining o'sishi, mehnat kontsentratsiyasi xo'jalikda maxsus kasbga ega bo'lgan kishilarnig paydo bo'lishiga manba bo'ldi. Faoliyatning ixtisoslashishi shaharlarni vujudga kelishining shart-sharoitlaridan biridir. Qadimgi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy sohasida hunarmandchilik va savdoning o'sishi harbiy-siyosiy boshqarish uslublarini namoyon qiladi. Bizning fikrimizcha, mil.avv.VII-VI asrlar o'rtalarigacha bo'lgan tarixiy jarayonda Xorazm vohasining shimoli-sharqiy vohaga qo'shni bo'lgan Sariqamish havzasi xududlarida xo'jalik olib borgan qabilalar faoliyatida loy me'morchiligi bilimi vujudga kelmagan. Mil.avv. VI asr o'rtalaridan boshlab, tarixiy taraqqiyot va ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi natijasida Xorazm vohasida xo'jalik olib borgan qabilalar rejalashtirish, muhandislik, me'morchilik, qurilish va harbiy an'at sohasida bilimlarga ega bo'lganlar. Bu bilimlarning erli aholida vujudga kelishiga janub tomondagi o'troq dehqonchilik qabilalari bilan madaniy aloqalar va ko'chmanchi qabilalarning to'xtovsiz hujumlari sabab bo'lishi, shubhasiz. Xorazm vohasidagi tarixiy-siyosiy va harbiy vaziyat takomillashgan

¹¹⁸ Негматов Н.Н. Таджикистан на пути к урбанизации //Культура первобытной эпохи Таджикистана. Душанбе, 1982; Беляева Т.В. К исторической топографии городов Уструшаны //Древняя и средневековая археология Средней Азии. Ташкент, 1990. с 82-93; Грицина А.А. Археологические памятники Сырдаринской области.Ташкент: Фан, 1992. Он же. Древний Заамин //История,археология, нумизматика,этнография.Ташкент, 1994; Грицина А.А., Иваницкий И.Д. Рахимов К. Раскопки на городище Эски Хавас //Археологические исследования в Узбекистане в 2002. 2003 г. Вып 4. Ташкент, 2004; Уструшана, Фергана, Ташкентский оазис// Древнейшие государства Кавказа и Средней Азии. М.: Наука. 1985. с.200-220.

¹¹⁹ Буряков Ю.Ф. Генезис и этапы развития городской культуры Ташкентского оазиса.Ташкент,1982.

mudofaa tizimga ega bo'lgan shaharlarning qurilishini ob'ektiv zarurat qilib qo'ygan. Sak-massaget qabilalarining harbiy jihatdan jipslashishi natijasida harbiy-siyosiy ittifoq vujudga kelgan. "Avesto" da talqin qilingan tarixiy-madaniy markazlar to'g'risidagi ma'lumotlar, etnosiyosiy birlashmaning mavjudligini isbotlaydi¹²⁰

Miloddan avvalgi I ming yillik o'rtalaridan boshlab, Xorazm vohasida tarixiy jarayonning uzluksiz taraqqiyoti natijasida ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi va ularning yangi xududlarga joylashishi davom etgan. Xorazm vohasi aholisi ham temir ashyosini o'zlashtirib, xilma-xil mehnat qurollarini ishlab chiqib, xo'jalikda keng qo'llaganliklari, o'z navbatida, yangi hududlarni o'zlashtirishga, sug'orish inshootlarining qurilishiga zamin bo'ldi. Temirdan yasalgan mehnat qurollarining xo'jalikda keng ishlatilishi natijasida mehnat unumdorligi oshdi, sug'oriladigan dehqonchilik vohalari vujudga keldi. Daryo irmog'i va sug'orish inshootlari sohillari atroflarida mudofaa xarakteriga ega bo'lgan qishloq va shaharlar qurilgan. Hunarmandchilik tarmoqlarining ko'payishi natijasida mehnat unumdorligi oshdi, bu esa oziq-ovqat zaxirasini vujudga keltirdi, bu holatlar esa urug' jamoasi va qabilalarda sardorlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Bu tarixiy-madaniy taraqqiyot davrida temir qurollarining xo'jalikka kirib kelishi jamiyatning barcha sohalarida taraqqiyot rivojlanishini boshlab berdi, ibtidoiy jamoa munosabatlariga uzil-kesil zarba berib, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-etnik rivojlanishini tezlashtirdi. Shu bilan birga, dehqonchilik vohalarida etnik guruhlarining faoliyatiga qarama-qarshi kuchlarning markazlashishiga imkon yaratdi. Jamiyatda sodir bo'lgan tarixiy-siyosiy jarayon o'zaro ziddiyatlarni keltirib chiqarib, bizning nazarimizda, murosasiz kuchlar o'rtasidagi munosabatlar jamiyat mazmunini namoyon qilgan. Xorazm vohasida "Katta Xorazm" siyosiy birlashmaning mavjudligi to'g'risida tadqiqotchilar o'rtasida xilma-xil fikr-mulohazalarning mavjudligi ikki xil yo'nalishlarning paydo bo'lishiga olib keldi. V.Markvart, Kissling, V.Bartold, S.P.Tolstov, I.M.Dyankov, Ya.G'.G'ulomov,

¹²⁰ Авесто. Видевдат-1-2. Душанбе, 1985.

M.G.Vorob'yovalar Katta Xorazm davlati hududining yadrosi Quyi Amudaryo havzasi, uning ta'siri Sharqiy Eron, Shimoliy Afg'oniston va Turkmaniston xududlarini qamrab olganligi to'g'risida xulosaga kelganlar. Ikkinchi yo'nalish vakillari B.Xenning, V.Tarn, I.Greshevich, V.M.Masson, V.I.Pyankov, B.I.Vaynberg, A.Sagdullaev va A.Asqarovlar xorasmiylar avval Tajan, Murg'ob, Xilmend vodiysidan Quyi Amudaryo xududiga ko'chib kelganlar degan fikrni taklif

qilganlar.¹²¹ V.M.Masson tadqiqotlaridan birida, ahamoniylargacha Xorazmda davlatchilikning vujudga kelish masalasi inkor etilgan¹²². V.B. Xenning va I. Gershevichlar Katta Xorazm davlati to'g'risida V. Markvart g'oyasini yangi asoslarda rivojlantirib, ahamoniylar bosqiniga qadar ushbu davlat Gerirud-Tajan daryosi vohasida, Marv va Hirot atroflaridagi xududlarni birlashtirgan deb qayd qilgan edilar¹²³.

Ilk davlatchilik muammosining o'rganilishini XX asrning 30- yillari o'rtalaridan S.P.Tolstov boshlab berdi. U o'zining dastlabki maqolasida ilk davlatchilik muammosining o'rganilish natijalarini tahlil qilgan edi.¹²⁴ S.P.Tolstov mil.avv. VIII-VII asrlarda Xorazmda yirik sug'orish kanallarining qurilishini qudratli markazlashgan davlat faoliyati bilan bog'lab, bunday yirik, uzun kanallarni qurib bo'lmas edi degan xulosaga kelgan¹²⁵. V.M. Masson Xorazmda yirik sug'orish inshootlarining qurilishi mil.avv.VI-V asrlarda barpo etilgan deb qayd etib, mil.avv. IX-VIII asrlarda Xorazmda sodda dehqonchilik va chorvachilik madaniyati rivojlangan bo'lib, mahalliy bronza davri madaniyati xususiyatlarini saqlab qolganligi haqida ma'lumot beradi¹²⁶. Haqiqatdan ham, Quyi Aqchadaryo havzasidagi qabilalar ibtidoiy dehqonchilik va uy-joy qurilishida bronza davri xo'jalik yo'nalishini tasdiqlaydigan ashyolar

¹²¹ Сагдуллаев А.Қадимги Ўзбекистон илк ёзма манбаларда Тошкент: Ўқитувчи, 1996; Сагдуллаев А. Культура юга Средней Азии. VII-V вв. до н.э. Ташкент, 1987. Сагдуллаев А. Культура Северной Бактрии в эпоху поздней бронзы и раннего железа. Автореф. дисс. канд. ист. наук. Л., 1978.

¹²² Масон В.М. Древнеземледельческая культура Маргианы. МИА. 195. № 73. с. 126.

¹²³ Henning W.B. Zoroaster. Politician or which-Doctor-oxford. 1951 p-43. Gershevich J. The Avestan hymn to Mithra-Cambridge. 1959, p. 14.

¹²⁴ Толстов С.П. Основные вопросы древней истории Средней Азии. М. Наука, 1938. с. 176-203.

¹²⁵ Он же. Древний Хорезм. М. Наука, 1948. с. 341.

¹²⁶ Масон В.М. Указ. раб. 6.341.

tadqiqotchining fikr-mulohazasiga qo'shilish imkonini beradi. M.G.Vorob'yova Xorazm davlati Quyi Amudaryo xududlarida qadim zamonlardan buyon paydo bo'lganligi to'g'risida xulosaga kelgan¹²⁷.

Tadqiqotchi A.Sagdullaev fikricha, xorazmliklar ahamoniylargacha bo'lgan tarixiy davrda O'rta Osiyoning janubida emas, balki Xorazmda istiqomat qilganlar¹²⁸. Eron tarixi mutaxassisi M.A. Dandamaev fikricha, ahamoniylargacha O'rta Osiyoda jadal sur'atda rivojlangan shahar va mustahkam davlat uyushmalari noma'lum bo'lib, hunarmandchilik dehqonchilikdan ajralmagan edi. O'rta Osiyoda mil.avv. I ming yillik o'rtalaridan So'g'diyona, Baqtriya va Marg'iyona markazlari shakllangan. Mil.avv.VI asrda ushbu viloyatlar hududlarida sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik madaniyati shakllanib, yirik siyosiy uyushmalar vujudga kelmagan. O'sha tadqiqotchining fikricha, ahamoniylar Xorazmni mil.avv.545 va 539 yillar o'rtalarida bosib olgan¹²⁹. M.M.Dyakonov fikricha, ahamoniylargacha O'rta Osiyoda yirik davlat uyushmalari rivojlanmagan bo'lib, ilk davlatlar kichik vohalarda tashkil topgan¹³⁰. Davlatchilik masalalari akademik A.Asqarov tadqiqotlarida yangi arxeologik ashyolar asosida yanda rivojlantirilgan¹³¹. I.M. Dyakonov tadqiqotlarida Xorazm vohasida davlatchilik masalalari yangi arxeologik ashyolar asosida ko'rib chiqildi¹³². V.M. Masson keyingi tadqiqotlarida Xorazm vohasida mil.avv. VII-VI asrlarda markazlashgan davlatning mavjudligini inkor qilgan¹³³.

Shu bilan birga, I.N.Xlopin, I.V. Xlopin, I.V.Pyanokov, E.V.Zeymal, V.V.Struve tadqiqotlarida O'rta Osiyoda sug'orma dehqonchilik va ko'p

¹²⁷ Воробьева М.Г. Проблема “Большого Хорезма” и археология //Этнография и археология Средней Азии. М.Наука, 1979.б.41.

¹²⁸ Сагдуллаев А.Маргиана и Бактрия. Исторические традиции и культурные связи в доантичную эпоху. Древний Мерв. Ашгабад: Илим,1989. с.17.

¹²⁹ Дандамаев М.А. Политическая история Ахеменидской державы.М.:Наука,1985; Он же. Иран при первых Ахеменидах.М.: Наука,1963. С.106.

¹³⁰ Дьяконов М.М. Сложение классового общества в Северной Бактрии //СА.1956. №3-4. с 121-135.

¹³¹ Аскарлов А. Некоторые вопросы истории становления узбекской государственности //ОНУ.1997, № 3-4.

¹³² Дьяконов И.М. Восточный Иран до Кира (К возможной новой постановке вопроса). История Иранского государства и культуры.М.: Наука,1971.

¹³³ Массон В.М. Цивилизация древнего Хорезма (Этапы и пути самоидентификации) //История материальной культуры Узбекистана, Самарканд, Вып № 30.1999.

tarmoqli hunarmandchilik taraqqiyoti asosida davlatchilik masalalari o'rganilgan.¹³⁴ Arxeologik ashyolarning tasdiqlashicha, Xorazm vohasida ro'y bergan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning tez sur'atlar bilan taraqqiyoti dehqonchilik vohalarining xo'jalik-madaniy rivojlanish darajasi Turon zamini dehqonchilik vohalari bilan tenglashganligi kuzatiladi. Mil.avv. VI asr o'rtalaridan boshlab, Xorazm vohasida tarixiy jarayonda sodir bo'lgan yangiliklar sifatida quyidagilarni izohlash mumkin.

Tarixiy jarayonning uzluksiz taraqqiyoti va yangi xo'jalik sohaslarining paydo bo'lishi, insoniyatning avvaldan xo'jalik olib borgan hududlarida madaniy hayotning davom etishi, insoniyat tomonidan yangi hududlarning o'zlashtirilishi, yirik sug'orish inshootlarining qurilishi va yangi sug'oriladigan tarixiy-jug'rofik vohalarning yuzaga kelishi (Charmanyob, Bozorqal'a sug'orish dehqonchilik vohalari), ishlab chiqarish kuchlarining taraqqiyoti va ma'lum xududlarda markazlashishi, temirning ixtiro qilinishi va undan yasalgan qurollarning xo'jalikda keng ishlatilishi, ko'p tarmoqli hunarmandchilikning rivojlanishi tufayli xilma-xil mahsulotlar ko'paydi, oziq-ovqat zaxirasi paydo bo'ldi, bu savdo-sotiq ishlarining boshlanishiga va qabilalar o'rtasida murosasiz munosabatlarni keltirib chiqardi, mulkiy tabaqalanishning boshlanishi, etnik jarayon va etnik munosabatlarning rivojlanishi, sak – massaget qabilalarining harbiy konfederatsiyasini vujudga keltirdi (To'maris, Skunxa rahnamoligida). Xorazm vohasida mil.avv. 1 ming yillik o'rtalaridan me'morchilik, rejalashtirish, qurilish va harbiy bilimlar sohasida aniq va ma'lum bilimlarga yo'naltirilgan maktab majmuasi shakllandi, yirik kanallar sohiliga yaqin xududlarda mukammal mudofaa tizimiga ega bo'lgan aholi manzillari paydo bo'ldi. Qishloq va shaharlar puxta ishlab chiqilgan reja asosida qurilgan, hajmi katta shaharlar dehqonchilik vohalarining ma'muriy-ijtimoiy, iqtisodiy-

¹³⁴ Хлопин И.Н. Историческая география южных областей Средней Азии. (Античность и раннее средневековье). Ашгабад: Илим, 1982; Пьянков И.В. Ктесий о Зороастре // Материальная культура Таджикистана. Вып 1. Душанбе, 1968; Он же. Хорасмии Гекатея Милетского // ВДИ. 1972. № 2. Он же. Средняя Азия в известных античного историка Ктесия. Душанбе: Дониш, 1975; Он же. Древнейшие государственные образования Средней Азии. (Опыт исторической реконструкции). // Древние цивилизации Евразии. История и культура М. Наука, 2001; Зеймал Е.В. Периодизации древней истории Средней Азии // Новые памятники письменности и искусства. М.: Наука, 1986; Струве В.В. Поход Дария-1 на саков-массагетов // Известия АН 1946. № 3.

etnomadaniy va harbiy markazi sifatida namoyon bo'lgan. Shu bilan birga, hajmi kichik qishloq manzillarining shaharlarni oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlab turganligi, shahar va qishloqlar mukammal mudofaa tizimni namoyon qilib qo'shni xududlarga harbiy ekspeditsiyalar, talonchilik urushlarning tayanchi, qurol-aslaha va harbiy san'atning takomillashish markaziga aylanish jarayoni kechgan. Insoniyat tarixida ilk temir davri-yangi tarixiy davr boshlanib, o'z navbatida, jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sohada chuqur o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bu o'zgarishlar jamiyatning iqtisodiy, madaniy, siyosiy taraqqiyotiga olib keldi. Avvalo ro'y bergan o'zgarishlar sifat jihatidan qaysi xo'jalik sohalarida qanday namoyon bo'lgan edi?

1.Mehnat qurollari va uy-ro'zg'or buyumlarini keng ishlab chiqarish,temirdan foydalanishga o'tilishi.

2.Bu davrda hajmi katta yirik kanallar qurilishi olib borildi. Bu esa sug'orma dehqonchilikning rivojlanishiga, aholining doimiy daromadini oshishiga va oziq-ovqat zaxirasining to'planishiga olib keldi.

3.O'troq aholi yashaydigan joylar qalin mudofaa devori bilan o'rab olinishi yuz berdi (mudofaa devor, yo'lak, burj, ark, o'q uchli shinak).

4.Aholi yashaydigan joylarda nufuzli zodagonlarning alohida mudofaa devor bilan o'rab olingan qarorgohi (ark-a'lo) vujudga kelgan.

5.Chorvador qabilalar rasman siyosiy kuch sifatida tarix sahnasiga chiqdilar.

6.Xuddi shu tarixiy davrdan boshlab, o'troq va chorvador qabilalar o'rtasida o'zaro aloqalar jadal rivojlanib, ba'zida xududlar masalasida ta'sir doirasini kengaytirish maqsadida keskin nizolarni keltirib chiqardi. Yuqorida ko'rsatilgan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy sohadagi o'zgarishlar butun Markaziy Osiyoga xos xususiyat bo'lgan¹³⁵

Ilk temir davrida yuz bergan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar siyosiy bo'linishni, mulkiy tengsizlikni yanada kuchaytirdi. Bu davrda Markaziy Osiyo hududida yashagan qabilalarning xududiy harbiy-siyosiy ittifoqi vujudga kelgan,

¹³⁵ Асқаров А. Ўрта Осиёнинг қадимги давр хусусиятлари. Тошкент,1994.6.191-192 .

uning boshqarilishi va harbiy demokratik printsiplariga to'liq amal qilingan. Albatta, bu harbiy-siyosiy ittifoq tepasida podsho emas, balki harbiy oqsoqol yoki kohinlar turgan. Darhaqiqat, yuqoridagi ko'rsatilgan ijtimoiy-iqisodiy va siyosiy jihatidan yuz bergan munosabatlar Markaziy Osiyoning barcha hududida bir tarixiy taraqqiyot bosqichida kechdi. Qadimgi Xorazmda ilk temir davriga xos yuqoridagi xususiyatlarning ba'zilar mavjud bo'lgan. Xuddi shu tarixiy davrda Markaziy Osiyoda o'troq hayot asosida dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq rivojlanishi natijasida ilk shaharlar vujudga keldi. Temirdan qilingan qurollarning xo'jalikda keng qo'llanilishi mehnat qurollarining takomillanishiga, yangi xo'jalik qurollarining paydo bo'lishiga, mehnat unumdorligining oshishiga, ishlab chiqarish kuchlarining yangi xududlarga joylashishiga keng yo'l ochib berdi. Birinchi xo'jalik yurituvchilar chorvador qabilalar bo'lib, doimiy ko'chmanchilik tarzda hayot kechirgan. Ikkinchi xo'jalik usuli o'troq holda hayot kechirib, sug'orma dehqonchilik asosida xo'jalik yuritgan qabilalar faoliyati bilan bog'liq bo'lgan. Bu qabilalar kichik-kichik vohalarda joylashib, tarixiy-madaniy va etnik markazlarni vujudga keltirdilar. Jamiyatda vujudga kelgan ijtimoiy kuchlarning manfaatlari bir-biriga zid kelib qoldi va kam sonli kishilarning ma'naviy ehtiyoji moddiy ehtiyojidan ustun bo'ldi. Qabila sardorining iqtisodiy va huquqiy mavqega ega bo'lishi natijasida boylikni ko'paytirish, ortiqcha ishlab chiqarish kuchlariga ega bo'lish ehtiyoji oshib boradi. Bu jarayonni Abu Rayhon Beruniy o'zining "Mineralogiya" asarida "Inson yalang'ochligi va madorsizligi tufayli, himoya qiluvchi tayanchlari bo'lmaganligi sababli boshqalar tomonidan musibat chekardi. Uning ehtiyojini qondira olardi. Shunday qilib, ko'rib turibmizki, himoya qilish zaruriyati tag'in boshqa ehtiyojlar (ovqat, kiyim-kechak va h.k.) ni qondiruvchi zaruriyatlar kabi moddiy omillar insonlarni birgalikda yashashga da'vat etadi. Ehtiyojlar turli-tuman va son-sanoqsizdir. Faqat ularni bir qancha kishilar birgalikda ta'minlay olishlari mumkin, buning uchun kishilarda shahar yaratish zaruriyati tug'iladi"- "Geodeziya" asarida esa "Odam ehtiyojining ko'pligi, tiyilishi kamligi, himoya qilish quroliga ega bo'lmaganligi va dushmanni ko'pligi tufayli, bir-birini

himoya qilish zarurligi, o'zini va boshqalarni ta'min etishga zarur bo'lgan biror ishni bajarish uchun o'z qarindosh-urug'i bilan jamiyatda birlashishga majbur bo'lgan"¹³⁶, -deb qayd qilgan.

Yuqorida keltirilgan tarixiy dalillar asosida quyidagi xulosani qayd qilish mumkin.

Aholining ma'lum xududda vaqtincha bo'lsa ham devor doirasida markazlashgan savdo-xunarmandchilik markazlari paydo bo'lgan. Bu jarayon eng avvalo Janubiy Turkmanistonda sodir bo'lgan edi. Murg'ob vohasida Nomozgohtepa, Oltintepa, keyinchalik Elkandepa, Ganurtepa, Kelleli yodgorliklarini ilk shaxarlar deb nomlangan.

Miloddan avvalgi III-II ming yilliklarda dastlabki shaharlar O'rta Osiyoning janubida ziroatkor aholi tomonidan qad ko'tarilgan.

Miloddan avvalgi VII-V asrlarda qad ko'tarilgan qal'alar bronza davri aholisining yangi avlodi avvalgi makonlarini tashlab, yangi xududga kelib shaharlarni barpo qilganlar. Shaharlar turli funktsiyalarni bajargan: Jumladan:

- 1.Aholining markazlashishi;
- 2.Ko'p tarmoqli xunarmandchilik markazi
- 3.Ma'muriy-xududiy markaz
- 4.Madaniy-etnik markaz
- 5.Siyosiy markaz
- 6.Harbiy va mudofaa markaz
- 7.Tarixiy – madaniy viloyatlar markazi.

¹³⁶ Абу Райхан Беруни. Геодезия. Т. III.Ташкент: Фан,1966. с.83.

XULOSA

Xorazm vohasida miloddan avvalgi VI asr ikkinchi yarmi oxiri V asr mobaynida aholi tomonidan madaniy-xo'jalik markazlari va uning tarkibiga kirgan mikrovohalarning vujudga kelishi va rivojlanish jarayonini tarixiy ma'lumotlar asosida yoritish masalalari o'z ilmiy echimini topganligi kuzatildi. Miloddan avvalgi VI asr arafasida Xorazm vohasida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishi aholi tomonidan barpo qilingan erto'lalar xukmronligi tahlil qilindi. Miloddan avvalgi VI asrning ikkinchi yarmi oxiriga kelib, Quyi Amudaryo havzasiga Baqtriyadan migratsiya qilgan qabilalar o'zlarining loy me'morchiligi sohasida aql ummonida to'plagan bilimlarini yangi xududda davom ettirganliklari oydin bo'lib qoldi. Miloddan avvalgi VI asr ikkinchi yarmi oxirida dastlabki madaniy-xo'jalik markazlar ko'chmanchilar dunyosi chegaralarida qad ko'tarilganligi ma'lum bo'ldi. Bizning nazarimizcha, ziroatkor aholi Xumbuztepa, Ko'zaliqir, Odoytepa, Qo'shqal'a, Qan'qaqal'a, Butentou chegara qal'a sifatida qad ko'tarilgan. Miloddan avvalgi V asrga kelib, so'l sohilda Xiva Qal'aliqir, Butentou-1.2, Hazorasp, o'ng sohilda esa Dingilja qishloq tipidagi aholi markazi qurilgan.

Xorazmning arxaika davri qishloq va shaharlari aholining avvaldan puxta o'ylab ishlab chiqargan rejalashtirish asosida qurilganligi kuzatildi. Shu ma'noda aholi markazlarining qurilishidp geografik o'rin muhim o'rin egallagan.

Ko'zaliqir, Qal'aliqir tabiiy balandlikka, Xumbuztepa Odoytepa, Qushqal'a daryo sohiliga tutashgan balandlikka qurilgan bo'lsa, Hazorasp, Xiva tekislikka barpo qilingan.

Dingilja qishlog'i Janubiy Oqchadaryo havzasidagi tekislikka qurilgan. Arxaika davri shaharlari va qishloq tipidagi aholi markazlari qurilishida daryo va uning irmoqlaridan (Dovdon) chiqarilgan sug'orish inshootlari muhim o'rin egallagan. Masalan: Sariqamish havzasida Charmanyob, Qal'aliqir, Tunidaryo, Xeykanik, Kaltaminor sug'orish kanallari madaniy-xo'jalik dehqonchilik vohalarini hosil qilgan. Ularning sohili, etagiga qurilgan qal'alar dehqonchilik

vohalarining bosh shaharlariga, ma'muriy-siyosiy, etnik, harbiy va diniy markazi bo'lgan.

Arxaika davri shaharlari qurilishida asosiy ashyo paxsa, to'g'ri burchakli va kvadrat g'ishtlar bo'lgan. Aholi markazlari ikki qatorli yo'laklarga ega bo'lgan devorlar o'rab olgan. Ular o'z navbatida burjlar bilan mustaxkamlangan.

Shahar va qishloqlar me'morchiligidagi mudofaa elementlarning tuzilishiga qarab quyidagi tiplarga ajratish mumkin.

1-tip. Hajmi 40 ga, devor, yarim aylana burj, to'g'riburchakli shinak (Ko'zaliqir).

2-tip. Hajmi 70 ga, mudofaa devor to'g'riburchakli burj, darvoza oldi himoya (Qal'aliqir)

3-tip. Hajmi 26 ga to'g'riburchak, ikki qatorli devor, to'g'riburchakli burj oralig'i 30 m.

O'rta hajmli aholi markazlari:

1-tip. Hazorasp 10 ga. Ikki qatorli devor, to'g'riburchakli Pilyastr, uning markazida nayza uchli shinak.

Qishloq tipidagi aholi markazlari.

1.Odoytepa,Qushqal'a, Dingilja 0,5-1 ga.

Qishloq va shaharlarda mudofaa inshootlar kompleksi mavjudligiga qarab, ularni ikki guruhga ajratish mumkin.

1-guruh shahar mudofaa tizimi

2-guruh qishloq mudofaa tizimi.

Mudofaa tizimga ega bo'lgan qishloq va shaharlar Xorazm vohasi aholisi geografik xususiyatdan kelib chiqib mudofaa maktabini shakllantirgan bo'lib, u antik davrda davom etgan.

Mudofaa tizimli aholi markazlarining barpo qilinishi Xorazm jamiyatining rivojlanishi tarixiy vaziyat qaltis sharoitida yuz bergan.

FOYDALANILGAN ADAVIYOTLAR RO'YNATI

Siyosiy-nazariy adaviyotlar.

1. Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. Т. 1995.
2. Каримов И.А. Хушёрликка даъват. Т. 1999
3. Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, ёркин ва фаровон ҳаёт, пировард мақсадимиз. Т. "Ўзбекистон" Т. 8. 2000
4. Каримов И.А. Бунёдкорлик йўлидан. 4-жилд, Т. "Ўзбекистон", 1996.
5. Абу Райҳан Беруний. Геодезия. Т. Т. III. Ташкент: Фан, 1966.

Manbalar

6. Авеста. Видевдад 1-2 Душанбе, 1985.
7. Геродот. Тарих. IX .III. 117
8. Страбон. География. XI. 6.8.
9. Полибий. Умумий тарих. X

Umumiy adabiyotlar

9. Аскарлов А. Некоторые вопросы истории становления узбекской государственности // ОНУ. 1997, № 3-4.
10. Авеста. Видевдат-1-2. Душанбе, 1985.
11. Варатов П. Ўзбекистон табиий географияси. Тошкент, "Ўқитувчи", 1997
12. Варатов П, Маматкулов М, Рафиқов А. Ўрта Осиё табиий географияси. Т. "Ўқитувчи", 2002.
13. Вуряков Й.Ф. Генезис и этапы развития городской культуры Ташкентского оазиса. Ташкент, 1982.
14. Вайнверг В.И. Экология Приаралья в древности и средневековье // Етнографическое обозрение // М., Н, 1997.
15. Виноградов А.В. Неолитические памятники Хорезма /МНЕ, Вип-3, 1962.
16. Виноградов А.В. Древние орошители и риволовы Среднеазиатского Междуречья М. «Наука», 1981.
17. Итина М.А. Новые стоянки Тозавагявской культуры Ангка-5 и Кават-3 в 1957 г /МНЕ, Вип 2, 1960.

- 18.Итина М.А.Поселение Якка-Парсан-2 (раскопки 1958-1959 гг) МНЕ,Вип 6, 1963.
- 19.Вишневская О.А. Раскопки на городище Кйзели-гир.Ао, 1971, М.” Наука”, 1972.
- 20.Вишневская О.А. Раскопки городища Кйзели-гир Ао, 1977 М. “Наука” 1978.
- 21.Вишневская А, Рапопорт Й.А. Городище Кўзели-гир: К вопросу о ранним епоне истории Хорезма //ВДИ, № 2, 1947
- 22.Воровьева М.Г. Провлема «Волшого Хорезма и Арнеология //Етнография и арнеология Средней Азии. М. «Наука», 1979.
- 23.Воровьева М.Г. Дингилджа . Усадва середины Итис-я до.н.е. в древнем Хорезме М.Наука 1973.
- 24.Воровьева М.Г. Провлема “Волшого Хорезма” и арнеология //Етнография и арнеология Средней Азии. М.Наука, 1979.
- 25.Гуломов Я.Ғ. Хоразмнинг суғорилиш тарихи.Т., “Фан”, 1959.
- 26.Дандамаев М.А. Политическая история Анеменидской держави М.: Наука, 1985;
- 27.Иран при первин анеменидан.М.: Наука,1963.
28. Дяконов М.М. Сложение классового овщества в Северной Вактрии //СА.1956. №3-4.
- 29.Дяконов И.М. Восточный Иран до Кира (К возможной новой постановке вопроса). История Иранского государства и култури.М.: Наука,1971
- 30.Итина М.И. Поселение Яккапарсан-2 (1958-1959гг) МНЕ,вип № 6 М, 1963
- 31.Кес А.С. Антропогенное воздействие на формирование аллйвиално-делтовин равнин Амудары //Култура и искусство древнего Хорезма //М.Наука, 1981
32. Курвонийёзов Р.Хоразм географияси. Урганч, 1998,
- 33.Массон В.М. Тсивилизатсия древнего Хорезма (Етапи и пути самоидентификатсии) //История материальной култури Узбекистана, Самарканд, Вип № 30.1999.

- 34.Массон В.М. Поселение Джейтун. Ленинград, «Наука» 1972.
- 35.Массон В.М.Новая цивилизация древневосточного типа на Юге Средней Азии //Памятники культуры. Новые открытия// М, «Наука», 1976.
- 36.Массон В.М. Раскопки жилищ кварталов и оборонительных сооружений.
- 37.Массон В.М. Древнеземледельческая культура Маргиана. МИА.195. №73.
- 38.Негматов Н.Н. Таджикистан на пути к цивилизации //Культура первобытной эпохи Таджикистана. Душанбе, 1982;
- 39.Веляева Т.В. К исторической топографии городов Уструшани //Древняя и средневековая археология Средней Азии. Ташкент, 1990.
40. Пянков И.В.Норасмии Гекатея Милетского ВДИ, № 2., М, “Наука”, 1972.
41. Пилипко В.Н. Из раскопок Амударинского отряда АО, 1968 г. М.Наука, 1969
42. Рапопорт Я.А., Лапиров-Сковло М.С. Раскопки дворцового здания на городище Калалигир-1 в 1958-1961 гг (МНЕ,вип-6, 1963.)
43. Ртвеладзе Е.В. Формирование городов Вактрии-Тонаристана. Городская среда и культура Вактрии-Тонаристана и Согда (Ивв до н.е.-VII в.н.е.)// тез.докладов межд.коллокви.1986.
44. Совиров Қ. Хоразмнинг қишлоқ ва шаҳарлари мудофаа иншоотлари. Т “Фан”, 2009.
- 45.Сагдуллаев А.Маргиана и Вактрия. Исторические традиции и культурные связи в доантичную эпоху. Древний Мерв. Ашгабад: Илим,1989.
- 46.Сагдуллаев А.Қадимги Ўзбекистон илк ёзма манбаларда Тошкент: Ўқитувчи, 1996; Сагдуллаев А. Культура Юга Средней Азии. VII-V вв.до н.е.Ташкент, 1987.
- 47.Сагдуллаев А. Культура Северной Вактрии в эпоху поздней бронзы и раннего железа. Автореф.дисс.канд.ист.наук.Л.,1978.
- 48.Толстов С.П. Древний хорезм М. «Наука», 1948.
- 49.Толстов С.П.По следам древнехорезмийской цивилизации М-Л, «Наука», 1948.

50. Толстов С.П. По древним делтам Окса и Яксрта. М, Наука, 1962. 47.
51. Толстов С.П., Итина М.А. Проблема суярганской культуры. СА. НИ. М, «Наука». 1960.
52. Итина. М.И. Новые стоянки Тазабагявской культуры. МНЕ, вип-1, М, «Наука», 1959.
53. Итина М. И. Новые стоянки Тазавагявской культуры Ангка-5 и Кават-3 в 1957. МНЕ. Вип №2 1960.
54. Итина. М. И. Раскопки могилника Тазавагявской культуры Кокча-3. МНЕ. Вип № 5, М., «Наука», 1961.
55. Нлопин И.Н. Историческая география Йжнин овластей Средней Азии. (Античность и раннее средневековье). Ашгабад: Илим, 1982.
56. Пянков И.В. Ктесий о Зороастре // Материальная культура Таджикистана. Вип 1. Душанве, 1968;
57. Пянков В. И. Норасмии Гекатея Милетского // ВДИ. 1972. № 2.
58. Пянков И. В. Средняя Азия в известии античного историка Ктесия. Душанве: Дониш, 1975.
59. Древнейшие государственные образования Средней Азии. (Опыт исторической реконструкции). // Древние цивилизации Евразии. История и культура М. Наука, 2001;
60. Зеймал Е.В. Периодизация древней истории Средней Азии // Новые памятники письменности и искусства. М.: Наука, 1986;
61. Струве В.В. Поход Дария-1 на саков-массагетов // Известия АН 1946. №3.
62. Шайдуллаев Ш. Илк давлатларнинг археологик велгилари // Ўзбекистон тарихи. 2002. 3-сон.

Internet materiallari.

63. Henning W.B. Zoroaster. Politician or wish-Dostor-oxford. 1951.
- Gershevitch J. The Avestan hymn to Mithra-Sambridge. 1959.





Рис. 11. Городище Кюзели-гыр. Реконструкция.



Карта 1. Хорезм и окружающие страны в VI IV вв. до н. э.

1 - доахеменидское хорезмийское государство по Маркварту (XVI сатрапия);
 2 — сфера влияния Хорезма в IV в. до н.э. по Арриану; 3 - походы ахеменидов: 1 - Кир, 2 - 3 - Дарий I, 4 - предполагаемые движения приаральских племен в Восточную Европу.






Рис. 23. Памятники кангюйской культуры








Рис. 246. Памятники кангюйской культуры

**Urganch Davlat universiteti Magistratura bo'limi 5A120302-Tarix
(yo'nalishlar va mamlakatlar bo'yicha) yo'nalishi 2-bosqich magis-
tranti Yusupov Ahmedjon Shonazarovichning "Xorazmda arxaika
davri madaniy-xo'jalik markazlari (joylashishi va tipologik
xususiyatlari)" mavzusidagi ilmiy ishiga**

X U L O S A

Quyi Amudaryo havzasida ajdodlarimiz Amudaryo injiqlariga bardosh berib, uning xadyasini o'z manfaatlariga xizmat qildirish barobarida ming-minglab yillar mobaynida qoldirib ketgan moddiy va manaviy madaniyat Sho'ro hokimiyati yillarida rus va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan erxeologik jihatdan o'rganilganligi ma'lum. Lekin ajdodlarimiz tomonidan qoldirilgan boy xazinaning tarixi faqat bir tomondan, ya'ni moddiy jihatdan o'rganilganligini qayd qilish joiz. Quyi Amudaryo havzasida Amudaryo dinamikasi asosida vujudga kelgan suv havzalari etaklarida, sun'iy sug'orish inshootlari sohili yaqinida va o'rta etaklarida vujudga kelgan shaxarlar, ularning joylashishi, tarixiy-madaniy markazlar, dehqonchilik vohalarining shakllanishi, shaxar davlatlar masalasi ilmiy yechimini topgan. Shu manoda A. Yusupovning olib borgan tadqiqot mavzusining mazmun va mohiyati yuqorida keltirilgan muammolarni topishga qaratilgan. Magistrant Sho'ro davri tadqiqotchilari tomonidan nashr qilingan monografiya, to'plam, risola, maqola va ilmiy-seminar tezislardan tarixiy ma'lumotlarni nazariy-qiyosiy tahlil qilib, mustaqillik yillarida Qoraqolpog'istonlik va Xorazm Ma'mun akademiyasi, Al-Xorazmiy nomli Urganch Davlat Universiteti olimlari tomonidan e'lon qilingan tarixiy ma'lumotlarni umumlashtirilgan holda tadqiqot mazmunini yoritishga harakat qilgan va bu maqsadga erishgan. Miloddan

avvalgi VI-V asrlarda Xorazm vohasi va unga tutashib ketgan Janubiy sarhadlarda aholi tomonidan Amudaryo va uning irmoqlaridan chiqarilgan magistral qanallar va ikki yon tomonga yo'naltirilgan ariq va yoblar natijasida dehqonchilik voha va miqrovohalarning vujudga kelishi, shaxarlarning barpo qilinishi va shu asosda shaxar-daylatlarning shakllanishi masalalari yangicha qarashlar va yondashuvlar asosida yoritilgan muhim ahamiyat kasb etadi deb xisoblayman.

O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining magistrlik disertatsiyasining barcha talablariga javob beradi. Yuqorida qayd qilingan tarixiy ma'lumotlar ilmiy asosga ega va ishni ximoyaga tavsiya qilaman.

Ilmiy rahbar:

V.G. dots. Q.Sobirov



Urganch Davlat universiteti Magistratura bo'limi 5A120302-Tarix
(yo'nalishlar va mamlakatlar bo'yicha) yo'nalishi 2-bosqich magistranti
Yusupov Ahmedjon Shonazarovichning "Xorazmda arxaika davri madaniy-
xo'jalik markazlari(joylashishi va tipologik xususiyatlari)" mavzusidagi
magistrlik dissertatsiyasiga

T A Q R I Z

Magistratura bo'limi Tarix (yo'nalishlar va mamlakatlar bo'yicha) mutaxassisligi 2-bosqich magistranti Yusupov Ahmedjon Shonazarovich ilmiy rahbari dots. Q.Sobirov bilan birgalikda "Xorazmda arxaika davri madaniy-xo'jalik markazlari(joylashishi va tipologik xususiyatlari)" mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi ustida tadqiqot olib borishdi. Mazkur ilmiy ish bugungi kunda nihoyatda dolzarb mavzu hisoblanadi.

Magistrlik dissertatsiyasining tarixiy sanasi mil.avv. VI-V asrlar bo'lib, Sobiq Sovet tarixshunosligida Xorazmning arxaika davriga oid tarixiy ma'lumotlari yuluq-yuluq holatda edi. Arxaika davrda yuz bergan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishining omillari, antropogen langshafti masalalarida "oq dog" lar mavjud edi.SHu bilan birga, arxaika davrida aholi tomonidan qad ko'tarilgan shaharcha va shaharlarning joylashish xususiyatlari, tipologiyasi va paleodemografiya va paleoekonomika masalalariga umuman e'tibor berilgan emas. SHuningdek, Amudaryo va uning shahobchalaridan pasttekisliklar tomon kanallar chiqarilishi munosabati bilan vujudga kelgan madaniy-xo'jalik vchalar to'g'risida ilmiy mulohazalarga ega bo'lgan tadqiqot e'lon qilingan emas. Yuqorida qayd qilingan muammolarning ilmiy echimi tadqiqotchi tomonidan topilgan.Tadqiqot mazmunini qamrab olgan tarixiy ma'lumotlar O'zbekiston va Xorazm tarixini miloddan avvalgi VI-V asrlarda qamrab olgan bo'limini yoritishga nazariy manba bo'ladi.O'zbekiston Respublikasida hozirgi zamon tarix fani oldiga qo'yilayotgan talablar va tarixshunoslik muammolariga yangicha yondashuv natijasi o'laroq, tadqiq etilgan mavzuning aktualligini, tadqiqot ishining natijalarini hisobga olib mavzuni magistr akademik darajasini olish uchun himoyaga tavsiya etaman.

Urganch Davlat universiteti
Tarix kafedrasi mudiri:


U. N. T. Abdullayev
IMZONI TASDIQLAYDI
KADRLAR BO'LIMI BOSHCHI

Urganch Davlat universiteti Magistratura bo'limi 5A120302-Tarix
(yo'nalishlar va mamlakatlar bo'yicha) yo'nalishi 2-bosqich magistranti
Yusupov Ahmedjon Shonazarovichning "Xorazmda arxaika davri madaniy-
xo'jalik markazlari(joylashishi va tipologik xususiyatlari)" mavzusidagi
magistrlik dissertatsiyasiga tashqi

T A Q R I Z

Magistr A.Yusupov tomonidan magistrlik mavzusini tanlab olishida jon bor. Chunki Sobiq sovet tarixshunosligida Xorazmning arxaika davri jamiyatining rivojlanish jarayoni, Amudaryoning o'ng va so'l sohili hududlarining aholi tomonidan o'zlashtirilishi va shu jarayon bilan bog'liq bo'lgan shaxarlarning qurulishi natijasida vujudga kelgan ma'daniy xo'jalik markazlar va ularning tarkibiy qismi bo'lgan mikrovohalarning rivojlanishi o'zining ilmiy yechimini topgan emas. Miloddan avvalgi VI-V asrlarda quyi Amudaryo bo'yi, Sariqamish bo'yi va Uzboy sarhadlarida aholi tomonidan o'zlashtirilishi, magistral qanallarning qurulishi natijasida bir-biridan ajralgan hududlarda shaxarlar qad ko'tarilishi natijasida tarixiy ma'daniy viloyatlar rivojlanishi va unga bo'lgan omillar mavzu mundarijasini aks etgan bo'limlarda o'zining ijobiy tomonini topgan. Mazkur ijobiy sifatlar uch bob, sakkiz paragrafda o'z aksini topgan. Magistr A.Yusupov tomonidan arxaika davrda kechgan tarixiy jarayon,etnogenez va etnik munosabatlar, shaxarsozlik madaniyatining vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanish tarixi yozma manbalar va arxeologik malumotlarni umumlashtirish asosida yangi zamon ruhiga mos yangicha yondashuvlar va qarashlar asosida yoritilishi magistrlik ishining dolzarbligini bildiradi. Magistrlik ishida qayd qilingan malumotlar ilmiy asosga ega deb hisoblayman. O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining magistrlik disertatsiyasining barcha talablariga javob beradi deb xisoblab magistrlik ishini ximoyaga tavsiya qilaman.

VPKQTMOI ijtimoiy fanlar va ma'naviyat
asoslari kafedrası mudiri, dots:

t.l.n G.Husaynbekova

Uzaybek Husaynbekova
prof.